

M.Murodova

FOLKLOR VA ETNOGRAFIYA



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

82.3(502)

M 96

MATLUBA MURODOVA

FOLKLOR VA ETNOGRAFIYA

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim
vazirligi tomonidan o'quv qo'llanma sifatida
tavsiya etilgan*

Ўзбекистон Республикаси
Таълим вазирлиги

Nizomiy nomli
TDFU
kutubxonasi

У-68/10/4

TOSHKENT-2008

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
2585
TDFU
AXBORO'OT-RESURS MARKAZI

M.Murodova. Folklor va etnografiya. «Aloqachi». –T., 2008., 100 bet.

Mazkur o'quv qo'llanma o'zbek folklorshunosligining so'nggi yutuqlariga suyangan holda yaratildi. Unda o'zbek folklorining o'ziga xos jihatlari, janrlar tarkibi va betakror badiiyatini ko'rsatishga alohida e'tibor qaratildi.

O'quv qo'llanma madaniyat va san'at yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlarining talabalari uchun mo'ljallangan. Shuningdek, respublikamizdagi folklor-etnografik jamoalar qatnashchilari hamda mazkur fanga qiziquvchilarga ham tavsiya etiladi.

Mas'ul muharrir: N.K. QOSIMOV – fil. fanlari nomzodi,
dotsent.

Taqrizchilar: S.DAVLATOV – fil. fanlari nomzodi;
SH. TURDIMOV – fil. fanlari nomzodi,
dotsent.

ISBN 978-9943-326-35-4

«Aloqachi» nashriyoti, 2008.

KIRISH

O'zbek xalqining boy va rang-barang folklor merosiga egaligi uning etnik tarkibining serqatlamligi va tarixiy taraqqiyot yo'lining dunyo tamadduni o'choqlaridan bo'lmish Markaziy Osiyodagi ikki daryo oralig'ida kechganligi bilan ham chambarchas bog'liq. Chunki Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi hudud qadim-qadimdan xalqlarning buyuk ko'chishlari hamda turli siyosiy, madaniy, iqtisodiy munosabatlardagi yuksalish va tushishlarda bir chorraha vazifasini o'tagan. Bu borada birgina Buyuk Ipak yo'lining ushbu hududni deyarli to'liq kesib o'tganligini eslashning o'zi kifoya. O'z navbatida, qaysi yerdan savdo yo'llari o'tsa, o'sha joyda iqtisodiy-siyosiy va madaniy yuksalish jarayonlari kechganligi tabiiydir.

O'rta Osiyo hududi, jumladan, ikki daryo oralig'ida paydo bo'lgan etnoslar va davlatlar tarixining butun dunyo tarixi va taraqqiyotida muhim o'rin tutishi ham bu hududning har jihatdan qulay sharoitda joylashganligi bilan belgilanadi.

O'zbek xalqi uchta katta etnik birikmadan tashkil topgan: bular qorluq, qipchoq va o'g'iz qabila birlashmalaridir. Ularning o'zaro birlikvi natijasida bugungi o'zbek xalqining yadrosi paydo bo'ldi.

Ma'lumki, bu uch qabila birlashmalari boshqa hududlarda ham turkiy xalqlarning shakllanib, tarkib topishida muhim rol o'ynagan. Ayni jarayonlar xalq og'zaki poetik ijodida ham yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Xususan, xalq ommasining badiiy ijodiy-amaliy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan an'anaviy moddiy va nomoddiy madaniyatning xalq og'zaki badiiy ijodi (folklor), xalq musiqasi, xalq teatri (tomosha san'ati), xalq o'inlari (raqs), xalq tasviriy va amaliy bezak san'ati, xalq arxitekturasi hamda shu kabi ijodiyot turlarida bu holat yanada yaqqol ko'zga tashlanadi.

Shu sababli ham o'zbek xalqi boshqa turkiy qardoshlari va yonma-yon yashayotgan qo'shnilari bilan har jihatdan yaqin aloqa bog'lagan, ko'plab mushtarak jihatlarga ega. O'zbek etnosi tom ma'noda boy madaniy meros yaratdi. Jumladan, uning folklori hajm va badiiyati bilan ham alohida e'tiborga loyiq. Kelajak avlodni har tomonlama g'oyaviy-estetik jihatdan tarbiyalashga ahamiyati beqiyosdir.

M.Murodova. Folklor va etnografiya. «Aloqachi». –T., 2008., 100 bet.

Mazkur o'quv qo'llanma o'zbek folklorshunosligining so'nggi yutuqlariga suyangan holda yaratildi. Unda o'zbek folklorining o'ziga xos jihatlari, janrlar tarkibi va betakror badiiyatini ko'rsatishga alohida e'tibor qaratildi.

O'quv qo'llanma madaniyat va san'at yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlarining talabalari uchun mo'ljallangan. Shuningdek, respublikamizdagi folklor-etnografik jamoalar qatnashchilari hamda mazkur fanga qiziquvchilarga ham tavsiya etiladi.

Mas'ul muharrir: N.K. QOSIMOV – fil. fanlari nomzodi, dotsent.

Taqrizchilar: S.DAVLATOV – fil. fanlari nomzodi;
SH. TURDIMOV – fil. fanlari nomzodi, dotsent.

ISBN 978-9943-326-35-4

«Aloqachi» nashriyoti, 2008.

KIRISH

O'zbek xalqining boy va rang-barang folklor merosiga egaligi uning etnik tarkibining serqatamligi va tarixiy taraqqiyot yo'lining dunyo tamadduni o'choqlaridan bo'lmish Markaziy Osiyodagi ikki daryo oralig'ida kechganligi bilan ham chambarchas bog'liq. Chunki Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi hudud qadim-qadimdan xalqlarning buyuk ko'chishlari hamda turli siyosiy, madaniy, iqtisodiy munosabatlardagi yuksalish va tushishlarda bir chorraha vazifasini o'tagan. Bu borada birgina Buyuk Ipak yo'lining ushbu hududni deyarli to'liq kesib o'tganligini eslashning o'zi kifoya. O'z navbatida, qaysi yerdan savdo yo'llari o'tsa, o'sha joyda iqtisodiy-siyosiy va madaniy yuksalish jarayonlari kechganligi tabiiydir.

O'rta Osiyo hududi, jumladan, ikki daryo oralig'ida paydo bo'lgan etnoslar va davlatlar tarixining butun dunyo tarixi va taraqqiyotida muhim o'rin tutishi ham bu hududning har jihatdan qulay sharoitda joylashganligi bilan belgilanadi.

O'zbek xalqi uchta katta etnik birikmadan tashkil topgan: bular qorluq, qipchoq va o'g'iz qabila birlashmalaridir. Ularning o'zaro birkuvi natijasida bugungi o'zbek xalqining yadrosi paydo bo'ldi.

Ma'lumki, bu uch qabila birlashmalari boshqa hududlarda ham turkiy xalqlarning shakllanib, tarkib topishida muhim rol o'ynagan. Ayni jarayonlar xalq og'zaki poetik ijodida ham yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Xususan, xalq ommasining badiiy ijodiy-amaliy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan an'anaviy moddiy va nomoddiy madaniyatning xalq og'zaki badiiy ijodi (folklor), xalq musiqasi, xalq teatri (tomosha san'ati), xalq o'inlari (raqs), xalq tasviriy va amaliy bezak san'ati, xalq arxitekturasi hamda shu kabi ijodiyot turlarida bu holat yanada yaqqol ko'zga tashlanadi.

Shu sababli ham o'zbek xalqi boshqa turkiy qardoshlari va yonma-yon yashayotgan qo'shnilari bilan har jihatdan yaqin aloqa bog'lagan, ko'plab mushtarak jihatlarga ega. O'zbek etnosi tom ma'noda boy madaniy meros yaratdi. Jumladan, uning folklori hajm va badiiyati bilan ham alohida e'tiborga loyiq. Kelajak avlodni har tomonlama g'oyaviy-estetik jihatdan tarbiyalashga ahamiyati beqiyosdir.

XALQ OG'ZAKI IJODI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Mustaqillikka erishganimizdan buyon o'tgan qisqa muddatda ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan barcha tarixiy, madaniy, adabiy va san'at yodgorliklari, jumladan, xalq og'zaki ijodi namunalari chuqur o'rganish, tahlil qilish, ulardagi umumbashariy va milliy g'oyalarning zamon talablariga mos ravishda yosh avlodni komil inson sifatida tarbiyalash yo'lida ushbu merosdan foydalanish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Yurtboshimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, istiqloq tufayli xalqning azaliy turmush tarzi, an'analari, urf-odatlari, ko'nikmalarini, tabiiy boyluklarini har tomonlama hisobga olib yuksaltirish amalda rivojlantirish imkoniyatlari yaraldi. Yurtboshimizning milliy qadriyatlarimiz, go'zal urf-odatlarimizni uzoq asrlar davomida shakllangan boy xalq og'zaki ijodimizni, ezgulik, mehru-muhabbat bilan yo'g'rilgan bayramlarimizni tiklash uchun uning diqqat-e'tibor qaratish zarurligini mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq uqtirib kelayotgani va ularga davlat miqyosida keng yo'l ochib berganligi bejiz emas.

Istiqloq tufayli xalq og'zaki poetik ijodini rivojlantirishga, xalq yaratgan ma'naviy-madaniy merosni avvalgidek sinfiylik, nuqtayi nazaridan emas chinakamiga san'at namunalari sifatida, chop etish va tahlil etishga imkoniyati yaratildi. Xalq donoligining nodir namunalari bo'lmish folklor asarlari mag'zidagi ezgu g'oyalar haqida Prezidentimiz shunday yozgan: «Qadimgi ajdodlarimiz komil inson haqida butun bir axloqiy talablar majmuasini, zamonaviy til bilan aytsak, sharqona axloq Kodeksini ishlab chiqqanlar. Kishi qalbida haromdan hazar, nopokka, adolatsizlikka nisbatan muhosasiz isyon bo'lishi kerak», — deganlarida hozirgi o'sib kelayotgan yosh avlod uchun nihoyatda kerakli bo'lgan ma'naviy tarbiya masalasi ko'zda tutilgan edi.

Shunday ekan, O'zbekiston Oliy ta'lim tizimida ma'naviy tarbiya masalalariga bugungi kun talablarining tamoyillari nuqtayi nazaridan yondashilsa, komil inson tarbiyasida xalq donishmandligining manbayi hisoblangan xalq og'zaki ijodi namunalari eng muhim ma'naviy boyluk hisoblanadi.

Badiiy so'z san'atining eng qadimgi va uzoq tarixga ega bo'lgan sohasi folkloridir. Mehnat jarayonida insonning tajribasini ortishi, nutqining shakllanishi bilan inson ongi rivojlandi, tabiat va jamiyat haqidagi fikr-tushunchalarni obrazlar vositasida tasvirlashga intilish og'zaki ijod paydo bo'lishiga turtki bo'ldi.

Xalq og'zaki ijodi— mehnatkash xalq ijodi. Xalq badiiy faoliyatining tarkibiy qismi bo'lmish folklor xalq san'atining boshqa turlaridan (musiqa, teatr, raqs, tasviriy va amaliy san'at hamda boshqalardan og'zaki so'z san'ati ekanligi bilan ajralib turadi. U og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga, davrdan-davrga o'tib, xalqning iste'dodli vakillari ijrosida sayqal topadi. Folklor asarlari dastlab qanday yaratilgan bo'lsa, o'sha holicha saqlanib qolmay, ijodiy qayta ishlanib, turli o'zgarishlarga uchrab, yangi-yangi ma'lumotlar bilan boyib, tarixiy sharoitga moslashib, shu bilan birga yozma adabiyotga ijobiy ta'sir etdi.

Xalq og'zaki poetik ijodi-og'zaki so'z san'atining o'ziga xos turi sifatida «folklor» atamasi bilan yuritiladi, folklorini o'rganuvchi, tadqiq etuvchi fan sohasi esa «folkloristika» deb ataladi.

Folkloristika turli davrlarda va turli mamlakatlarda goh etnografiya, goh antropologiya, goh musiqashunoslik va hatto, sotsiologiyaning bir qismi deb qaralib kelingan.

«Folklor» termini birinchi marta XIX asr tadqiqotchisi Vilyam Toms tomonidan 1846-yilda qo'llandi. «Folk» (folk)- «xalq», «lor» (lore)-«bilim», «donolik», «donishmandlik», ya'ni «xalq bilimi», «xalq donoligi», «xalq donishmandligi» degan ma'noni anglatadi. «Folklor» termini xalqaro terminga aylanib, turli mamlakatlarda qo'llanila boshladi.

Angliya va AQSHda xalq badiiy faoliyatining barcha turlari-og'zaki poetik ijod, musiqa, raqs, o'yin, teatr, tasviriy va amaliy san'at, shuningdek, irim-sirim, ishonch- e'tiqod va urf-odatlar ham shu termin bilan ifodalanadi.

O'zbek folklorshunosligida «folklor» termini 1932-yillarda Hoji Zarif tomonidan qo'llandi va olimning oliy o'quv yurti talabalari uchun mo'ljallangan birinchi kitobni «o'zbek folklori» deb atagan. Ungacha «folklor» termini o'rniga «el adabiyoti», «og'zaki adabiyot», «o'zbeklarda og'zaki adabiyot» kabi atamalar qo'llanib kelinardi, endilikda «folklor» termini mustahkam o'rnashib, keng om-malashib qoldi.

Biz «folklor» deganda, asosan, xalq poetik ijodini tushunamiz. Xalq san'atining boshqa turlari uchun esa o'sha soha nomi qo'shib qo'llanadi, masalan, xalq musiqasi uchun «musiqa folklori» termini qo'llaniladi va hokazo.

Folklor asarlarida musiqa, raqs, teatr san'ati elementlari qo'shib ketganligi sababli folklorini sinkretik san'at deyishimiz mumkin. Ayni paytda folklor asarlari san'atning boshqa turlaridan o'ziga xos tomonlari bilan farqlanadi. Folklorda so'z, kuy va ijro

qadimgi dunyo saqlanadi. Folklor asarlarida mehnatkash xalqning hayotini aks ettiradi. Xalqning olam haqidagi tushunchalarini ijtimoiy-tarixiy, siyosiy, falsafiy va badiiy-estetik qarashlarini o'zida mujassamlashtiradi. Bu narsalarni folklor asarlari mazmuni va g'oyasining chuqur xalqchilligini ko'rsatadi. Folklordagi xalqchilikning asosini uning progressiv mohiyati tashkil qiladi. Tarixiy-ijtimoiy voqealar folklor asarlarida xalqning munosabatlari nuqtayi nazaridan qaraladi.

Xalq ijodini o'rganuvchi, tekshiruvchi fan folklorshunoslik deb yuritiladi. Folklorshunoslik xalq og'zaki ijodining asoslarini qadimgi dunyo estetik tafakkuriga bog'lab o'rganadi. Xususan, qadimgi dunyo sayyohlari va tarixchilarining O'rta Osiyo xalqlariga tegishli afsona va rivoyatlari, turli urf-odat va marosimlar haqidagi yozma ma'lumotlari folklorshunoslik uchun muhimdir. Folklorshunoslarimizning ta'kidlashlariga ko'ra folklor asarlarini yozib olishdagi birinchi tajribalar XI asrdan boshlab ko'zga tashlandi.

O'zbek folklori namunalarini ommaviy ravishda yozib olish, to'plash, nashr etish va ilmiy jihatdan tadqiq etish ishlari esa bevosita XX asrning birinchi choragida boshlandi.

FOLKLOR-JAMOAVIY IJOD

O'zbek xalq badiiy ijodi asrlar davomida yaratilib, og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga, ustozdan shogirdga o'tib kelgan jamoa ijodi mahsulidir. Chunki folklor asarlari bir kishi tomonidan emas, balki butun bir jamoaning ijodiy tajribasi asosida vujudga keladi va jamoa tomonidan ijro etiladi. Ba'zi folklor asarlar esa iste'dodli ijodkorlar tomonidan yaratilib, o'z qabilasi va urug'lari odatlari, e'tiqodi, orzu istaklari, tabiat bilan bo'lgan munosabatlari hikoya qilingan. Qabila va urug' a'zolarga ma'qul tushgan bu asarlar og'izdan-og'izga o'tib, jamoa ijodiga aylangan. Asarlar shu tariqa jamoa orasida takomillashib, umumxalq mulkiga aylangan. Xalq kuychisi (dostonchi, ertakchi, qo'shiqchi, latifago'y, askiyachilar) jamoa tomonidan yaratilgan asarlarni aynan so'zma-so'z ijro etmay unga ijodiy yondoshadi. Shuning uchun ham u ijro etayotgan asarlarni hamisha «xalqniki» deb tan olinadi.

Yakka ijodkor qanchalik iste'dodli bo'lmasin jamoa ijodining an'analari va bo'ysungan, xalq hayoti, xalq didi va talabiga moslashishga harakat qilgan. Bir so'z bilan aytilsa, folklor an'analari doirasida kuylanib, yaratilib, avloddan-avlodga o'tuvchi ijod namunalari hisoblanadi.

FOLKLOR-OG'ZAKI IJOD

O'zbek folklorshunosligining dastlabki bosqichida xalq og'zaki ijodiga nisbatan «og'zaki adabiyot» atamasi bejiz qo'llangan emas. Unda folklorga xos asosiy xususiyatlardan biri og'zakilik asos sifatida olingan, chunki folklor avvalo, og'zaki yaratiladi, ijro etiladi va og'zaki tarzda yashaydi.

Xalq poetik ijodi yozuv paydo bo'lmashdan ilgari yuzaga kelgan. Uning yaratilishi va kishilar o'rtasida tarqalishi jonli og'zaki an'ana bilan bog'liqdir. Og'zakilik xususiyati uni xalq san'atining boshqa turlaridan, masalan: musiqa, raqs, ganch-o'ymakorliklardan ajratib turadi. Folklor asarlarining uzoq asrlar davomida og'zaki yaratilishi va og'zaki ijrosi uning shakl va mazmuniga ta'sir etmasdan qolmaydi.

O'rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi zamonlarga oid ayrim og'zaki yodgorliklari ba'zi bir manbalar bizga qadar saqlanib qolgan. Bu manbalar tarix kitoblari, ilmiy asarlar, yozma yodgorliklar va boshqalardan iborat. Antik tarixchilardan Gerodot, Kteziy, Polien, Hares Mitilenskiy va boshqalarning kitoblarida xalq og'zaki ijodining ayrim asarlarining mazmuni hikoya qilib qoldirilgan. Shuningdek, o'rta asr tarixchilaridan Hamza Isfaxoniy, Tabariy, Ma'sudiy, Beruniy va boshqalarning asarlarida ham og'zaki adabiyotga doir qimmatli materiallar va ma'lumotlar bor. «Avesto», «Bexustun», «Bundaxishi», «Denkard», kabi yozma yodgorliklarda og'zaki adabiyotning ba'zi bir namunalari o'rin olgan. Qadimiy Xitoy tarixchilari solnomalarida ham o'lkamiz hayoti, xalqlarimiz urf-odatlarini, musiqasi, raqslari va qo'shiqlari haqida qimmatli ma'lumotlar saqlanib qolgan. Mahmud Koshg'ariy esa o'zining mashhur lingvistik «Devonu lug'otit turk»ida qadimgi qo'shiq, lirik she'r va maqollardan turli namunalar beradi.

Ma'lumki, ayrim tarixiy faktlarning to'liq esda qolmasligi, zamon taqozosi bilan unutilishi natijasida, ularni asarlaridan tushib qolishi, o'zgarishi, qorishtirilib, talqin etilishi uchrab turadi. Shuning uchun ham tarixiy voqea va hodisalar ham folklorda aynan aks etmaydi. Ba'zan esa dostonlarda mavjud bo'lgan she'riy parchalarni unutilishi, mazkur janrlarni ertak shakliga keltirib qo'yishi ham mumkin yoki aksincha, ertakni dostonga aylantirishi mumkin folklorda yuz beradigan bu kabi hodisalar uning g'oyaviy-badiiy, estetik qiymatini kamaytirmaydi.

AN'ANAVIYLIK

An'anaviylik jamoa ijodi mahsulidir. Bu o'zining tarixiy manbalariga ega. Folklor asarlarining dastlabki namunalari ibtidoiy jamiyat davrida yaratilgan. Shu sabab folklor asarlarining syujeti, timsollar motivlarida ibtidoiy turmush shart-sharoitlari, urf-odatlari va dunyoqarashlarining in'ikosi sifatida yuzaga kelgan. Folklor asarlarining og'zaki yaratilishi va og'zaki ijro etilishi ularning o'zgarmas barqaror shakllari—an'anaviylikni yuzaga keltirgan. Masalan, qahramonlik tipidagi ertaklar va dostonlar janrlarda ma'lum darajada tafovut mavjud bo'lsa ham, badiiy uslub an'anaviy shaklga ega. Har ikkisi ham (ertakda ham, dostonda ham) kompozitsiya an'anaviy boshlama, syujet bayoni va tugallanmadan iborat. Bosh qahramon va voqealar mubolag'a shaklida tasvirlanadi. Asar matni nisbatan turg'un holda saqlanadi. Folklor asarlaridagi asosiy syujetlar, timsollar va badiiy tasvir vositalari an'anaga aylanadi hamda og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga o'tish jarayonida qisman o'zgaradi, ayrim detallar qo'shiladi, biroq asosiy manba an'ana bo'lib qolaveradi.

Tarixiy taraqqiyot natijasida ba'zi bir asarlar dastlabki shaklini o'zgartirishi mumkin. Folklor asarlariga an'anaviylik bilan bir qatorda ijodiy o'zgaruvchanlik ham xosdir. Asarlar har gal kuylanganda va ijro etilganda nimalardir o'zgaradi, nimalardir qo'shiladi. Biroq bu o'zgarishlarning barchasi puxta va mustahkam an'analar doirasida bo'ladi. An'anaviylik folklorning so'z san'ati sifatida jonli og'zaki ijroda yashashi va tarqalishining bosh mezonlaridan biridir.

VARIANTLILIK

Xalq og'zaki ijodining bevosita aytilishi, ijro jarayoni bilan bog'liq paydo bo'luvchi yana bir muhim belgisi variantliligidir. Variantlilik ulkan hodisa. Har qanday folklor asarlari ijro etilar ekan aynan takrorlanmaydi. Balki vaziyat, ijrochilarning holati va boshqa turli sabablarga ko'ra ma'lum o'zgarishlarga, yangilanishlarga uchraydi.

Folklor asarlarining davrdan davrga, ijrodan ijroga o'tishida yuzaga kelgan o'zgarishlar variantlarda aks etadi. Folklor asarlarini ko'p variantlarda, bir necha nusxalarda tarqalishi variantliliigi hisoblanadi. Variantlar muayyan bir asarning bir-birini inkor etmaydigan, jonli va og'zaki an'anada mustaqil yashay oladigan turli-tuman matnlaridir. Masalan: «Alpomish» dostonining 30 ga yaqin

variantlari yozib olingan, lekin xalq orasida esa bundan ham ko'p variantlari tarqalgan. Variantlar asosan hayotiy shart-sharoitlar natijasida yuzaga keladi. Doston kuylovchi baxshi-shoir yoki ertakchi asar ijro etayotgan davr, sharoit va tinglovchilarga qarab doston yoki ertakka o'zgartirishlar kiritadi. Masalan, kattalarga aytilgan bir ertak bolalarga boshqacha qilib aytiladi. Shu tarzda o'sha ertak o'zgarib boradi. Nihoyat, ertak variantlari vujudga keladi. Demak, har bir folklor asarining yaratilgan vaqti, tarqalishi va yashash sharoitlari juda murakkab. U ijtimoiy va iqtisodiy muhit, tinglovchilar auditoriyasi, ijodkor va ijrochi mahorati bilan bog'liq bo'ladi. Variantlilik xalq ijodining tarqalish doirasini, ommaviyligini va xalqchilligini belgilaydi. Folklorda kechayotgan o'zgarishlarning sabablarini aniqlashga, xalq og'zaki ijodiyotida kechgan va kechayotgan jarayonlar asosida yozuvchi qonuniyatlarni ochish uchun boy manba beradi.

O'ZBEK XALQ OG'ZAKI IJODINING TARIXIY TARAQQIYOT BOSQICHLARI. QADIMGI DAVR FOLKLORI

So'z san'atining dastlabki namunalari insoniyat nutqi rivojlana bo'lishi bilan paydo bo'la boshlagan. Uning paydo bo'lishida o'sha davr shart-sharoiti, odamlarning mehnat va turmush tajribalari, dunyoqarashlari, urf-odat va marosimlari hal qiluvchi o'rin tutadi. Eng avval, nasriy asarlar vujudga kelgan. Ular nihoyatda sodda bo'lib turli xildagi undov-xitoblar va voqealar bayonidan iborat bo'lgan xalos. Ya'ni mehnatni yengillashtiruvchi, ruhani tetiklashti-ruvchi, xayol og'ushiga olib ketuvchi ertaklar va afsonalar yaratilgan. Mehnat jarayonini ifodalovchi qo'shiqlarning namunalari paydo bo'la boshlagan. Xalq qo'shiqlari tarkibida, xususan, ular-ning an'anaviy takrorlaridagi bir qator undov so'zlarni bevosita ana shu qadimiy elementlar sifatida qabul qilish mumkin.

Eng qadimgi folklor namunalari yozuv yuzaga kelmasdan ancha oldin paydo bo'lib, yozma adabiyotning tashkil topishiga muhim hissa qo'shgan. Ular asl holda bizgacha yetib kelmagan yoki yetib kelganlari ham og'izdan-og'izga, avlod-dan-avlodga o'tish jarayonida ijodiy ishlangan.

O'rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi folklor namunalari ba'zi tarixiy yodgorliklar, yodnomalar, ilmiy asarlardagina saqlanib qolgan. Ular miflar, jangnoma ko'rinishdagi afsonalar, qahramonlik va pahlavonlik eposlari, qo'shiqlardan va maqollardan tashkil topgan.

IBTIDOIY TASAVVURLAR—ANIMIZM, TOTEMIZM VA FETISHIZM

Har qanday ijod namunalari qatorida folklor asari asosida ham xalqning e'tiqodiy qarashlari aks etadi.

Turkiy xalqlar folklori bilan urf-odatlarini izlari saqlanib qolgan animistik, totemistik va fetishistik-qarashlar qadimiy tasavvurlar tizimini tashkil etadi. Ma'lumki, ibtidoiy inson o'ziga noma'lum bo'lib ko'ringan tabiat kuchlaridan talvasaga tushar ekan, ayni paytda uni yengishga harakat qiladi, uddasidan chiqqan olmay, ilojisiz qolib tabiatga sig'inishi, notabiiy ko'ringan hodisalarga topinishi, ularni kult darajasiga ko'tarishga olib kelgan. Ularning tabiatdagi jonsiz narsalarga jonli deb qarashlari, o'zini tabiat kuchlari va hodisalar bilan aynan bir narsa hisoblashlari animizm nomini olgan. Animizmda jon va ruhlarning borligiga ishonch bo'ladi, uning yorqin namunasi ertaklarning qadimiy motivlarida o'z ifodasini topgan. «Oq bilaxon» ertagida yigitning toshga aylanib qolishi, «Yoriltosh»da toshning yorilish mo'jizasi, qizni bag'riga olib yana yopilishi, «Yalmog'iz kampir» ertagida odamlarni toshga aylanib qolishi, «Qilich botir»da esa qahramonning joni qilichida ekanligi kabilar animistik tushunchalar natijasidir.

«Yoril, yoril, toshlar-ay», «Ochil, ochil qamishlar», «Sim-sim, och eshigingni» kabi iltijo qilib yolvorishlar o'sha narsada jon bor degan tushunchani timsolli ifodasidir. To'ylarda yoqiladigan olov, quyosh va oy tutilganda qozon, jom, chelaklarni taraqlatish holatlari ham yo'qolib borayotgan qadimiy tasavvurlarning izlari hisoblanadi.

Totemizm odamning ko'pincha bir hayvon yoki o'simlik, ba'zan jonsiz narsa yoki tabiat hodisalari bilan aloqasi borligi haqidagi ishonch-e'tiqoddan kelib chiqqan. Turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek urug'larining ota-bobolari quyosh, suv, olovga sig'ingan, keyinchalik esa ot, ho'kiz, ilon, bo'ri, it va boshqa hayvonlarga e'tiqod qo'yanlar. Bo'rini balo, ofatlardan saqlovchi, himoya qiluvchi kuch, urug', qabilalarning ajdodlari deb bilganlar. Shu tariqa totemlar yuzaga kelgan. Totem— u yoki bu urug'ning e'tiqod qo'yan himoyachisidir. Totemlar bilan bog'liq bo'lgan bir qancha afsonalar mavjudki, ularda ko'proq ot va bo'ri timsolli tasvirlangan. Bo'ri bilan bog'liq e'tiqod yangi tug'ilgan bolani salomat saqlash, yaxshi hayot kechirish, chorvani ehtiyotlash, ekinlarni yovuz kuchlar ta'siridan saqlashdan iborat bo'lgan. Hatto Ashina nomli turk urug'larining birida bo'ri kallasi tasvirlangan bayroq ham

bo'lgan. Ibtidoiy kishilar og'ir va ayanchli turmushni yaxshilashga intilganda ham bo'riga yolvorgan va sig'ingan. Bo'ri totemiga aloqador ba'zi ertak («Cho'loq bo'ri», «Bo'ri qiz», «Bo'ri») va afsonalar hozirgi kunga qadar xalq orasida aytilib kelinadi.

Ot timsoli qadimgi kishilarning turmush tirikchiligi bilan bevosita bog'liq bo'lib, otlarni xonakilashtirish, ulardan ish hayvoni sifatida xo'jalikda foydalanish davomida yuzaga kelgan. Arxeologik qazilmalarda aniqlangan yarmi ot yarmi odam sifat ishlangan rasmlar, hali-haligacha ekin maydonlari, polizlarda otning kalla suyagini qo'riqchi sifatida qo'yilishi ot kulti haqidagi e'tiqodning timsoli hisoblanadi. Xorazmdagi Hazorasp, qadimgi Baqtriyadagi Zariasp singari geografik joy nomlari aslida ot kultiga aloqador bo'lgan urug' nomlari bilan nomlanadi. O'zbek xalq dostonlarida Qirot, Boychibor, Jiyronqush, Majnunko'k kabi ot timsollarining g'oyat katta o'rin tutishi ham be'jiz emas, tabiat va hayot haqida yuzaga kelgan ibtidoiy tushuncha va e'tiqodlar animistik va totemistik qarashlarni vujudga keltirdi.

Fetishizm— jonsiz narsa va predmetlarga sig'inishi va ularni tumor sifatida saqlash. Ushbu narsalarda kuch-qudrat mavjud deb anglash. Xalqimiz orasida hayvonlarning bir qismini (pati, tishi, shoxi, yungi) tumor sifatida olib yurish yoki bo'yniga, kiyimiga taqish odati keng saqlangan, Fetishizm izlari folklor asarlari tarkibida ham mavjud. Masalan, pari, dev yoki sehrlil asarlarning qahramonga tutatqi yoki biror bir sehrlil buyum berishi bunga dalildir.

QADIMGI MIFLAR

Xalq badiiy tafakkurining eng qadimgi namunalari miflar bo'lib, ular keyinchalik yagona xalq bo'lib shakllangan har bir urug' yoki qabila birlashmalari ijodida bo'lgan va hozirda ham bor». Miflarning eng qadimiy namunalari bizga «Avesto» orqali yetib kelgan bo'lsa, ma'lum qismi xalq og'zaki ijodiyotining turli janrlari tarkibida saqlanib qolgan.

Miflarda ibtidoiy inson tafakkurining turli qirralari namoyon bo'ladi. Ularda ibtidoiy odamning hayotga, jamiyatga, tabiatga bo'lgan munosabat aks etadi.

Mifologiya o'zida ibtidoiy inson ma'naviyatining mujassam etgan bo'lib, miflarda yuksak tarbiyaviy-axloqiy masalalar ham o'z ifodasini topgan.

Porloq kelajakni orzu qilib, unga umid ko'zi bilan boqqan

qadim ajdodlarimiz kishilarni qudratli rivojini o'z miflarida ifodalangan.

«Mif» yunoncha — so'z bo'lib, xudolar va pahlavonlar haqidagi to'qima afsona ma'nosini anglatgan. Mifologiya ibtidoiy insonning tabiatni bilishga intilishining natijasi hisoblanadi. Insonning tabiatga qarshi kurashdagi oqizligi uni noma'lum ko'ringan hodisalarga javob topishga, qandaydir tushuncha va tasavvurlar yaratishga majbur etgan, bo'ron, zilzila, suv toshqini, sel kabi ayrim tabiiy ko'ringan kuchlarga qarshi kurasha oluvchini izlashga olib kelgan. Bularning natijasida yaxshilik va yomonlik haqidagi mifologik tasavvurlar vujudga kelgan. Olam haqidagi tasavvurlar ana shu tarzda yuzaga kelgan bo'lib, u o'z navbatida osmon, oy, quyosh hamda turli xil hayvonlar haqidagi xudolarni, g'ayritabiiy tasvirlangan pahlavonlar haqidagi miflarni hosil qildi. Mazkur miflar kishilarga ruhiy kuch, tetiklik va osoyishtalik baxsh etgan, insoniyatni g'alabaga chorlagan. «Kishilar yaxshilik, baxt-saodat, quyosh nuri, issiqlikni yomonlik, baxtsizlik, zulmat va dahshatli sovuqqa qarama-qarshi qo'yib, baxt o'lkasi va baxtsizlik o'lkasi degan miflarni yaratganlar. Ko'pchilik mifologik timsollar mana shu ikki o'lka va ular o'rtasidagi kurash fonida gavdalanadi. Jumladan, «Susambul» ertagida o'zbek xalqining ozod o'lka haqidagi orzu-istaklarining timsoliy tarzda o'z ifodasini topganligini ko'rishimiz mumkin.

Zardushtiylik kitobi «Avesto»da ikki yaratuvchi kuch-yaxshilik va yomonlik Axuramazda va Axriman qiyofasida namoyon bo'ladi. Axuramazda yaxshilik, yorug'lik, obodonchilik va ezgu kuchlarning xudosidir.

Axriman barcha yovuzlik va yomonlikni boshqaradi. U Axuramazdaga qarshi chiqadi va o'ziga qarashli devlar yordamida odamlarga azob uqubat, mashaqqat, kulfat keltiradi. Axriman zo'r kuch va qudratga ega bo'lsa-da, biroq Axuramazda kabi har narsaga qodir va qobil emas, shu sababli, yomonlik kuchlari yaxshilik oldida doim mag'lubiyatga uchraydi. Yorug'lik manbayi quyosh deb ko'rsatiladi. Quyosh nuri insonga hayot bag'ishlaydi. Olov esa quyoshning bir parchasidir. Shuning uchun ham inson olovni muqaddas hisoblab, otashkadalarda saqlar edi. Bunday otashkadalalar Xorazmda, Jonbos qal'ada topilgan. O'zbeklar orasida quyoshga-olovga e'tiqod qo'yib, unga topinish juda qadimdan davom etib kelgan. «Avesto»da Mitra— quyosh va yorug'lik xudosi, Noxiti— obodonchilik va farovonlik xudosi... Humo— baxt, tole va davlat xudosi, Anaxita va Xubbi (Farg'onada Er Xubbi) — hosil va suv xudosi, Mirrix— urush va g'alaba xudosi, Kayumars— ezgulik xudosi qilib tasvirlangan.

Ardivisura Anaxita haqida miflar «Avesto»da berilgan bo'lib, Anaxita zabardast, xushqomat, kamarini mahkam bog'lagan, to'g'ri go'z, marhamatli go'zal qiz sifatida namoyon bo'ladi. U kishilarga kuch-qudrat baxsh etuvchi, suvning mo'l bo'lishini ta'minlovchi ma'buda. O'zbek xalqining mifologik qarashlarining izlarini biz xalq marosimlari, folklor namunalari orasida ko'ramiz.

KAYUMARS VA JAMSHID HAQIDAGI MIFLAR

Kayumars va Jamshid haqidagi miflar O'rta Osiyo xalqlari orasida qadimdan keng tarqalgan. «Avesto»da, Firdavsiyning «Shohnoma» asarida, Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» nomli kitobida Gaya Martan deb yuritiladi. Ushbu mifning Beruniy asaridagi bayoniga ko'ra, Axrimanning yomon qilmishlaridan xudo hayratda qoladi. Uning peshonasidan ter chiqadi. U terni artib tashlaganda, ter donasidan Kayumars to'qiladi. Xudo Kayumarsni Axrimanning yoniga jo'natadi. Kayumars Axriman yoniga kelib, uning yelkasiga minib oladi va shu holda dunyoni aylana boshlaydi. Axriman hiyla bilan Kayumarsni yelkasidan uloqtirib tashlaydi. Kayumars ikki vujudan: ho'kiz va odamdan tashkil topgan edi. Axriman Kayumarsni o'ldiradi. Kayumarsning jasadining ho'kiz qismidan 55 xil don, 12 xil o'simlik, sigir, ho'kiz, ulardan esa 272 xil foydali hayvonlar paydo bo'ladi: odam qismidan insonning erkak va ayol jinsi hamda metall vujudga keladi.

Mifda Kayumars yerda paydo bo'lgan birinchi odam sifatida ta'riflangan. Kayumars yaxshilik va ezgulikning yovuzlik ustidan g'alabasi haqidagi ibtidoiy ishonchning ramziy timsolidir.

Jamshid haqidagi mif namunalar—Eron va O'rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan. Unda tasvirlanishicha u najotkor qahramon va yaxshilikning timsolidir. «Avesto»da hikoya qilinishicha, u adolatli podsho bo'lgan. O'sha paytda yer yuzida qahraton qish ham, jazirama issiq ham yo'q edi. Biroq ming yillik podsholikdan so'ng qahraton qish boshlanib, kishilarga ofat keltirdi, yaylovlarni, o'tloqlarni suv bosadi. Jamshid shunda odamlarni qutqara boshladi, katta to'g'onlar qurib, ariqlar ochdi, kishilarni mol-mulkini asrab qoldi. Bu afsona Jamshid nomi bilan «Shohnoma» va Alisher Navoiyning «Tarixi mulki Ajam» asarlaridan ham o'rin olgan. Bundan tashqari, Tabariy, Beruniy asarlarida mazkur timsol haqida ma'lumotlar keltirilgan. Xalq o'rtasida «Qissai Jamshid»ning og'zaki va qo'lyozma variantlari keng tarqalgan edi. Demak, miflar

va mifologik timsollar ko'hnada dunyo qatlamida muqaddas sanalib, xalq o'rtasida og'izdan-og'izga o'tib, qayta-qayta aytilib kelingan.

«Avesto»da tasvirlangan xudolar, pahlavonlar to'g'risidagi afsonalarning o'zbek folklorida variantlari uchraydi. «Odami Od» hikoyasi shu jihatdan o'ziga xosdir. Bu hikoyada insonning zo'r kuch-qudratga ega bo'lish haqidagi orzu-umidlari o'z ifodasini topgan. Mifda bayon qilinishicha o'tgan zamonda Nuh payg'ambar bo'yi bulutga yetadigan bir duradgor ustani chaqirib, kema yasab berishni so'rabdi. Bu odamning oti Odami Od ekan. U nihoyatda baland bo'yli, kuchli ekan. U Nuh payg'ambarni yelkasiga mindirib toqqa olib chiqib, to'rtta katta chinor olib dengiz bo'yiga ravona bo'libdi, kemani bitirib, odamlarni kemaga solib, dengizga tushib, o'zi kemani tortib ketibdi.

«Er Xubbi» bilan bog'liq bo'lgan miflar Xorazm va Farg'onada keng tarqalgan. Er Xubbi, Odami Od kabi suv muakkili, marhamatli qahramon sifatida namoyon bo'ladi. U yetti yuz yil davomida Amudaryoda yashagan. U baliq bilan ovqatlanagan. Jamshid taxtga o'tirgandan so'ng Xubbi dom-daraksiz g'oyib bo'lgan. Xorazmda Xubbinioyoz, Xubbi ko'li, Buxoro vohasida Xo'ja Xubbon qudug'i nomlari mana shu qadimiy mifologiya bilan bog'liq.

Mazkur miflar odamlar o'rtasida ajdodlarga topinish, uni muqaddas deb bilishga chaqirish va nihoyat, uning yordamiga ishonirishni tashviq qilgan.

QADIMGI QAHRAMONLIK EPOSI

Xalq orasida og'zaki ijod vujudga kelib, avloddan-avlodga ko'chib yurgan mifologik timsollar qahramonlik tipidagi ertak va doston qahramonlarini shakllanishida asosiy zamin vazifasini o'taydi. Dastlab tabiatning sirli kuchlariga qarshi kurashib, keyinchalik ijtimoiy mohiyat kasb etgan xayoliy timsollar rivojlanib, vatanparvarlik va qahramonlikni madh etuvchi timsollar darajasiga ko'tarildi. Bunday timsollar To'maris, Shiroq, Zarina, Rustam, Siyovush, Alpomish va Go'ro'g'li kabi qahramonlarni misol qilish mumkin.

«To'maris», «Shiroq» afsonalari tarixiy voqea va hodisalar bilan bog'liq holda yuzaga kelgan jangnoma tipidagi qadimgi epos namunalaridan hisoblanadi.

«To'maris»-qadimgi jangovar ayollar haqida yaratilgan afsona. Bu afsonaning qisqacha mazmuni Gerodotning (484-425) «Tarix» asarida keltiriladi. Afsonada Eron shohi Kir bilan massagetlar qabi-

lasi o'rtasida yuz bergan jang voqealari tasvirlanadi. Bu afsonaning yagona varianti «Oysulu» dostonidir.

«Shiroq» afsonasida esa Doro (Eron shohi) bilan Shak qabilalari o'rtasida yuz bergan janglar haqida hikoya qilinadi. Bu afsonaning qisqacha mazmuni yunon tarixchisi Poliennning «harbiy hiylalar» nomli kitobida keltirilgan. Afsonada xalqparvarlik va vatanparvarlik va ozodlikni sevish kabi tushunchalar ulug'lanib, bosqinchilik, zulm va zo'rlik qoralanadi.

Har ikki afsona syujetida ham qadimiy epos an'analari ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, qahramonni mast qilib asir olish hamda uning jangovarlik xususiyatini naql motivlar an'anaviy dostonlarga xos xususiyatdir. Bu motivlar epos janrining qadimiy janr ekanini tasdiqlaydi.

Rustam haqida qahramonlik eposi. Rustam bilan bog'liq bo'lgan qahramonlik eposlari qadimdan mavjud bo'lib, O'rta Osiyo, Eron va Afg'onistonda keng tarqalgan Rustam bir dostonida («Baxman-Yashta») arab bosqinchilariga qarshi kurashuvchi qahramon, ikkinchisida («Shahrixon Eron») da esa shaharlar bunyod etgan pahlavon sifatida namoyon bo'ladi. Rustam haqidagi afsonalar qadimiy dualistik tushunchalar zaminida paydo bo'lgan va rivojlangan. U keyinchalik yozib olingan «Rustam», «Rustam Zol o'g'li» va «Pahlavon Rustam» kabi ertaklarning g'oyaviy mundarijasini tashkil etadi.

O'ZBEK FOLKLORINING TADRIJIY TARAQQIYOTI

O'rta Osiyoda VI asrdan XX asrgacha bo'lgan davr ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan murakkab tarzda kechgan davr bo'ldi. Bu davr o'zbek xalqining o'troq dehqonchilik bilan ko'chmanchilik hayoti tartiblarini uzoq vaqt yonma-yon yashab kelgan davr hisoblanadi. O'zbek xalqining bu davrdagi boy va rang-barang og'zaki ijodi namunalariga nazar tashlar ekanmiz, ularda ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, qadimiy tasavvurlarni va qarashlarni izlari o'z ifodasini topganligini ko'ramiz. Chunki ijtimoiy taraqqiyotga uzviy bog'liq bo'lgan folklor asarlari o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra, xalqning hayotidagi tarixiy o'zgarishlar bilan o'zgara borgan, ularda bir necha davrlar o'z izini qoldirgan.

Folklor asarlariga xos bunday o'zgaruvchanlik va ko'p qatlamlilik ularning ko'pgina namunalarini ayrim olingan davrlar bilan bog'lab tekshirishni qiyinlashtiradi. Shuning uchun ham u yoki bu janrlarning muayyan davrdagi holati va taraqqiyoti haqidagi mulo-

hazalar ko'pgina hollarda taxminiy bo'ladi, albatta. Hozircha mavjud tekshirishlarga suyanib turib, shuni aytish mumkinki, eng qadimgi davrlarda ko'pchilik xalqlarda miflar, urug', qabilalar haqidagi rivoyatlar, aytimlar, urf-odat, mavsum-marosim va mehnat qo'shiqlari keng tarqalgan. Ilk davlatlarning shakllanish davrida qahramonlik dostonlari yaratilgan, keyinroq epik, lirik va tarixiy qo'shiqlar, og'zaki drama paydo bo'lgan.

Keyingi vaqtlarda yozib olingan folklorning an'anaviy namunalari asosan VI–XX asrlarda yaratilgan asarlardir. Folklor asarlarining ayrim namunalari, ayrim janrlarning keyingi taraqqiyoti va holatini muayyan davrlar bilan bog'lab o'rganish mumkin. Masalan, o'zbek dostonchiligining qadimiy ko'rinishlari, uni avloddan avlodga o'tkazib kelgan bir necha avlod xalq baxshilari va ular ijro etgan dostonlari haqida yozma ma'lumotlar deyarli saqlanib qolmagan. Masalan, Amir Temur o'z safarlarini baxshilarga doston qilib kuylashni topshirgan, To'xtamish saroyida Kamolzoda va Jahon Mirzo kabi jirovlar bo'lgan, hatto xalq dostonlariga yaqin shaklda yozilgan «Abo Muslim» kitobi XII asrda yaratilgan.

Og'zaki ma'lumotlar bizni XVI asrga yetaklaydi. Ergash Jumanbulbul o'g'lining avlodlaridan biri Yodgor baxshi XVII asrning ikkinchi yarmi va XVI asrning boshlarida yashagan. Ergash shoirning yettita ota-bobosi dostonchi o'tganligini hisobga olsak, aytaylik, XVI asr oxirlarida yashagan dostonchi shoirlar haqidagi ma'lumotlar ham XVI asrning boshlarigacha yetib kelgan. O'zbek xalqining juda murakkab etnogenizi va etnogenitik taraqqiyoti, VI–VIII asrlardan XV asrgacha davom etgan migratsiya, ya'ni turkiy qabila va urug'larning oldinma keyin O'rta Osiyo hududlariga ko'chib kelishi, joylashishi hamda yerli, turkiy bo'lmagan o'troq elatlar bilan aralashib ketish jarayonlari ham o'zbek dostonchiligining bu davrida yangilanish davrini boshlagan, taraqqiy qilgan degan xulosaga kelishimiz mumkin.

XVII–XVIII asrlar davomida dostonchilik taraqqiyotida juda jiddiy ko'tarilishlar bo'ldi. XIX asr uning eng gullagan davri bo'lib xalq orasida keng yoyildi.

Xalq dostonlarida markazlashgan, mustaqil, farovon vatan va chet el bosqinchilariga qarshi kurash g'oyasi muhim o'rin tutadi. «Chambil qamali», «Rayhon arab», «Bektosh arab» kabi dostonlarda arab bosqinchilariga qarshi kurash tasvirlangan va bu dostonlar arablar O'rta Osiyoga hujum qilgan davrda yaratilgan, markazlashgan davlat g'oyasi, vatan, el-yurt osoyishtaligi va mustaqilligi uchun kurash uzoq davom etgan bu davrda turli urug'

va elatlarning yagona xalq bo'lib shakllanish davrida g'oyat muhim ijroiy hodisa ediki, bu g'oyalari o'zbek eposining qon-qoniga singib ketgan deyishimiz mumkin.

Xuddi shuningdek, mo'g'ul bosqinchilarining xurujlarini, ularga qarshi mahalliy aholining kurashlarini aks ettirgan asarlar ham anchagina. «Guldursun» afsonasi ham shu nomli doston ham o'sha davr voqealari haqida hikoya qiladi. Mo'g'ul istilochilariga nisbatan xalq munosabati esa ramziy ifodalarda, umuman, chet el bosqinchilariga nisbatan xalq nafrati bayonida, afsonaviy va mifologik salbiy timsollar tasvirida saqlanib qolgan.

Bu davr o'zbek folklorida ayrim tarixiy voqealar va shaxslar nomi bilan bog'langan dostonlar, afsona va latifalar ko'p uchraydi. Masalan: «Tulumbiy» (XV asr), «Shayboniyxon», «Oychinor» (XVI asr), «To'lg'anoy» (XIX asr) kabi bir qancha dostonlar borki, ular yaratilgan davrlaridan ancha keyin yozib olingan, demak, bir qancha o'zgarishlarga uchragan bo'lishlariga qaramay, ma'lum darajada o'z davri voqealarini aks ettiradi. Shuningdek, mashhur tarixiy siymolar Abu Ali ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Ulug'bek, Mashrab nomlari bilan bog'liq bo'lgan ko'plab afsona va rivoyatlar yaratildi.

XIX asr boshlarida xalq orasida yozma adabiyot namunalari keng tarqala boshladi. Ayrim shaxslar tomonidan o'zbek folklori asarlarini yozma adabiyotga yaqin ruhda qayta ishlash yoki yozma namunalarini «folklorlashtirish» jarayoni kuchaydi. Buning natijasida turli xarakter va mazmundagi qissalar («xalq kitoblari») yuzaga keldi. Hatto ayrim baxshilar ijodiy faoliyatida, masalan, Qo'rg'on dostonchilari repertuarida yozma adabiyot namunalari ko'rinishida boshladi.

Bu davrda xalq ijodchilarining muayyan janrlarda professionallashuvi kuchayib dostonchi, ertakchi, qo'shiqchi, askiyaboz, masxarabozlar ajralib chiqib boshladi. Bu esa folklorning estetik jihatdan mustaqillashuvida, uning mifologiya va ibtidoiy irim-sirim hamda marosimlardan ajralib chiqishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Bu davr o'zbek folklorida xalq ijodi taraqqiyotining ilgari bosqichlarida maydonga kelgan ayrim janrlar, xususan, mavsum-marosim qo'shiqlari ba'zi o'zgarishlari bilan uzoq vaqt saqlanib qoldi. Ertaklar bilan topishmoqlarda esa birmuncha o'zgarishlar ro'y berdi: ularning totemistik qarashlar bilan bog'lanishi ancha susayib, ko'proq majoziy xarakter kasb eta boshladi. Bir qator yangi janrlar (lirik va tarixiy qo'shiqlar, latifa va loflar, askiya va og'zaki drama) paydo bo'ldi.



Shunday qilib, bu davrda o'zbek xalq og'zaki ijodiyotining deyarli hamma janrlari ko'plab asarlar yaratildi. Bu asarlar xalqimiz madaniy hayotidagi ulkan ko'tarilishlar, muhim tarixiy voqealar bilan mahkam bog'liq. Xalqimiz bosib o'tgan tarixiy yo'l, uning boshidan kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar folklorining sermahsul bo'lishiga muhim zamin bo'ldi.

MAHMUD KOSHG'ARIY – FOLKLORSHUNOS VA ETNOGRAFIK SIFATIDA

O'zbek folklor namunalarini to'plash tarixiga nazar tashlanar ekan, birinchi galda ulug' tilshunos olim, Mahmud Koshg'ariy nomini keltirish lozim bo'ladi. Chunki ulug' ajdodimiz o'z lug'atida keltirgan xalq og'zaki ijodining turli janrlariga tegishli parchalar eng avvalo, turkiy xalqlari jumladan, o'zbek folklorlarining bundan qariyb ming yil avvalgi holati haqidagi eng muhim faktlarni muqoyasa uchun taqdim etadi.

Mahmud Koshg'ariy XI asrda yashab, turkiy xalqlar og'zaki ijodini to'plashda jonbozlik ko'rsatib, turkshunoslik fanini asoschilaridan biri bo'lib, bu fanning rivojiga ulkan hissa qo'shgan olimlarning ustozidir. M.Koshg'ariy o'zining «Devonu lug'otit turk» asari ustida 15 yil tinimsiz ishladi, uzoq yillar yurtma-yurt kezib manba to'pladi. Koshg'ariy asari, o'zi ta'kidlashicha, «oldin hech kim tuzmagan va hech kimga ma'lum bo'lmagan alohida bir tartibda» tuzilgan «Yuqori Chindan boshlab to Movarounnahr, Xorazm, Farg'ona, Buxoroga qadar cho'zilgan» hududni birma-bir kezib chiqdi. Bu hududda yashagan urug' va qabilalar, xalqning yashash tarzi, kasb-kori, turar joylari, urf-odatlarini, ularni tillarini sinchiklab o'rgandi. Natijada, u shuncha katta hududda yashagan barcha qabilalarni va ularning tillarini juda puxta o'rgandi, mukammal aniqlashga muvaffaq bo'ldi. Devon yozish ustidagi harakatlarini shunday izohlaydi: «men turklar, turkmanlar, o'g'izlar, chigillar, yag'molar, qirg'izlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko'p yillar kezib chiqdim, lug'atlarini to'pladim, turli xil til xususiyatlarini o'rgandim, aniqladim. Men bu ishlarni til bilmaganimdan emas, balki bu ishlardagi barcha kichik farqlarni ham aniqlash uchun qildim. Bo'lmasa men tilda ularning yetuklaridan, eng katta mutaxassislardan xushfahmlardan, eski qabilalardan, jang ishlarida usta nayzalaridan edim». M.Koshg'ariy to'plagan manbalar o'sha davr tilini, xalq og'zaki ijodini, xalq etnografiyasini har to-

monlama yoritishga imkoniyat tug'dirgan bo'lsa, ikkinchidan, puxta ilmiy xulosalar chiqarishga ham yo'l ochgan edi.

Turkiy xalqlar tarixiga oid qadimiy afsona va rivoyatlar, 300 ga yaqin maqol va matnlar, hikmatli so'zlar, 700 satrdan oshiq she'riy parchalar ushbu asar sahifalaridan o'rin olgan. She'riy parchalarining ko'p qismi turkiy xalqlar og'zaki ijodida xos to'rtliklardan iborat. Ammo «Devon»da keltirilgan she'riy satrlardan 150 satrga yaqini islom davri she'riyatiga xos bo'lgan «bayt» tipidagi masnaviy, qasida, g'azal, qit'a parchalari bo'lib, ularni Koshg'ariy o'zi ham ko'pincha «bayt» deb ataydi. Kitobda 7 ta epik doston, ishqiy qo'shiqlar pandnomalar, koinot yaratilishiga oid asotir, she'rlar, tabiat manzaralari tasviri, madhiyalar, falsafiy mushohadalar uchraydi. Koshg'ariy devonida keltirilgan VIII–XI asrlarga oid turkiy she'riyat namunalarida u yoki bu darajadagi aruz vazniga o'tish moyilligi seziladi. Aruzning rajaz, ramal, munsarix, xajaz, basit, qarib, mutaqarib vaznlari turkiy she'riyat namunalarida ishlatilgan bo'lib, ayniqsa, rajaz bahridan keng foydalanilgan (44 parcha). Ular turkiy xalq she'riyatida keng tarqalgan bo'lib, bu bahr olangi turkiy she'riyat tabiatiga mos kelishidan bo'lsa kerak.

«Devon»dagi epik doston-qo'shiqlar ko'proq jangnoma xarakterida bo'lib, ba'zi yirik parchalarga shartli ravishda «Tangutlar bilan jangnoma», «Uyg'urlar bilan jangnoma», «Yabaku bilan jangnoma» deb nom qo'yilgan. Ularda turkiy xalqlarning shijoati, qiyinchiliklarga bardoshi, jasurligi, harbiy hiylalar, siyosiy kurash, mardlik, mehr va qahr tuyg'ulari jonli, chaqnoq misralarda tavsif etilgan.

Mahmud Koshg'ariyning XI asrlarda yaratgan bir qancha ilmiy asarlaridan faqat «Devonu lug'otit turk» asarigina yetib kelgan. Bu asar hajmi 3 jildidan iborat bo'lib, 18 harfdan tashkil topgan turk «uyg'ur» alifbosida keltirilgan. Bizga devonning birgina qo'lyozma nusxasi yetib kelgan. Qo'lyozma Istambulda saqlanadi. Devon ikkita asosiy bo'limdan iborat bo'lib, bular: 1) muqaddima, 2) lug'at qism. M. Koshg'ariy xalq og'zaki ijodi namunalarida keltirilgan so'zlarni ham alohida to'pladi, ularni har qanday matnlarda qanday qo'llanganligini zo'r chidam bilan o'rgandi. U xalq og'zaki ijodida foydalanilgan chetdan kelgan so'zlar ustida ham o'z qarashlarini bayon qildi. Turmushda ishlatilib kelinayotgan asboblar, ashyolar vositasi bilan kirgan so'zlar, turli xil xitoy, rus, hind kiyimlari nomlari, ovqatlar nomi, dorilar nomiga alohida to'xtaydi va izohlaydi, ular o'rniga turkiy tilda qaysi so'zlarni qo'llash mumkinligini ko'rsatib o'tadi. Xalq og'zaki ijodidagi ertak-

lar, afsonalar, maqollar, hikmatli soʻzlarni toʻplar ekan urugʻ, qabila masalasiga alohida toʻxtalib oʻtadi.

Devonda berilgan mehnat qoʻshiqlarida mehnat bilan bogʻliq boʻlgan oʻyinlar, kishilarni mehnatga boʻlgan munosabati, mehnat mashaqqatlarini yengillashtirishga, hordiq chiqarishga, yoshlarni mehnatga koʻniktirishga va oʻrgatishga yordam berayotganligi ifodalangan.

MAHMUD KOSHGʻARIY LUGʻATIDA KELTIRILGAN QADIMIY MEHNAT QOʻSHIQLARI

Ov haqidagi qoʻshiqlarda qadimgi kishilarni ovchilik sanʼatini, ov mehnatiga boʻlgan munosabati tasvirlanadi.

Chagʻri berib qushlatu,

Toygʻon izib tishlatu.

Tilki, toʻngʻiz toshlatu,

Ardam bilan oʻklalim.

Mazmuni: (Yigitlarga) chagʻri (ov qushi) berib,
qush ovlaylik.

Ov itini (qushlarni) izidan solib,
tishlataylik,

Tulki, toʻngʻizni tosh bilan uraylik.

Yutuqlarimiz bilan maqtanaylik.

Ov haqidagi bir toʻrtlikda ovchining ovdagi faoliyati, otda yurib, ovchi itlar yordamida kiyik tutish va ov mahsulotini koʻpaytirishga intilishi ifodalangan. Ovchilarni boʻrilarga qarshi kurashi shunday tasvirlanadi:

Kecha turub yurir erdim,

Qara-qizil boʻri koʻrdim.

Qatigʻ yoni qura koʻrdim,

Qoya koʻrib baqu ogʻdi.

Mazmuni: Kechasi turib (kezib) yurar edim,

Qora-qizil boʻri koʻrdim,

Baquvvat yoyni (otishga) hozirlandim,

(U) qoʻrqib qoyaning orqasiga yashirindi.

Kishilar qadimdan ham ovchilik, chorvachilik bilan birga dehqonchilik va bogʻbonchilik bilan shugʻullanganlar. Mahmud Koshgʻariy dehqonlar va bogʻbonlar, ularni mashaqqatli mehnatlari haqida fikr yuritib ular kasbini eng qutlugʻ kasb deb taʼriflaydi.

Yigitlarig ishlatu,

Yigʻach yamish irgʻatu.

Mazmuni: Qulan, kiyik avlatu,
Bazram qilib avnalim.
Yigitlarni ishlataylik,
Daraxt(lar)dan mevalarni qoqtiraylik.
Kulon, kiyik ovlataylik,
(so'ng) bayram qilib ovunaylik.

Marosim qo'shiqlari xususida

Devonda marosim qo'shiqlarining marsiya janridan parchalar keltiriladi. Bu marsiyalarda jang maydonida bahodirlarcha kurashib halok bo'lgan qahramonlarga bag'ishlanadi. Ularda bu bahodirlikning mardligi, jasorati, fidokorligi va boshqa fazilatlarini maqtaladi, judolik hasratlari, motam qayg'ulari ifodalanadi.

Alp Er To'ngaga bag'ishlangan marsiya shular jumlasidandir, bu qahramon eron tillarida so'zlashuvchi xalqlarda Afrosiyob nomi bilan yuritilgan. Firdavsiyning «Shohnoma» va boshqa asarlarida uning afsonaviy, badiiy timsoli yaratilgan.

Alp Er To'nga marsiyasidan bir parcha keltiraylik;

Mazmuni: Ulishib eran bo'rlayu,
Yirtin yaqa urlayu.
Siqrib uni yurlayu,
Sig'g'tab ko'zi o'rtilur.
Mardlar yig'lab bo'riday uvlashdilar,
Yoqalarini yirtib baqirishdilar,
Faryod chekdilar.
Qattiq yig'idan ko'zlari xiralashib,
parda bosdi.

Mazmuni: Alp Er To'nga o'ldumi,
Esizajun qoldimu,
Ozlak ochin aldimu,
Endi jo'rak jirtilur.
Alp Er To'nga o'ldimi,
Yaramas dunyo qoldimi.
Dunyo undan o'chini oldimi,
Endi yuraklar u uchun yaralanmoqda.

Ma'lumki, marsiya ya'ni yig'i-yo'qlov janri o'zbek folklorida keng tarqalgan. Yig'ilarning bu kungi namunalari «Alp Er To'nga» haqidagi qo'shiqqa miqoyasa qilinsa ular o'rtasida mazmunan va shaklan uyg'unliklarni uchratish mumkin. Qolaversa,

ushbu janr namunasining Devondan o'rin olganligi marsiyalarni o'zbek folkloridagi qadimiy janrlardan biri ekanligini ham ko'rsatadi.

DEVONDAGI MAVSUM QO'SHIQLAR HAQIDA

Devonda berilgan og'zaki ijod namunalарining ko'pchiligi mavsum qo'shiqlari va tabiat tasviri ifodalangan lirik turga mansub qo'shiqlar sirasiga kiradi. Bu qo'shiqlarda qadim zamondagi kishilarning tabiat hodisalari haqidagi tushunchasi va bu hodisalarga munosabatini ifodalaydi. Ularning tabiat hodisalarini yaxshi va yomon ruhlar bilan bog'lash kabi qarashlari yil fasllari haqidagi tushunchalarida ham yaqqol ko'rinadi. Yilning bir fasli ularni shodlantirsa, ikkinchi fasli g'oyat g'am-g'ussaga soladi. Qish fasli uchun yetarli oziq-ovqat, yem-xashak jamg'ara olmaganlar, qattiq qishda qiyinchilikka duch kelsa, yoz fasliga ijobiy qarab, qishga nisbatan salbiy munosabatda bo'lganlar va yoz faslini quvonch bilan qarshi olsalar, qishni dahshat va musibat keltiruvchi fasl deb hisoblaganlar. Natijada, qish va yoz fasli qo'shiqlarda bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgan.

Qish yoy bilan to'qushdi,
Qinir ko'zunug' baqishti.
Tutish qali yaqishti,
O'tg'olimat o'g'rashur.

Mazmuni: Qish bilan Yoz to'qnashdi.
Qing'ir ko'z bilan bir-biriga qarashdi.
(Bir-birini) tutib olishga intilishdi.
(Bir-birini) yutishga tirishar edilar.

Qish bilan yoz munozaralashib, ulardan har biri o'z fazilatlarini bilan maqtanib, ikkinchi tomonni kamsitadi.

Masalan: Qish Yozga aytadi:
Qish yoyg'iru suvlanur,
Er at manin yavruyur,
Iklar yema savriyur,
Agyin taqi tagrishur.

Mazmuni: Qish yozga qarshi baqirib-chaqirib so'z boshladi:
Odamlar va qoramollarning eti menda
pishadi, mustahkamlanadi.
Menda kasa! kamayadi.
Odamlarning go'shti qotadi, o'zlari
quvvatli bo'ladi.

Yoz esa qishga shunday dedi:

Balchiq baliq yugurulur,
Jig'oy yovo'z yigrilur,
Aringaklari ug'rulur,
O'zg'uch bila avrishur.

Mazmuni: Loy balchiq hamma yoqni qoplaydi,
Kambag'al, yupin kishilar qiynalib,
mashaqqat chekadilar.
Barmoqlar sovqotib,
Og'iz yeli bilan (tuflab) isitadilar.

Bu kurashda qish «yengiladi», yoz g'alaba qozonadi. Tabiat go'yo qaytadan jonlanadi, qirlar gilamga o'xshash maysa-ko'katlar bilan qoplanadi, tog'lardagi qor-muzlar eriydi, suvlar oqa boshlaydi, turli-tuman gullar ochiladi, yer yuziga chiroy bag'ishlaydi. Tabiatdagi bu jonlanish kishilarni nihoyatda zavqlantiradi, yozning g'alabasi kishilarning g'alabasiga aylanadi, kishilar yozni o'z qo'shiqlarida kuylaydilar. Mavsum qo'shiqlari ko'pincha lapar aytib, o'yinga tushib ijro etilgan. Tunning qisqarib, kunduzning uzayib borishi, qorong'ulik kuchlari ustidan yorug'lik kuchlarining g'alabasi deb qaralgan. Bahor shodiyonasi an'analari rivojlanib, Navro'z bayrami tusini oladi. Bu bayramda qo'shiq va o'yinlar bilan birga kurash va masxarabozlik kabi xalq o'yinlari ham keng namoyish etiladi.

Devonda mehnat qo'shiqlari, marosim va qahramonlikka oid qo'shiqlar bilan birga ishqiy, axloqiy-ta'limiy she'rlar va maqollar ham bor. Bu qo'shiq va maqollarda sevgi-sadoqat, insoniy fazilatlar ulug'lanib, kishilarni or-nomusli, mard va shijoatli bo'lishga undaydi.

Ko'rkning tonug' o'zuna,
Tatlig' oshig' azinqa,
Tutg'il qonuk ag'irlig'
Jazsun javing bo'zunqa.

Mazmuni: Ko'rkam, chiroyli to'ning o'zingga,
Shirin ovqatingni boshqalarga ata.
Qo'noqlarni hurmatla,
Toki shuhrating el-yurtga taralsin.
Qag'an alih to'zumlik,
Qolsin jaqing yaranqa.

Mazmuni: Nomim o'chmasin desang, yaxshi
xulqlarni egalla.

Asizliging anunma,
Tilga chiqar azgu soʻz.
Mazmuni: Yomonlikka koʻnikma, faqat yaxshi
soʻzlardan soʻzla.

Quyida berilgan maqol va hikmatli soʻzlar uzoq hayot tajribasi asosida vujudga kelgan xalq donishmandligining ifodasidir:

Quriq qoshiq ogʻizga jaramas,
Quriq soʻz quloqqa jaqishmas.
(Qurugʻ qoshiq ogʻizga yoqmas, qurugʻ soʻz quloqqa)
Sabanda sangdirali bolsa,
Ortirgoʻnga irtish bolmas.

(Yer haydash vaqtida puxtalik boʻlsa, xirmonda anglashmovchilik boʻlmaydi.)

Devondagi sheʼrlarning badiiy saviyasi yuqori ekanligi, ularni yaratgan shoirlarning juda maʼlumotli boʻlgani, nafis va chuqur badiiy didga ega ekanligi olimlar tomonidan taʼkidlangan.

Mahmud Koshgʻariy asarida dunyo xaritasi doira shaklida chizib koʻrsatilgan. Uning markazida Markaziy Osiyo joylashgan. Balasogʻun, Shosh, Oʻzgan, Isfijob, Margʻilon kabi shaharlar ushbu hududga aloqador deb koʻrsatilgan. XI asr jugʻrofiy tasavvurlaridan darak beruvchi xaritaning ilova qilinishi Koshgʻariyning qomusiy alloma ekanligini koʻrsatadi.

Mahmud Koshgʻariyning islomdan ilgari va ilk islom davri turkiy xalqlar madaniyatini oʻrganish, toʻplash va keyingi avlodlarga yetkazib berishdagi xizmatlari nihoyatda beqiyosdir. Uning tarix, etnografiya, geografiya, til va adabiyot, folklorshunoslik sohasidagi amalga oshirgan ishlari bugungi kunda ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan.

Xullas, «Devonu lugʻotit turk»dagi qoʻshiq, maqol va hikmatli soʻzlar turkiy tillarda soʻzlashuvchi xalqlar bilan birga oʻzbek xalqining ham qadimgi mushtarak adabiy yodgorligidir.

ALISHER NAVOIY IJODIDA FOLKLOR

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan soʻng ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan milliy qadriyatlarni, urf-odatlarini, tiklash, buyuk shoir va mutafakkirlar ijodini oʻrganishga kirishildi.

Bugun Oʻzbekiston milliy istiqlol va mustaqillik yoʻlidan ogʻishmay olgʻa tomon borayotgan bir paytda yoshlar ongida milliy ong, mustaqillik tafakkuri va milliy birlik kabi gʻoyalarni shakllantirishda Mir Alisher Navoiy ijodiga murojaat qilinmoqda.

Ulug' shoir va mutafakkir A. Navoiy ijodi ham, bosib o'tgan yo'li ham hamma uchun ibratdir. Navoiy faoliyati va ijodi insonning baxt-saodati uchun kurashga, ilm-fan, san'at va adabiyotiga bag'ishladi.

A.Navoiy merosini o'rganishda birinchi manba uning «Munshuot», «Vaqfiya», «Majolisun-nafois», «Muhokamatul- lug'atayn» kabi asarlari, ikkinchi manba o'zbek, tojik, turkman va boshqa xalqlarning og'zaki ijodiga ko'pgina ertaklar, afsona, hikoyalar, uchinchi manba esa uning zamondoshlari tomonidan yaratilgan asarlari qimmatligi bilan e'tiborga loyiqdir.

Alisher Navoiy asarlari bilan tanishar ekanmiz shoir xalq ijodiyotidan bevosita va bivosita foydalanganligini ko'ramiz, shu bilan birga shoir asarlarini yaratishda turli manbalardan—tarix, tazkira, lug'at, ilmiy va badiiy asarlardan foydalanganligini, mukammal bilgani ko'ramiz. A.Navoiyga manzur bo'lgan folklor asarlari turkiy xalqlarning badiiy ijodi bilan birga, shu xalqlar bilan asrlar davomida yaqin aloqada bo'lib kelgan fors-tojik, arab xalqlari folklori orqali antik dunyo, xususan, Yunonistonning madaniyati, san'ati va ulug' kishilari haqidagi latifa va afsonalar bilan ham yaqindan tanish ekanligi namoyon bo'ladi. A.Navoiy o'z asarlarida siltma-xil manbalardan, turli o'lka va xalqlarga mansub bo'lgan yodnoma yoki obidalardan, san'at va adabiyotdan foydalanganligini oshkor yoki ishora tarzida bot-bot ta'kidlaydi. Jumladan, «Sab'ai sayyor»da turkiy shu bilan birga Iroq, Ajam xalqlari dostoni, nag'ma surudi haqida bunday deydi:

O'ngda turki navoz urub doston,
Qo'zg'olib har navoda Turkiston.
Tortqon turk nag'masida surud,
Og'izib xalq ko'zlaridan ro'd.
So'l sori forsi surudi nag'am,
Fitnai fors, bal Iroqu Ajam.

Ulug' shoir va mutafakkir asotir (mifologiya) va xalq afsonalaridan ertak va qissalardan, ularning syujeti va kompozitsiyasi, timsollar sistemasi, til va uslub boyliklaridan bahramand bo'ldi. Xalq qahramonlari timsolini qayta ishladi, o'z asarlariga folklor motivlarini kiritdi, xalqning san'atkorlik mahoratini, uslubini, tilini ijodini o'rgandi. Shoir folklor materiallaridan foydalanar ekan, ularni aynan saqlab qolishga intiladi, ba'zilarini qayta ishladi, o'zgartirdi. Uning asarlarida qadimgi mifologiya va afsonalarning chuqur izlari mavjud. Mif va afsonalar A. Navoiyga qadar dastlabki, qadimgi holicha emas, balki qayta-qayta ishlanib, juda katta

o'zgarish va yangiliklar bilan yetib keldi. Shoir mif va afsonalar bilan turli manbalar orqali: qadimiy kitoblar, ilmiy asarlar, diniy kitobiyot va boshqa manbalar orqali tanish edi. Bu borada u aniq va ravshan ma'lumot beradi. Masalan: «Tarixi muluki Ajam»da Kayumars haqida bahs qilar ekan, bunday deydi: «...O'zga qabilalar Kayumars debturlar. Ma'nisi hayyi notiqdir, ya'ni tirigiki so'z ayt-kay».

Qissa, rivoyat, ertak, afsona aytuvchilarni shoir «roviy», «hikoyatchi», «qissago'y», «qissaxon», «qissapardozi» nomlari bilan ataydilar.

Alisher Navoiyning «Xamsa»si qahramonlari tarixiy yoki yarim tarixiy-yarim afsonaviy shaxslar nom bilan bog'liq, shu bilan birga, ular sof afsonaviy, fantastik badiiy to'qima timsollardir. Ulug' shoir asarni yaratishda xalq afsonalari, qo'shiqlari, ertaklari, maqol va hikmatli so'zlaridan mohirlik bilan foydalandi.

«Hayratul-abror»da faqat xalq maqollaridan emas balki, xalq og'zaki ijodiyotining boshqa janrlaridan va usullaridan ham foydalangan. Masalan, «Hotami Toy», «Sher bilan Durroj», «Iskandar» kabi hikoya va masallarida xalq og'zaki ijodiga xos usulda bayon etib, shu bilan birga xalq qo'shiqlaridan namunalar ham keltiradi. «Farhod va Shirin» dostonini yaratishda tarixiy asarlarga, ayniqsa, xalq og'zaki ijodiga murojaat etib, xalq orasida turli vatanparvarlik g'oyasidagi ertak va afsonalardan foydalangan. Dostonda Farhodning ajdarga qarshi kurashi, Axramonning yengishi, Iskandar tilsimini ochishi, dengizda qaroqchilarga qarshi kurashi kabi voqealar tasviri xalq ertaklari va afsonalaridagi voqealarga o'xshab ketadi. «Xamsa»da berilgan «Layli va Majnun» dostonidagi Majnun timsolini keltirilishi XIII asr boshlarida paydo bo'lgan Majnun haqidagi ayrim rivoyatlar sabab bo'lgan. Layli va Majnun haqida birinchi marta 1188-yilda ulug' Ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy doston yaratdi. Navoiy esa xalq rivoyatlari, hikoyalarini qayta ishlab o'ziga xos ko'rinishdagi bu dostonni yaratdi.

Ko'p so'z yasodi Layli Majnun so'zida xalq,
Ermas nachukki husnungu ishkim afsonasi.

A.Navoiy lirikasida ham, dostonlarida ham xalq og'zaki ijodiyotiga murojaat qiladi. Ayrim asarlar, ayrim asar qahramonlarining nomini zikr qiladi, xalq ijodining sehrlovchi xususiyatlarini ta'kidlaydi, o'z asarlari bilan qiyos etadi:

Roviyo bahrlaridin manga yo'qtur kecha uyqu,
Qissai Xamsa degil gohiyu gah qissai Yusuf.

yoki

Dema roviyo erur Farhodu Majnun qissai muhlik,
Ani alqissa bir «dolu alif» bil dostonimdin.

yoki

Shomi hajrim sharhi elni behud etsa ne ajab,
Uyqu keltirmakdurur xosiyat afsonaning.

«Sab' ai sayyor»ning yettinchi hikoyati. Xorazmlik mashshoq Kofur uyqusiz Bahrom huzurida. U Dilorom haqida hikoya boshlaydi, Bahrom «g'oyibdan nishon» topadi.

So'zga berguncha qissago'y anjom,
G'oyibdin nishon topib Bahrom.

Xullas, xalq qissalari va ertaklariga e'tibor, ulardan ijodiy foydalanish adabiy hayotda ijobiy bir hodisadir A.Navoiy qissago'ylarlarni qadrlaydi.

A.Navoiy xalq poetik ijodiyotini bilmagan yoki uni mensimaggan, xalq she'riyatidan ta'lim va bahra olmagan nozimlarni qattiq qoralaydi, tanqid qiladi. Bu jihatdan xususan «hayratul abror»ning muqaddima boblaridan bo'lgan XVI bobi diqqatga sazovordir. Bob shunday nomlanadi: «Bir necha so'z ul ma'nidakim, so'zdaki ma'ni joni dudurkim, so'z qolibi onsiz kolibe durur jonsiz va ani topmoq ishini kishi bilmas, balki ani topqon kishi topilmas va ahli gazof noinsoflig'iga munsif bo'lmoq, balki o'z gazofig'a insof berib, ularni o'zrini qilmoq» deb aytadi.

A.Navoiy «Mezonul-avzon»da xalq she'riyati, marosim qo'shiqlarining eng qadimiy turlaridan bo'lgan «chang» (yor-yor) haqida shunday yozadi:

«Yana «changi» durkim, turk ulusi zufof va qiz chiqaur tuy-larida ani ayturlar, ul suruddedur bag'oyat muassir va ikki nav'dur. Bir nav'i hech vazn bila rost kelmas va bir nav'i bir bayt ayti-lurkim, munsariht matviyi bahridur va yor-yor lafzini radif o'rnig'a, mazkur qilurlar, andoqdurkim, bayt:

Qaysi chamandin esib keldi sabo, yor-yor.

Kim, damidin tushti yot jonim aro, yor-yor.

«Saddi Iskandariy» dostonida Iskandarning to'yi munosabati bilan shoir lirik xotimada sog'iyga murojaat qilib «yor-yor» aytadi:

Mug'anniy to'zub chinga vaznida chang.

Navo chekki, hay-hay o'lang, jon o'lang.

Desang senki: jon qardoshim, yor-yor.

Men aytayki: munlug' boshim, yor-yor.

«Saddi Iskandariy» dostoni Navoiy yashagan davrning eng muhim masalalariga bag'ishlangan dostonligi sababli shoir bu asarini vuksak baholanishiga ishonadi. Chunki Navoiy asarni yaratishada,

ayniqsa, xalq maqollariga, xalq ta'biriga, hikmatli so'ziarga e'tibor beradi. Shoir xalq maqollaridan ayrimlarini aynan keltiradi yoki ularni mazmunini saqlagan holda shaklan she'riy misralarga muvofiqlashtiradi.

«Hay-hay o'lan» yangi mohiyatga ega bo'lib shu kunga qadar yashab kelmoqda. Mana shu kunda aytilayotgan yor-yorlardan namunalar:

...Hay-hay o'lan, jon o'lan, jon g'animat, yor-yor.

Bir jon emas, hay o'lan, jonon g'animat yor-yor.

Hay, hay o'lan, jon o'lan, jonon g'animat yor-yor.

Kelinimiz qut bo'lib, ko'rsin davlat, yor-yor.

Bu xalq she'riyati va san'atining zamonlar osha yashashi va an'analarini yangi mazmun va shakl bilan to'ldirib, boyitib borishini ko'rsatadi. Ulug' shoir xalqning ijodiy kuch-qudratiga, uning san'atkorlik dahasiga cheksiz mehr qo'ydi, undan ma'naviy, badiiy ilhom oldi. Xalq tilining sehrli kuchi, xalq og'zaki ijodining boyligi A.Navoiy asarlarini boyitdi. Shoir o'z asarlarida o'zbek tilining leksik boyligidan matal va maqollaridan foydalanish yo'llarini ko'rsatib berdi. U xalq tili, uning boyliklari va go'zalligini to'laroq mujassamlangan folklor tilidan, uning an'alaridan kengroq foydalandi. Shu sabab, uning asarlari asrlar osha o'qilib, o'rganilib kelinmoqda.

O'ZBEK XALQ QO'SHIQLARI¹

Qo'shiq atamasi keng ma'noda bo'lib, xalq she'riyati, lirik qo'shiqlar, xalq lirikasi, ashulalar degan umumiy nomlar ostida yuritilib keladi. Shu bilan birga uning namunalarining o'z nomlari ham bor. Masalan, «Yor-yor», «O'lan», «Lapar», «Lirik terma», «Alla», «Bayt- g'azal», «Kelin salom», «Xush kelibsiz», «Yig'i» va boshqalar. Qo'shiqlarni ijro etuvchilar qo'shiqchi go'yanda ashulakash (ashulachi), laparchi, o'lanchi deb ham nomlanadi. Qo'shiqlarda folklorga xos jamoaviylik, og'zakilik, variantlilik anonimlik kabi xususiyatlarni ko'rishimiz mumkin. Ular asosan barmoq vaznida bo'lib, ba'zan aruz vaznidagi namunalar ham uchraydi, lekin ushbu holat mumtoz she'riyat ta'siri sifatida baholanadi. O'zbek xalq qo'shiqlari uchun musiqiylik, ravonlik, kuylashga moslik asosiy xususiyatlardan biridir. Qo'shiqlarda lirik qahramonning his-hayajoni, tuyg'ulari, fikr-mulohazalari ifodalansa

¹ X.Razzoqov va boshq. O'zbek xalq og'zaki poetik ijrosi. «O'qituvchi». —T.: 1980

ham, ularda oddiy xalq ommasining ichki ruhiy kechinmalari, tirikchiligi, yashash uchun kurashi, tushunchalari, ijtimoiy munosabatlari va dunyo qarashlari aks ettiriladi.

Qo'shiqlar turli joylarda turlicha, ko'pchilik hollarda sozsiz, ba'zan dutor, do'mbira, doira va boshqa xalq cholg'u sozlari bilan o'ziga xos xalqona kuylanadi. Bu jihatdan xalq qo'shiqlar musiqa folklori, xalq o'yinlari, raqs san'ati bilan uzviy bog'lanadi. Qo'shiq termini birinchi marta XI asrda yozilgan Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida qoshug' deb ko'rsatilgan va bu so'zning izohi she'r, qasida deb berilgan Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarida, XII asrda yaratilgan Mahmud Zamaxshariyning «Muqaddimatul-adab» lug'atida ham shu ma'noda berilgan. Alisher Navoiyning «Mezonul-avzon» va Zahiriddin Boburning «Risolai aruz» asarlarida qo'shiq atamasi surud, ayolg'u, lahn, turki tarona, ashula, o'lan, chipga (chinga) nomi bilan atalib, ular qo'shiqlarning turli janrlarini atashda qo'llanilgan. O'zbek xalq qo'shiqlari bir necha turlarga bo'linadi. Ular mehnat qo'shiqlari, mavsum-marosim qo'shiqlari, lirik qo'shiqlari va tarixiy qo'shiqlar kabi guruhlarga bo'linadi.

MEHNAT QO'SHIQLARI

Mehnat qo'shiqlari xalq she'riyatining eng avvalgi turlaridan biri bo'lib, ularning yaratilishi va ijro etilishi kishilarning mehnat jarayoni bilan bog'liqdir. Dehqonlar, hunarmandlar faoliyati jarayonida qo'shiq aytganlar. Qo'shiq ularning mehnatlarini yengillatgan, ayrim so'zlari, undov nidolari ko'pchilikni baravar harakat qilishini uyushtirgan. Shu sababdan mehnat qo'shiqdagi so'zlar, vazn, qofiya ixcham, aniq bo'lgan. Ayrim so'zlar vaqti-vaqti bilan takrorlanib, hayqiriq, chaqiriq, shikoyat va mamnunlikni bildiruvchi nidolar alohida ohangda aytilib turilgan.

Mehnat qo'shiqlari mazmunan dehqonchilik, bog'dorchilik, chorvachilik, ovchilik, hunarmandchilik va boshqa kasblarga xos xususiyatlarni aks ettiradi. Mehnat turlari xilma-xil bo'lganidek, mehnat qo'shiqlari ham turli-tumandir. Dehqonchilik bilan bog'liq qo'shiqlarga qo'shchi, o'rim, xirmon, yanchish, yorg'ichoq qo'shiqlar kiradi.

QO'SHCHI QO'SHIG'I.

Qahraton qishdan bola-chaqasi bilan toliqib chiqqan dehqon

bahor kelishi bilan yer haydashga kirishadi. Tabiat jonlangan, xushhavo, biroq uning ho'kizi ishga yaramaydi, horib, madori qurigan. Dehqon ilk bahordagi nochor ahvolini ho'kiz tilidan shunday tasvirlaydi:

Shoxlarim quloch-quloch,
Yo'q madorim, qornim och,
Tepamda qo'ngan qaldirg'och,
Men qaytib qushga yarayman.

Qo'shchi qo'shiqlari yolg'iz qushchining o'zi tomonidan baland ovoz bilan, ba'zan xirgoyi qilib ijro etiladi. Ularda dehqonning hayoti, ish hayvonga munosabati tasvirlangan. Keltirilgan to'rtlikdagi «tepamda qo'ngan qaldirg'och» misrasi, bahor yetib, qo'sh vaqti o'tayotganini, shu sababli dehqon ho'kizni shoshirib, tindirmayotganini anglatadi.

O'RIM QO'SHIG'I

O'rim qo'shiqlari hosilini o'rib-yig'ib olayotgan dehqon o'roqchilar guruhi tomonidan ijro etilib, qo'shiqda dehqonning umidi ro'yobga chiqayotgani, ko'tarinki ruh bilan ishga kirishayotgani bayon qilinadi. Dehqonning yuragida kuch-g'ayrat jo'sh uradi. U g'allani tezroq o'rib, olish niyatida:

O'rog'im olmos,
O'rishdan qolmas.
Sira ham tolmas,
O'rmasam bo'lmas.

O'roqchi qo'shig'ida naqorat o'rnida keladigan quyidagi to'rtlik dehqon tilidan takrorlanib, to'qlik, ma'murchilikning qadr-qimmatini, mehnatkash inson ulug'ligi ta'kidlanadi, halol mehnatning unumidan g'am-g'ussa, muhtojlik, qashshoqlik unutilganday bo'ladi.

Ujmoqi bug'doy,
Donginang to'q-ay.
To'p bo'l, o'raylik,
Xo'pda ko'raylik.

O'roqchi qo'shiqlariga mehnat jarayoniga bilvosita aloqasi bo'lgan qo'shiqlar ham kiradi. Masalan: dehqonlar arpa, bug'doy o'tayotganda, hashar qilishganda o'roqchilar orasiga bir ashulachini o'tkazib quyishgan. U lirik dostonlardan parchalarni baland ovoz bilan aytib turgan. Shunday asarlardan biri «Yozi bilan Zebo» dostonidir. Sevgi va sadoqatdan bahs etuvchi, boshdan oxirigacha qiz

bilan yigitning savol-javobidan tashkil topgan, hazil-mutoyibadan iborat bu lirik xalq dostoni tinglovchilarni g'oyat zavqlantirar, sara-tondagi og'ir qo'l mehnatini yengillashtirishda ma'naviy oziq berar edi. Bunda «Yozi bilan Zebo» dostoni to'la ijro etilmagan, balki undan lirik parchalar kuylangan. Dostondan olingan parchalarni kuyllovchilarni «Yozichi», «yoziguy» deyilgan. Yozigo'ylar o'rim maydoni o'rtasida o'tirib, baland ovozda sozsiz kuylaganlar, maqoratlariga o'roqchilar jo'r bo'lib turgan.

XO'P MAYDA

Xirmon yanchish vaqtida dehqonlar tomonidan aytiladigan qo'shiqlar «xo'p maydayo» yoki «maydagul» deb yuritiladi. Xo'p mayda baland ovoz bilan cho'zib aytiladi. Ularda dehqonning hosilini yig'ishtirish, ro'zg'or tirikchilikni ta'minlashga intilish, ho'kizning — ishchi hayvonning dehqon hayotida g'oyat katta o'rin tutishi unga bo'lgan muhabbatini tasvirlash bilan ko'rsatiladi: shuning uchun xo'p mayda qo'shiqlarida ho'kizning ko'rinishi, uning tuyog'idan shoxigacha bo'lgan tasviri beriladi.

Ayri-ayri tuyoqqa, mayda-yo-mayda
Ayri nahal yarashar, mayda-yo-mayda
Jilviragan quloqqa, mayda-yo-mayda
Tilla sirg'a yarashar, mayda-yo-mayda

«Ko'zlari yongan chiroq», «ko'zlari bor oynaday», «shoxlari-ning bor chambarak» kabi jonlantirilgan tasvirlarning dehqon tilida aytilishicha ajib hikmat bor. ish hayvoni uning madadkori, suyan-gan tog'i; tirikchiligi; ro'zg'orning butligi, ochligi va to'qligi bari shunga bog'liq, hayvonning ta'rif-tavsif etilishining quvnoq ruhiy holati, mehnat qilish ishtiyoqi, ikkinchi tomondan, xirmon yan-chish ritmi, ish jarayoni aks etadi. Xirmon qo'shiqlari ko'p aytil-ganidan so'zlari quyma, pishiq bo'ladi.

«Xo'p mayda» qo'shiqlari ijtimoiy motivlari bilan ajratib turadi. Odatda, «o'roqda yo'q, mashaqda yo'q, xirmonda hozir» bo'ladigan tekinxo'rlar-oqsoqollar, boylar, soliqchilar, sudxo'rlar, mulla eshonlarning ayni donni somondan ayirish vaqtida xirmon ustida kelib kambag'al dehqonning sho'rini quritganligini, bor ho-silni talab olib ketganligiga nisbatan xalqning g'azab-nafrati cheksiz bo'ladi.

Qora-qora qarg'alar, mayda-yo-mayda,

Qoʻrni koʻrsa yoʻrgʻalar, mayda-yo-mayda.
Uying kuygʻur dargʻalar, mayda-yo-mayda,
Xirmonni koʻrsa yoʻrgʻalar, mayda-yo-mayda.
Mayda qilgin uvatib, mayda-yo-mayda,
Sensan mening quvvatim, mayda-yo-mayda.
Kelayotir eshonlar, mayda-yo-mayda,
Dastorini chuvatib, mayda-yo-mayda.

«Xoʻp-mayda» qoʻshiqlarini ijro etishda koʻpincha «hey mayda, hey», «mayda-yo mayda», «ha, xoʻp, hayda» singari nidolar har misra oxirida yoki ikki misradan keyin shunday nidoli satrlar naqorati qilib aytiladi. Bular toʻrtlik muhim rol oʻynaydi. Qoʻshiqda uchraydigan «sakrab-sakrab haydagin», «yoʻrtib-yoʻrtib haydagin» satrlarida ish hayvonining ildam yurishi, xirmonni tezroq yanchishi dehqonni sevinch tuygʻulari bilan qoʻshilib, ruhiy koʻtarinkilik hosil qiladi. Xirmon qoʻshiqlarida umid va xursandchilik bagʻishlovchi satrlar koʻp. Negaki, dehqon ogʻir va mashaqqatli kunlar orqada qolganligini koʻrib turibdi. Shunday paytda dehqon oʻzining xirmon baraka tilaydi. Afsonaviy bobo dehqonni oʻzining xirmoniga baraka chorlaydi:

Mayda-mayda marosim, mayda-yo-mayda,
Don samondan arisin, mayda-yo-mayda.
Ayni sahar boʻlganda, mayda-yo-mayda,
Bobo Dehqon dorisin, mayda-yo-mayda.

YORGʻICHOQ QOʻSHIQLARI

Yorgʻichoq deb atalgan qoʻl tegirmonini kuni boʻyi aylantirish, mashaqqatli mehnat. Bugʻdoy, arpa, joʻxori, tariqni un qila turib aytiladigan qoʻshiq mehnat kishisiga hamroh. Ogʻir toshning guldirab, bir joyda aylanib turishi ohangida toʻqilgan qoʻshiqlar ham vazmin, ham choʻzib aytiladigan boʻladi:

Yorgʻichoq torta-torta toldi qoʻlim
Ikki tosh orasida qoldi qoʻlim

Yorgʻichoq qoʻshiqlarida mehnat unumining pastligidan nolish motivlari maʼyuslik bilan bayon etiladi.

Yorgʻichoq yalpoqqina
Un qilar oppoqqina
Yorgʻichoq xir-xir etar
Mushtdakkina xamir etar.

Choʻl dashtlarda, qir adirlarda yashagan chorvador, dehqon

xalqimiz, xususan, mazlum xotin-qizlar qo‘l tegirmonida ishlab turib, muhtojlikda yashashi, kun kechirishning og‘irligi haqidagi mungli qo‘shiqlari to‘qilgan. Yorg‘ichoq qo‘shiqlarda ham mehnat ahlining dard-hasratlari, taqdiridan, zolimlar zulmi azoblaridan kuchli norozilik kayfiyatlari bayon etiladi.

SOG‘IM QO‘SHIQLARI

Chorvachilik bilan bog‘liq qo‘shiqlar ichida sog‘im qo‘shiqlari keng tarqalgan.

Sog‘im qo‘shiqlari: Sigir, qo‘y, echki, biya, tuyalarni sog‘ishda erkalash ohangida aytiladigan qo‘shiqlarni sog‘im qo‘shiqlari deyiladi. Sigir sog‘ish bilan bog‘liq qo‘shiqlar — «xo‘sh-xo‘sh» yoki «xo‘shim» deyiladi. Ular ham boshdan-oyoq govmish sigirga murojaat shaklida tug‘ilgan bo‘lib, sutli sigir mehnat ahli ro‘zg‘orini to‘kin qiladigan xazina deb ardoqlanadi, sog‘ish paytida silabsiypab aytilgan qo‘shiq govmishni iydirdi:

Saralab yeding o‘tingni, -xo‘sh-xo‘sh,
Iyib bergin, sutingni, xo‘sh-xo‘sh.
Olmazor buloq o‘ting bor, xo‘sh-xo‘sh,
Oqar buloq suting bor, xo‘sh-xo‘sh.
Tura qolgin jonivor, xo‘sh-xo‘sh,
Iya qolgin jonivor, xo‘sh-xo‘sh.

Sigir sog‘ishda aytiladigan qo‘shiqlarda takrorlanadigan xo‘sh-xo‘sh so‘zlari, «Otli molim xo‘sh-xo‘sh», «Zotli molim, xo‘sh-xo‘sh» satrlari alohida urg‘u bilan aytiladi. Sigir sog‘uvchi qo‘shiq aytish bilan bir vaqtda molning boshini, yonverini silab siypab qo‘yadi.

Ola sigir ol deydi.
Issiq joyga sol deydi.
Ola sigir sutini,
Asal bilan bol deydi,
Govmish molim xo‘sh-xo‘sh.

Qo‘ylarni sog‘ish va qo‘zilarni emdirishda aytiladigan qo‘shiqlarni «turey-turey qo‘shiqlari» yoki «furr-xaypuy» deyiladi.

Ularda odatdagidek sovlqqa murojaat etish asosiy o‘rin tutadi. Qo‘shiqlarni chorvadorlari hayoti qo‘ylarni bo‘rilardan omon saqlaydigan itlardan tortib, qo‘y boquvchilarning ruhiy olami, yam-yashil dalalar tasvirigacha ona qo‘ylarni erkalash yo‘li bilan beriladi. To‘rtliklarni har bir satrida «Turay-turay» yoki «Turey-turey», «Pufey-pufey» so‘zlari qo‘shib aytiladi. Bu esa uni ma‘lum ohangda cho‘zib aytishga imkon beradi:

Bolangni ol jonivor turay-turay,
Sen bolangni olmasang, turay-turay.
Ola itni yecharman, turay-turay,
Oyog'ingni tusharman, turay-turay.
Ola itni qo'sharman, turay-turay,
Tog'da olg'ar o'ting bor, turey-turey,
Ol bolangni, jonivor turey-turey
Ola bo'ynoq iting bor, turey-turey.

To'l (qo'zilatish) davrida ba'zan qo'zilar bir-biriga aralashib, hidi uradi. Shunda sovliq qo'zini olmaydi. Shu holat qo'shiqlarda aks etgan. Cho'pon tushunchasi, guyo shu qo'shiqni aytsa, qo'y qo'zini olar emish.

Bolalilar bozorda, turay-turay,
Bolasizlar mozorda, turay-turay,
Ol bolangni jonivor, turay-turay,
Sol mehringni jonivor, turay-turay.

Keyingi ikki satr ko'pincha naqorat o'rnida har bir to'rtlikdan keyin aytiladi. Ba'zan naqorat shaklida bir satrning o'zi «ol bolangni jonivor, turay-turay» yoki «turay-turay»ning o'zi takrorlanadi.

Echkilarni sog'ish va uloqlarni emizish paytida aytiladigan qo'shiqlarni «churey-churey» yoki churiyalar deyiladi. Ular «turey-turey»larga nisbatan cho'ziqroq aytiladi. Ba'zan sog'uvchi qiz qo'shiqsiz «churey-churey»ni qayta qayta aytib turish bilan kifoyalanadi. Sog'uvchi ayolning qo'shig'ida ham echkiga murojaat etish usuli qaytariladi:

Molda bilinar qashqang-a, churey-churey,
Bormi bundan boshqang-a, churey-churey
Ana yerda yotganingda, churey-churey,
Yoningda o'ynar jon bolang-a, churey-churey.

Umuman, sigir, biya, tuya, qo'y, echki sog'ish qo'shiqlari ayollar va cho'ponlar to'qigan bo'lib, ular mehnatini aks ettiradi. Qo'shiqlarda insonning hayvonot olamiga muhabbatiga, u bilan bo'lgan munosabatini ko'rsatadi. Ayol o'z farzandlarini erkalaganiday muloyim so'zlaydi, qo'shiq kuylaydi, mol ham shunga o'rgangan, binobarin, mol iydiriladi, yaxshi sog'iladi, suti mo'la bo'ladi. Sog'im qo'shiqlari ichida tuya soqqan ayolga bag'ishlanganlari ham bor. Lirik ohangda bu qo'shiqda qizning tuya yoki biya sog'ishdagi xatti-harakati, ish unumi, qimiz ichish bahonasi bilan sida yigitning unga muhabbat izhor etmoqchi bo'lgani tasvirlanadi.

Tuya sog'qan vaqtingda
Iy debmiding, To'lg'anoy,
Ikki qo'ling bir-biriga,
Tey debmiding, To'lg'anoy...
Qozon-qozon qimizini
Ich debmiding, To'lg'anoy.

Bu qo'shiqda mol sog'uvchi qizning chaqqonligini, ayni vaqtda uning sevgi yoshidagi barkamol qiyofasini tasavvur etish mumkin.

HUNARMANDCHILIK QO'SHIQLARI

O'zbek xalq qo'shiqlari orasida hunarmandchilik qo'shiqlari anchagina salmoqli o'rin egallaydi. Bunday qo'shiqlarda hunarmand yoki kosibning uzoq tarixiy sharoitlardagi moddiy va ma'naviy hayoti, ichki ruhiy kayfiyati ibtidoiy ish qurollari va tug'ilgan mehnat mashaqqati bilan qo'shib tasvirlanadi:

Bo'z to'qiyimiz qirg'oqini o'xshatib,
Moki otaman dastginamni qaqshatib,
Bozordagi shoyilardan yaxshi etib
Nafisdan o'xshagan bo'zim yaxshidir.

Ayollar tilidan aytiladigan bunday qo'shiqlar charx yigirishda («Charxim tanob tashlaydi»), Olacha, gilam to'qishda, so'zana, palak, do'ppi tikishda va shunga o'xshagan ish harakat jarayonida yaratilgan va tildan-tilga o'tib kuylangan.

Bo'zchi aytgan qo'shiqda jafoli, unumsiz mehnat bo'zchilik hunarining g'oyat og'irligi, buning ustiga to'kilgan bo'zi sotilmay, bozori kasod bo'lib, oilasidan muhtojlik arimaganligi singari motivlar ravshan ko'rinib turibdi. Xalqda «bo'zchi belboqqa yolchimas» degan maqol behuda bo'lmagan. Haqiqatda bo'zchi bor yo'g'ini bozorga olib chiqqan, bir parcha nonga almashtirgan. Ana shu hayotiy detallar, kosibning ruhini qo'rquv, g'amginlik, shikoyat motivlar orqali beriladi:

Do'kondan uyga kirsam tanam qaqshaydi,
Sovuqlarda o'lmay qolsam yaxshiydi
Qarisi tilladan ketsa yaxshiydi,
Shunday mening bo'zim arzon ketarmi.

Mehnat jarayonini aks ettiradigan an'anaviy qo'shiqlarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bajariladigan mehnat ritmi qo'shiq ohangi bilan ichki bog'liqlikka ega, ritmi qo'shiq ohangida belgilaydi. Kosibning kelini yoki qizini charxda ip yigira turib, qo'l harakati ritmiga muvofiq ohangda kuylaganda, uning yoshligi,

Bolangni ol jonivor turay-turay,
Sen bolangni olmasang, turay-turay.
Ola itni yecharman, turay-turay,
Oyog'ingni tusharman, turay-turay,
Ola itni qo'sharman, turay-turay,
Tog'da olg'ar o'ting bor, turey-turey,
Ol bolangni, jonivor turey-turey
Ola bo'ynoq iting bor, turey-turey.

To'l (qo'zilatish) davrida ba'zan qo'zilar bir-biriga aralashib, hidi uradi. Shunda sovliq qo'zini olmaydi. Shu holat qo'shiqlarda aks etgan. Cho'pon tushunchasi, guyo shu qo'shiqni aytsa, qo'y qo'zini olar emish.

Bolalilar bozorda, turay-turay,
Bolasizlar mozorda, turay-turay,
Ol bolangni jonivor, turay-turay,
Sol mehringni jonivor, turay-turay.

Keyingi ikki satr ko'pincha naqorat o'rnida har bir to'rtlikdan keyin aytiladi. Ba'zan naqorat shaklida bir satrning o'zi «ol bolangni jonivor, turay-turay» yoki «turay-turay»ning o'zi takrorlanadi.

Echkilarni sog'ish va uloqlarni emizish paytida aytiladigan qo'shiqlarni «churey-churey» yoki churiyalar deyiladi. Ular «turey-turey»larga nisbatan cho'ziqroq aytiladi. Ba'zan sog'uvchi qiz qo'shiqsiz «churey-churey»ni qayta qayta aytib turish bilan kifoyalanadi. Sog'uvchi ayolning qo'shig'ida ham echkiga murojaat etish usuli qaytariladi:

Molda bilinar qashqang-a, churey-churey,
Bormi bundan boshqang-a, churey-churey
Ana yerda yotganingda, churey-churey,
Yoningda o'ynar jon bolang-a, churey-churey.

Umuman, sigir, biya, tuya, qo'y, echki sog'ish qo'shiqlari ayollar va cho'ponlar to'qigan bo'lib, ular mehnatini aks ettiradi. Qo'shiqlarda insonning hayvonot olamiga muhabbatiga, u bilan bo'lgan munosabatini ko'rsatadi. Ayol o'z farandalarini erkalagan-day muloyim so'zlaydi, qo'shiq kuylaydi, mol ham shunga o'rgangan, binobarin, mol iydiriladi, yaxshi sog'iladi, suti mo'l bo'ladi. Sog'im qo'shiqlari ichida tuya soqqan ayolga bag'ishlanganlari ham bor. Lirik ohangda bu qo'shiqda qizning tuya yoki biya sog'ishdagi xatti-harakati, ish unumi, qimiz ichish bahonasida yigitning unga muhabbat izhor etmoqchi bo'lgani tasvirlanadi:

Tuya sog'qan vaqtingda
Iy debmiding, To'lg'anoy,
Ikki qo'ling bir-biriga,
Tey debmiding, To'lg'anoy...
Qozon-qozon qimizini
Ich debmiding, To'lg'anoy.

Bu qo'shiqda mol sog'uvchi qizning chaqqonligini, ayni vaqtda uning sevgi yoshidagi barkamol qiyofasini tasavvur etish mumkin.

HUNARMANDCHILIK QO'SHIQLARI

O'zbek xalq qo'shiqlari orasida hunarmandchilik qo'shiqlari anchagina salmoqli o'rin egallaydi. Bunday qo'shiqlarda hunarmand yoki kosibning uzoq tarixiy sharoitlardagi moddiy va ma'naviy hayoti, ichki ruhiy kayfiyati ibtidoiy ish qurollari tufayli tug'ilgan mehnat mashaqqati bilan qo'shilib tasvirlanadi:

Bo'z to'qiyimiz qirg'oqini o'xshatib,
Moki otaman dastginamni qaqshatib,
Bozordagi shoyilardan yaxshi etib
Nafisdan o'xshagan bo'zim yaxshidir.

Ayollar tilidan aytiladigan bunday qo'shiqlar charx yigirishda («Charxim tanob tashlaydi»), Olacha, gilam to'qishda, so'zana, palak, do'ppi tikishda va shunga o'xshagan ish harakat jarayonida yaratilgan va tildan-tilga o'tib kuylangan.

Bo'zchi aytgan qo'shiqda jafoli, unumsiz mehnat bo'zchilik hunarining g'oyat og'irligi, buning ustiga to'kilgan bo'zi sotilmay, bozori kasod bo'lib, oilasidan muhtojlik arimaganligi singari motivlar ravshan ko'rinib turibdi. Xalqda «bo'zchi belboqqa yolchimas» degan maqol behuda bo'lmagan. Haqiqatda bo'zchi bor yo'g'ini bozorga olib chiqqan, bir parcha nonga almashtirgan. Ana shu hayotiy detallar, kosibning ruhini qo'rquv, g'amginlik, shikoyat motivlar orqali beriladi:

Do'kondan uyga kirsam tanam qaqshaydi,
Sovuqlarda o'lmay qolsam yaxshiydi
Qarisi tilladan ketsa yaxshiydi,
Shunday mening bo'zim arzon ketarmi.

Mehnat jarayonini aks ettiradigan an'anaviy qo'shiqlarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bajariladigan mehnat ritmi qo'shiq ohangi bilan ichki bog'liqlikka ega, ritmi qo'shiq ohangida belgilaydi. Kosibning kelini yoki qizini charxda ip yigira turib, qo'l harakati ritmiga muvofiq ohangda kuylaganda, uning yoshligi,

ichki zavqi, shu topda ishdan ko'ra o'yinga mayli ko'proq ekani sezilib turadi:

Charxim guv-guv etadi,
Marg'ilonga yetadi.
Marg'ilonning qizlari,
Achchiq olma ekadi,
Achchiq olma pishibdi...

Qo'shiqning barcha satrlaridagi ham o'zgacha sho'xchang ohangdorlik kasb etadi. Shuningdek, ip yigiruvchining chevarligi, o'z san'atkorligi bilan haqli ravishda suratda faxrlanishi tikuvchilik g'ururini taqqoslash yo'li bilan ochib beriladi:

Elak ichida kepak,
Mening eshganim ipak,
Mening ipimday qilib
Esholmaydi o'rgimchak.

Bu kabi qo'shiqlarda xalq ommasining halol mehnat qilib yashashi, tiriklik uchun kurashi, mehnatga buyuk muhabbati uning azaliy odat ekanligi chuqur hayotiy faktlarda ko'rsatilgan.

Bo'zchi dastgohining har bir zaruriy qismi haqida fikr yuritilishi va ularning bir-biri bilan uzviy bog'liqlikning qo'shiqqa solinishi tasodifiy emas. «O'tgin, qora mokim endi» satrining bandlar naqorat shaklida takrorlanishi mehnat ritmiga hamohang bo'lib, ishlovchi ruhiy ko'tarinkiligini badiiy ifodalashga xizmat qiladi. Bo'zchi qo'shiqlarida mehnat sharoitining og'irligi, zax, qorong'i, do'konda ishlashi tasvirlanadi.

Bo'zchi o'z mehnatini samarasini ko'rib quvonadi, qanoat hosil qiladi. Bu ustaning mahorati, dastgohni epchillik bilan ishlata bilish natijasidir. Qo'shiqda to'q qofiyalar, sakkiz bo'g'inli satrlarning o'zaro mantiqiy bog'lanishi mehnat jarayonini yengil tasavvur etishga imkon bergan:

Guladin ilgari dastgoh,
Poshpurtlarni urdim pastga,
Siring aytma yoru do'stga,
O'tgin, qora mokim endi.
Qarg'ara undan yuqori
Sinacho'p uning no'kari .
Hay-hay ustamning do'koni,
O'tgin, qora mokim endi.

Hunarmandchilik qo'shiqlarida mehnat ahlining moddiy qi-yinchiliklari, turmush kechirishning og'irligi tasvirida ijtimoiy hayotdagi tengsizlik sabablarini ochiq ravshan tushunib olish mumkin.

Insonning yashash va hayot kechirish tarzi, urf-odatlar, marosimlar bilan bog'liq ravishda juda ko'p qo'shiqlar yaratilgan. Marosimlar, odatlar turli-tuman bo'lganidek, bularga bag'rishlangan qo'shiqlar ham xilma-xildir. Qo'shiqlar xalqning oilaviy bayramlarini, marosimlarini bezab kelgan. Marosim bayramlarida kishilar o'yin-kulgu qilganlar, dam olishgan, yangi mehnat faoliyatiga ilhomlanganlar. Marosim folklori ikki katta guruhga ajratiladi. Bular: mavsumiy marosimlar va oilaviy marosimlar. Marosim folklori, umuman, unda ijro etiluvchi qo'shiqlarni mohiyatida insonlarning so'z qudratiga bo'lgan ishonch, e'tiqod muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, tabiat hodisalariga ta'sir o'tkazish uchun o'tkaziluvchi marosimlarda bu hol yanada bo'rtib ko'rinadi. O'zbek xalqining ana shunday qadimiy marosimlaridan biri yomg'ir chaqirish maqsadida o'tkaziluvchi «Sus xoti» marosimidir.

SUS XOTIN

Qurg'oqchilik munosabati bilan yomg'ir chaqirish marosimida aytiladigan «Sus xotin», «Talabi baron», «Yomg'ir talab» qo'shiqlari turli irimlar qadimdan qolgan turli animistik tushunchalar bilan bog'langan. Bunga ko'ra ikkita tayog'ni bir-biriga ko'ndalang bog'lab, ayollar kiyimi kiydiriladi, boshiga ro'mol o'raladi. Osmondan yog'in tilaydigan bu «Sus xotin» tasvirini-qo'g'irchoqni ayollar yuqoriga ko'tarib uyma-uy yurib, hammalari birgalashib qo'shiq aytishadi. Xonadon egalari «Sus xotin» qo'shig'ini aytib kelgan kishilarga chelaklarda suv olib sepishadi, non, don, kabi turli narsalar berib ularni «rozi» qilishadi. Qurg'oqchilik, suv tanqis bo'lgan davrlarda dala-dashtlarda yashagan dehqonlar tabiatga iltijo qilib, mo'l hosil bo'lishini orzu qilgan. Bu narsa qo'shiqda o'z ifodasini topgan:

Suv xotin-sulton xotin,
Ko'lankasi maydon xotin.
Suv xotin-suvsiz xotin,
Ko'ylaklari bo'z xotin.
Havoni yog'dirgin, suv xotin,
Bug'doyni bo'ldirgin, suv xotin,
Elni to'ydirgin, suv xotin,
Suv xotin-sulton xotin.

Bunday qo'shiqlar xalq orasida «Suv xotin», «So'z xotin», «Sus xotin», «Chayla qazaq» nomlari bilan yuritiladi.

«Sus xotin» marosimi O'rta Osiyo xalqlarining ham zar-

dushtizm-otashparastlik diniga xos hosildorlik ma'budasi Noxita (Anaxita)ga sig'inishi bo'lib, ibtidoiy odatlardan biri hisoblanadi.

RAMAZON

Turli urf-odatlar, marosim va irimlar bilan bog'liq bir qancha qo'shiqlar yaratilganki, bunga «Yo, ramazon», «Barot keldi», «Safar qochdi», «Badik», «Buka-bukavoy», «Sus xotin», «Boychechak» kabilarni ko'rsatish mumkin. Shulardan «Yo, ramazon» eski yil kalendaridagi ramazon oyidagi bolalarning (ilgarigi zamonlarda kattalarning ham) hovlima-hovli yurib aytadigan qo'shiqlar edi. Sirtidan qaraganda, «Yo, ramazon» diniy mazmundagi qo'shiqlarga o'xshasa-da, ularga xonadon egasiga farzand ko'rish istaklar, ularning saxiy bo'lishi yoki baxilligi kabi motivlar ustunlik qiladilar. «Yo, ramazon» qo'shiqlari ijro etilganda, uning tahlili ravonligi, yengil yumor bilan ko'pchilik bo'lib aytilishi ko'zga tashlanadi. Bolalar uyma-uy yurib, borgan xonadonlariga yaxshi niyatlar bildirilgan qo'shiqlar ijro etishi bugungi kunda ham uchraydi.

«Yo ramazon» qo'shiqlari maxsus musiqa jo'rligida aytilmasada, o'ziga xos ohangga ega. Xalq orasida ushbu qo'shiqlarni ijro etuv-chilarga nisbatan «ramazonchilar», «rayvonchilar» degan atamalar qo'llaniladi.

Ramazon qo'shiqlari o'zining an'anaviy boshlama va yakunlamalariga ega. Odatda, ko'pchilik ramazon qo'shiqlari quyidagi tarzda boshlanadi:

Yo, ramazon aytib keldik eshingizga,
Qo'chqorday o'g'il bersin beshigingizga,
Qo'chqorday o'g'il bersa, beshigingizga,
Kim kelib, kim ketmaydi eshingizga.

Taomilga ko'ra xonadon egalari ramazonchilarga o'z tuhfalarini hadya etishadi. Ana shunda ramazonchilar ularni alqab ushbu oqishni ijro etadilar:

Bo'rgin, bo'rgin, bo'rginboy,
Bo'danaday go'rginboy.
Haydaganingiz qo'y bo'lsin,
Kuraganingiz qo'y bo'lsin,
Uyingiz yoni soy bo'lsin,
Chaynaganingiz moy bo'lsin,
Kunda moyingiz qaynasin,
O'choq to'la kul bo'lsin,
To'garagi ul bo'lsin,

Ichkani qatiq bo'lsin,
Nasibasi qatiq bo'lsin,
Yegani uzum bo'lsin,
Umri uzun bo'lsin.

Ramazon qo'shiqlari yilda bir bora, faqat ramazon oyidagina ijro etiladi.

TO'Y QO'SHIQLARI¹

To'y juda qadim zamonlardan beri kishilar hayotida muhim voqea bo'lib kelgan. To'y atamasi o'z ichiga juda ko'p rasm-rusmlarni, irim-sirimlarni va turli hajmdagi marosimlarni olgan. To'y atamasi folklorshunos olim B.Sarim soqovning ta'rificha «to'ymoq», «do'st diydoriga to'ymoq», «el-yurtga ziyofat bermoq» singari ma'nolarni anglatgan. To'y marosimlari — beshik to'yi, xatna to'yi, yosh to'yi, uylanish to'yi singari xilma-xil to'ylar bo'lganidek, uning qo'shiqlari ham turli-tumandir.

Qiz uzatar kechasida aytiladigan qo'shiqlardan biri «yor-yor»lardir. «Yor-yor» qo'shiqlari musiqiyliigi, ma'lum cho'ziq ohangda ko'pchilik bo'lib kuylanishi, naqoratlari bilan ajralib turadi. «Yor-yor» qo'shiqlarida asosan qiz o'stirgan ota-onaning ta'rifi, orzulari, uzatilayotgan qizning madhiyasi — go'zalligi, chevarligi, qizga turmush haqidagi nasihatlar, unib-o'sishi, serfarzand bo'lishi haqidagi tilaklar tashkil qiladi. «Yor-yor» qo'shiqlari respublikamizning hamma yerida ham keng tarqalgan va asosan ayollar ijro etishadi.

Bizlar yor-yor aytaylik,
Birday bo'lib yor-yor,
Tong saharda ochilgan,
Gulday bo'lib yor-yor.
Davlatingni borida
To'y qila ko'r, yor-yor,
Ostonasi tillodan,
Uy qila ko'r, yor-yor.

Alisher Navoiy «Mezon ul -avzon» asarida aruz vazniga mos keluvchi turkiy xalqlar og'zaki ijodi janrlariga to'xtalib, yor-yor haqida shunday yozadi: «Yana chinga» durkim, turk ulusi zufof va qiz ko'chirur to'ylarida ani aytadurlar.» Yuqorida berilgan yor-yor

¹ S. Davlatov. Qashqadaryo vohasi to'y marosim folklori (nomoz. diss.) 1998-yil.

Alisher Navoiy qayd etgan «chinga»ning aruz vazniga mos keluvchi turini aynan o'zginasidan iborat.

Yor-yor aytib kelaman, yo'l beringlar, yor-yor,

O'lanchining piriman, qo'l beringlar, yor-yor.

Hay-hay o'lan, jon o'lan, to'ydir bugun, yor-yor,

Do'st kelib, dushman ketar kundir bugun, yor-yor.

Respublikamizning ayrim hududlarida yor-yorlar erkaklar tomonidan ham aytiladi. Ilgari kelin va uning dugonalari kuyovnikiga aravalarda borishgan, yo'l-yo'lakay kelinning dugonalari yor-yor aytib borishgan.

Aravaning cho'pchagi yoriq ekan, yor-yor.

Kuyov bergan qo'ylari oriq ekan, yor-yor.

Surxondaryo, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarining ayrim joylarida kelinni kuyov uyiga olib kirishda, ya'ni uy ostonasiga to'shalgan poyondozi bosib o'tgandan keyin, qaynonasi «xush keldingiz» aytimini aytadi. Uning atrofida gilar jo'r bo'lishib, «hazorali» deb turishadi:

Hazorali, hazorali,

Oftobim, anbarim, xush keldingiz,

Jonim, oltin parim, xush keldingiz,

Hazorali, hazorali.

Davlat boshingizda bo'lsin, xush keldingiz,

Himmat qo'lingizda bo'lsin, xush keldingiz.

«Xush keldingiz» kuyovning xonadoniga yangi a'zo bo'lib kelgan kelinning poyqadamini oq bo'lsin degan ma'noda aytilgan.

Kelin salom. Kelinchakni kuyovning yaqin qarindosh-urug'lari bilan tanishtirish marosimida kelin salom yoki betochar qo'shiqlari aytiladi. An'anaga ko'ra kayvoni (dasturxonchi) kelinni kuyov xonadonining darvozasidan olib qirishdan boshlab aytadi. Uy egalari, to'yga kelganlar esa «alik salom» deb javob qaytaradilar. Buxoro va Samarqand viloyatida an'anaviy «salomnoma»lar o'qiladi.

Yomg'ir yog'dirib ho'l qilgan,

Ikki gulni bir qilgan,

Xudo taolo bir salom.

Oq ro'molning rishtasi,

Osmonlar farishtasi,

Payg'ambarlarga salom.

O'zbeklarda farzand uchun xudo, farishta va payg'ambarlardan so'ng eng muqaddas zot ota-ona hisoblanadi. Shu bois kelin salomlarda navbatdagi misralar ota-onaga bag'ishlanadi:

Kayvoni: Bog' orqasidan yo'l bergan,
Hamyonidan pul bergan
Qaynatasiga salom.

Ayollar: Alik salom.

Kayvoni: Oq saqichday erigan,
O'g'il tug'ib kerilgan,
Qaynonasiga salom.

Ayollar: Alik salom.

Kayvoni: Devor osha qaragan,
To'y qachon deb so'ragan,
Qo'shnilariga salom.

«Kelin salomda» kayvoni kuyovga qaynata, qaynona hamda tog'alari, ammalari, xolalariga salom berganda ta'rif-tavsiflar orasida hazilnamo gaplarni qo'shib chatib yuboradi. «Kelin salom»ga qatnashgan ayollar bundan rohatlanib, kuladilar. Tanqidiy hazil ham, kulgi ham beg'ubor, bundan hech kim xafa bo'lmaydi.

Kayvoni: Ichi qazon kuyasi,
Qanquv gapning uyasi,
Eshitib olsin ammasi,
Sizga salom, yor-yor.
Kelin salom yor-yor.

Aslida «Kelin salom»da aytiladigan qo'shiqlar avvaldan ijod qilingan esa-da, kayvoni tilidan go'yo yangi kelinning qarindoshlari tabiatiga mos tushadigan qilib, hozirgina ijod qilinganday tuyuladi. Ko'p yerlarda «Kelin salom» uch satrdan, Farg'ona vodiysida to'rtliklardan tashkil topadi. Asosan, avvalgi ikki satr o'zaro qofiyadoshdir.

Kayvoni: Ariqdagi zulukday,
Qoshi-ko'zi pilikday,
Qoqib qo'ygan ilikday,
Ovsiniga salom.

Ayollar: Alik salom.

Kayvoni hazilomuz kelin salomlarni birvarakay to'qib, odamlarni kuldirib, aytaveradi. Berilayotgan tavsiflar nomi tilga olingan kishini to'la tasavvur etishga yordam beradi:

Tomga bosgan bo'yraday,
G'o'zadagi pechakday,
Yurishlari to'raday,
Qayrilmachoq gajakday,
Kuyov yigitga salom.
Ochilgan gul pechakday
Qaynegachisiga salom.

Alisher Navoiy qayd etgan «chinga»ning aruz vazniga mos keluvchi turini aynan o'zginasidan iborat.

Yor-yor aytib kelaman, yo'l beringlar, yor-yor,

O'lanchining piriman, qo'l beringlar, yor-yor.

Hay-hay o'lan, jon o'lan, to'ydir bugun, yor-yor,

Do'st kelib, dushman ketar kundir bugun, yor-yor.

Respublikamizning ayrim hududlarida yor-yorlar erkaklar tomonidan ham aytiladi. Ilgari kelin va uning dugonalari kuyovnikiga aravalarda borishgan, yo'l-yo'lakay kelinning dugonalari yor-yor aytib borishgan.

Aravaning cho'pchagi yoriq ekan, yor-yor.

Kuyov bergan qo'ylari oriq ekan, yor-yor.

Surxondaryo, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarining ayrim joylarida kelinni kuyov uyiga olib kirishda, ya'ni uy ostonasiga to'shalgan poyondozni bosib o'tgandan keyin, qaynonasi «xush keldingiz» aytimini aytadi. Uning atrofidagilar jo'r bo'lishib, «hazorali» deb turishadi:

Hazorali, hazorali,

Oftobim, anbarim, xush keldingiz,

Jonim, oltin parim, xush keldingiz,

Hazorali, hazorali.

Davlat boshingizda bo'lsin, xush keldingiz,

Himmat qo'lingizda bo'lsin, xush keldingiz.

«Xush keldingiz» kuyovning xonadoniga yangi a'zo bo'lib kelgan kelinning poyqadami oq bo'lsin degan ma'noda aytilgan.

Kelin salom. Kelinchakni kuyovning yaqin qarindosh-urug'lari bilan tanishtirish marosimida kelin salom yoki betochar qo'shiqlari aytiladi. An'anaga ko'ra kayvoni (dasturxonchi) kelinni kuyov xonadonining darvozasidan olib qirishdan boshlab aytadi. Uy egalari, to'yga kelganlar esa «alik salom» deb javob qaytaradilar. Buxoro va Samarqand viloyatida an'anaviy «salomnoma»lar o'qiladi.

Yomg'ir yog'dirib ho'l qilgan,

Ikki gulni bir qilgan,

Xudo taolo bir salom.

Oq ro'molning rishtasi,

Osmonlar farishtasi,

Payg'ambarlarga salom.

O'zbeklarda farzand uchun xudo, farishta va payg'ambarlardan so'ng eng muqaddas zot ota-ona hisoblanadi. Shu bois kelin salomlarda navbatdagi misralar ota-onaga bag'ishlanadi:

Kayvoni: Bog' orqasidan yo'l bergan,
 Hamyonidan pul bergan
 Qaynatasiga salom.

Ayollar: Alik salom.

Kayvoni: Oq saqichday erigan,
 O'g'il tug'ib kerilgan,
 Qaynonasiga salom.

Ayollar: Alik salom.

Kayvoni: Devor osha qaragan,
 To'y qachon deb so'ragan,
 Qo'shnilariga salom.

«Kelin salomda» kayvoni kuyovga qaynata, qaynona hamda tog'alari, ammalari, xolalariga salom berganda ta'rif-tavsiflar orasida hazilnamo gaplarni qo'shib chatib yuboradi. «Kelin salom»ga qatnashgan ayollar bundan rohatlanib, kuladilar. Tanqidiy hazil ham, kulgi ham beg'ubor, bundan hech kim xafa bo'lmaydi.

Kayvoni: Ichi qazon kuyasi,
 Qanquv gapning uyasi,
 Eshitib olsin ammasi,
 Sizga salom, yor-yor.
 Kelin salom yor-yor.

Aslida «Kelin salom»da aytiladigan qo'shiqlar avvaldan ijod qilingan esa-da, kayvoni tilidan go'yo yangi kelinning qarindoshlari tabiatiga mos tushadigan qilib, hozirgina ijod qilinganday tuyuladi. Ko'p yerlarda «Kelin salom» uch satrdan, Farg'ona vodiysida to'rtliklardan tashkil topadi. Asosan, avvalgi ikki satr o'zaro qofiyadoshdir.

Kayvoni: Ariqdagi zulukday,
 Qoshi-ko'zi pilikday,
 Qoqib qo'ygan ilikday,
 Ovsiniga salom.

Ayollar: Alik salom.

Kayvoni hazilomuz kelin salomlarni birvarakay to'qib, odamlarni kuldirib, aytaveradi. Berilayotgan tavsiflar nomi tilga olingan kishini to'la tasavvur etishga yordam beradi:

Tomga bosgan bo'yraday,
 G'o'zadagi pechakday,
 Yurishlari to'raday,
 Qayrilmachoq gajakday,
 Kuyov yigitga salom.
 Ochilgan gul pechakday
 Qaynegachisiga salom.

Ayrim yerlarda kelinga qarindosh bo'lmish kishilarning, shuningdek, to'yda astoydil xizmat qilganlarning nomlari birma-bir aytiladi:

Boquvdan chiqqan otdak,
Ikki beti banotdek,
Habibulloga salom.

Yana xalq orasida kuyov tomonidan kelin tomonga atab, shuningdek, kelinnikiga kuyov navkarlari bilan kelganlarida qiz tomonidan aytiladigan «Xush kelibsiz», shuningdek, «To'y muborak» qo'shiqlari ham bo'lib, ular hozir ham keng tarqalgan.

YIG'I – YO'QLOVLAR

Qadrdon kishisining vafoti munosabati bilan ayollar tomonidan yig'lab aytiladigan aza, yig'i, yo'qlov, aytim, bo'zlovlarida marhumning eng yaxshi sifatleri yo'qlanadi, shafqatsiz o'lim tufayli boshga tushgan musibat, judolik dardi g'am-alam bilan izhor etiladi. Yig'ichilarning boshlovchilari bo'ladi. Bular go'yanda yoki yig'ichi deyiladi. Ular bir to'rtlikdan so'ng ayollar bir ohangda «uv» tortib yig'laydilar.

Motam marosimida kuylanuvchi qo'shiqlarda insonning o'limi bilan yuzma-yuz kelgandagi hayoti, uning tushkun kayfiyati, tashvish kulfati, orzu-armonlari o'z ifodasini topadi. Ushbu mavzuga bag'ishlangan qo'shiqlar sinchiklab tadqiq etilsa, ular maxsus tizimga egaligini kuzatish mumkin. Motam qo'shiqlarining o'lim hodisasi bilan bog'liq inson hayotining barcha bosqichlarini qamrab olishiga ko'ra folklorshunos D. O'rayeva ularni ikki katta guruhga ajratib ko'rsatadi. Bular: yig'ilar va yo'qlovlar. Tadqiqotchi bevosita o'lim sodir bo'lganda va o'lim xabari kelgandan boshlab kuylanuvchi qo'shiqlar silsilasini yig'ilar deb ataydi. Marhum bilan bog'liq yetti, qirq, yil marosimlarida aytiluvchi marsiyalarni esa yo'qlovlar qatoriga kiritdi. Yig'i-yo'qlovlarning paydo bo'lishiga va rivojlantirishiga ibtidoiy insonning sirli o'lim hodisasi, o'limdan keyingi qayta tirilish ishonchi, ikki olam, ya'ni tiriklar va o'liklar dunyosi mavjudligi, ruhning abadiyligi va uning ko'zga ko'rinmas holatda tiriklar olami bilan aloqada bo'lib turishi haqidagi mifologik qarashlari hamda turli diniy e'tiqodlari asos bo'lgan.

Yig'i-yo'qlov namunalari ularni yuksak san'at darajasida to'qilgan ko'ngil izhori ekanligiga guvohlik beradi:

O'lim buzdi makonimni,
Qurib qo'ygan do'konimni,

O'chirdi shamchirog'imni,
Oqartirdi qarog'imni.
Toleim bo'lsa edi,
Yongan chirog' o'chmas edi.
Bu suyangan tog'larim
To'ti bilan uchmas edi.

Yig'i-yo'qlovlarning ba'zi namunalari marhumning yaqinlarining tilidan kuylanganligi bilan ahamiyatli. U eridan ayrilgan xotin yoki ota-onasi vafot etgan farzand, yo bo'lmasa farzandidan judo bo'lgan onaning ko'ngil dardlari bo'lib kuylanadi. Umuman olganda, yig'i-yo'qlovlar og'ir musibatga tushgan insonga ruhiy madad, ko'ngil ovunchog'i bo'lib xizmat qiladi.

LIRIK QO'SHIQLAR

Lirik qo'shiqlar xalq qo'shiqlarining eng ommaviy tarqalgan janri hisoblanib, ularda inson ichki olami, butun borlig'i bilan namoyon bo'ladi. Lirik qo'shiqlar biror bir marosim bilan bog'liq kuylanmaydi. Ularni hamma joyda, har xil vaziyatda, katta-yu kichik baravariga birdek ijro etiladi. Lirik qo'shiqlar oddiy sharoitda ham, to'y-hasham, bayramlarda ham, mehnat jarayonida ham kuylanadi. Mavzu jihatdan ushbu qo'shiqlar rang-barang bo'lib, quvonchu-g'am, sevgi iztiroblari-yu, visol totini ham barobar qamraydi.

Lirik qo'shiqlar ijrosida maxsus an'anaviy takrorlar, naqoratlar, to'rtliklarni o'zaro bog'laydi. Ipakday mayin dilga orom beruvchi naqoratlar, to'rtliklardagi mazmun bilan hamohang yangraydi. Ba'zi qo'shiqlar bevosita takrorlanib keluvchi naqoratlar bilan boshlanadi.

Masalan: Yo'l bo'lsin-a, yo'l bo'lsin-o,
Bosgan izlaringiz gul bo'lsin.
yoki: Gulyoraxon, bo'ylaringiz gulyor.

Lirik qo'shiqlardagi har bir to'rtlik o'z holiga mustaqil asar sanaladi va mazmun holiga mustaqil asar sanaladi va mazmun tashiydi. Lekin ijro jarayonida ular ma'lum bir ohangda birlashib kuylanadi. Ayni paytda bir necha to'rtliklar ketma-ketlikda mazmunan birikkan namunalar ham uchraydi. Masalan: «Sumbula», «Yo'l bo'lsin», «Qizgina», «Namangan olmasi» va h.k. Ushbu qo'shiqlarda lirik qahramon o'z hayoti, sevgi iztiroblarini voqea-band to'rtliklar vositasida izhor etgan.

O'zbek xalq lirik qo'shiqlari badiiyati yuksakligi bilan ham kishini hayratga soladi. Ularda betakror o'xshatish, istiora va ramzlar

qo'llanilgan. Xususan, lirik qo'shiqlar tarkibida keluvchi bir qator obrazlar ramziy ma'no tashib to'rtlikdagi poetik mazmunning aniq ifodalanishiga xizmat qiladi. Masalan, lirik qo'shiqlar tarkibida olma-sevgi, tol-yigit, g'oz-yaxshi xabar, o'rdak-yomon xabar kabi poetik ma'nolarga ega.

LAPAR¹

O'zbek marosim folklorida oilaviy maishiy marosimlardan biri nikoh to'yi bilan bog'liq folklor namunalari tashkil etadi. Nikoh to'yi marosimlari va uning folklori boydir. Nikoh marosimlari bilan bog'liq ravishda jar (chorlovlar), o'lan, lapar, yor-yor, kelin salom, kuyov salom, to'y olqishlari kabi mustaqil folklor janrlari mavjud. Respublikamizning shahar va qishloqlarida ijro etiladigan, lapar janrlari va uning xususiyatlari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Laparlar nikohdan bir-ikki kun oldin keyin bo'lib tushadigan qizning uyida ijro etilgan. Bu marosim turli yerlarda «Qiz oqshomi», «Qizlar majlisi», «Qiz oshi», «Lapar kechasi», «Qizlar bazmi», «Lapar to'yi» kabi turli-tuman nomlar bilan yuritiladi. Lapar to'yi tadbiri to'y marosimlarining nikohlargacha bo'lgan tarkibiy qismi hisoblanadi. Odatda, qizning (kelinning) yangalaridan biri maxsus yasatilgan otga minib, orqasiga 11–12 yoshli bolani mingashtirib yoki piyoda holda qishlog'i va to'ydosh yaqin qishloqlarni aylanib, lapar kechasiga xabar qiladi. Bunda ashulachi, o'yinchi, laparchi qiz juvonlarni taklif qilishga alohida e'tibor beriladi. Yigitlar va yosh yalanlar qizlar bazmining oxirida, ya'ni uning lapar aytishish qismida ishtirok etadilar. Qiz bilan yigitlar tarafmataraf turib, oshiqona g'azal-baytlar aytishganda, xuddi so'z bilan tortishmachoq o'ynaganday bo'ladi. Bu bazmda qizlar va yigitlar tomonidan ikki kishi sal oldinga chiqib, birinchi bo'lib yigit lapar aytishni boshlaydi:

Avval boshlab aytganda qiz boshlamas,

Qiz boshlagan laparni el xushlamas.

Aytmayin deb bir xayol qilgan edim,

Yoru jo'ram qo'ymadi, endi bo'lmas.

Odatda, to'ygaga atab qizning otasi ikki-uch juft kavush olib qo'yadi. Lapar aytuvchi shulardan bir poyini ushlab turib lapar boshlaydi va qizlar to'dasidagi laparchi qizga uzatadi. Ular ham o'z navbatida lapar bilan javob berib, haligi bir poy kavushni

¹ N. Razzoqov va boshq. O'zbek xalq o'g'zaki poetik ijodi. «O'qituvchi» —T.: 1980.

ro'paradagi laparchi yigitga olib kelib beradi. Shu tariqa yangidan-yangi laparchilar o'rtaga tushaveradi.

Lapar bilan qiz va yigitlar bir-birlariga muhabbat izhor etib, tanishgan va ahdi-paymon qilishgan. O'z yurak dardlarini muzikasiz ma'lum ohangda ashula qilib aytishgan. Bordi-yu lapar aytayotgan yigit bilan qiz bir-birini yoqtirib qolsa, lapar aytib turib bir-birlariga sovg'a berishgan. Masalan, yigitlar ko'pincha kavush bilan birga tanga, so'm bersalar, qizlar qiyiqcha, dastro'mol, atir, sovun va shu kabi narsalarni kavushning ichiga solib qaytarishgan.

Qiz bazmida ko'pdan beri aytilib kelingan laparlar takror aytilar va yangilari ham ijod qilinardi. Odatga ko'ra, bazmdan avval ziyofat beriladi, mash'ala yoqiladi, so'ng o'yin boshlanadi, keyin laparga o'tiladi.

O'zbek xalqi o'rtasida to'ylarda qadimdan ijro etib kelingan laparlarda «ariq bo'yida jiyda, jiydaning guli mayda» deb kuylangan bo'lsa, ba'zi hududlardagi to'ylarda ijro etiladigan laparlarning mavzu doirasi shu qadar keng, ularning ayrimlarida-ku yigitga mushkul yumushlarni bajarishni buyursa, yigit bunday yumushlarni faqat qiz hamroh bo'lsagina bajarishini izhor etadi:

Qiz: Oq jaydari yigitning,
Oq o'tovi bor ekan,
Oq o'tovning ichida,
Oy kelinchak bor ekan.
Oy kelinchak yonida,
Tilla beshik bor ekan.
Tilla beshik ichida,
Oy chaqaloq bor ekan,
Oy chaqaloq boshida,
Qizil olma bor ekan.
Qizil olmani tishlab,
Makka tomön yo'l boshlang.

Qiz tilidan aytilgan bu laparda «Oq» atamasi ko'proq qo'llangan bu ikki yoshning bir-biriga mehr oqibati samimiyligini bildirsa, «oy» atamasi yorug'lik, porloq kelajakni bildiradi:

Yigit: Makka yo'li yiroqdir,
Ichgan suvim buloqdir.
Icha-icha mast bo'ldim,
Qizlar bilan do'st bo'ldim.
Qizlar ketdi qir oshib,
Bizlar qoldik adashib.

Lapar Toshkent atrofi tumanlarida, Janubiy Qozog'iston

o'zbeklari orasida keng tarqalgan. Laparni ko'p biluvchilarni laparchi deganlar. Ayrim to'ylarga maxsus laparchilar ham chaqirilgan.

ALLA¹

Allalar—beshik qo'shiqlarining keng tarqalgan an'anaviy janri hisoblanadi. Jahonda biror xalq yoki millat yo'qki, ularni tilida alla kuylanmasa. Ruslarda «bayki», «bayushki», turkmanlarda «huvdilar» ozarbayjonlarda «lay-lay», tatarlarda «alli-balli», atamalari bilan mashhurdir. Alla qo'shiqlari ijtimoiy-estetik qimmatiga ko'ra ikki vazifani bajaradi: birinchisi bolalarni uxlatish, («alla» so'zining lug'aviy ma'nosi ham allalash-ovutib avaylab uxlatish)dan iborat. Bunday allalab ovutish yoki uxlatish kuylash jarayonida namoyon bo'ladi. Xuddi shu asnoda ikkinchi vazifasi—tarbiyaviy-estetik mohiyati namoyon bo'ladi. Bu bolani kuy og'ushida hayot bilan tanishtirish. Alla qo'shiqlari bola tarbiyalashda faqat Markaziy Osiyodagina emas O'rta Yaqin Sharq mamlakatlarida yashovchi xalqlar orasida muhim ahamiyat kasb etgan, turklarda «ninni», tatarlarda «elli», «belli», qoraqalpoqlarda «xeyya, xeyya» deb atalib ularning vazifalari bir—bolalarni uxlatish, ovutish uchun onalar tomonidan aytilgan.

Ona bolasini o'zi bilgan eng yaxshi so'zlar bilan ta'riflaydi. Onaning nazarida bola—ko'rar ko'zi, uying chirog'i, oilaning baxti, kunduz-quyosh, tunda-oy, qariganda-tayanch.

Turkiy xalqlar o'rtasida «balu-balu» nomi bilan yuritilganligiga oid ma'lumotlarni M.Koshg'ariy o'zining «Devonu lug'otit turk» asarida alla haqida ham, beshik tebratish haqida ham ma'lumotlar keltirib o'tadi.

Alisher Navoiy ham Farhodning beshikdagi ahvolini shunday tasvirlaydi:

Arusi charx tun-kun doya kirdor,
Bo'lib har tavi holidin xabardor.
Beshik davrida chiniyu xitoyi
Bo'lub yuz no'sh lab doston saroyi.
Ko'zining nozi eldin eltib uyqu,
Anga uyqu keturmakka navogo'.

Shoir alla aytuvchini «navogo'» deya ta'riflayotir. Chunki, o'sha davrda oliy tabaqalarda bola tarbiyasi alohida enagalar tomonidan amalga oshirilganligi tufayli ular orasida allago'ylik-

¹ S. Davlatov. Qashqadaryo vohasi to'y-marosim folklori (nomz. diss.) 1998.

navogo'ylik-bolalarga qo'shiq aytish ilmini sohiblari deb aytadi va alla aytish ma'lum darajada takomillashganligini e'tirof etadi.

Allalar odatda, bola uch yoshga yetguncha aytiladi. Allalarda onaning mehri daryoligi, bag'ri kengligi, mehribonligi aks etib turadi. Ba'zi allalarda bolani o'rab olgan muhitning ifodasi bo'rtib turadi, rus xalqi allalarida bolani uni o'rab olgan muhit bilan tanishtirishga ko'proq e'tibor qaratiladi va turli-tuman qushlar, hayvonlar poetik maqtovida ularning ham salbiy, ham ijodiy xususiyatlarini ko'rsatishga harakat qilinsa, o'zbek xalqi allalarida esa asosan, beshik yoki belanchakning maqtovi bilan cheklanganlar hayvonlar, qushlar va hasharotlar poetik ta'rifidan tarkib topgan allalar yo'q hisobi. Ammo o'zbek allalarida hayvonlarning bolalari, qushlar nomi bilan aloqador erkalash ohangi bor: bolalar qo'zichoqqa, toychoqqa, bo'taloqqa, bulbulga, lochinga qiyoslanib e'zozlanadi. Bunday qiyoslash aslida o'sha jonivorlarga bo'lgan samimiy munosabatlar zamirida tabiiylik kasb etgan.

Bulbul qushning bolasi,

Alla, qo'zim, alla.

Daraxt bo'lar uyasi,

Alla, bolam, alla.

yoki: Bulbul sayrar yozina, alla-yo alla.

Qulluq qush ovozina, alla-yo alla.

Manim bulbul shu o'g'lim, alla-yo alla.

Quloq qo'ysin ovozima, alla-yo alla.

Alla aytsam ovungin,

Oppoq ko'zim, alla,

Beshigingda quvongin,

Jonim bolam, alla.

Allachilikning eng takomillashgan namunasi voqeaband allalar bo'lib, bunday allalar yagona syujetga bo'ysungan, hayotiy voqealarning biror lavhasi natijasida vujudga kelgan kayfiyatlar tasvirini beradi.

Voqeabandlik xususiyatlarini yumoristik allalarda, shuningdek, yig'i allalarida ham ko'rish mumkin:

Past-pastgina tepadan

Toydim tushdim-o, alla,

Qo'limga qaychi olib-o,

Senga qo'zichoq'im-o,

Chopon bichdim-o, alla.

Parokanda allalar o'zbek onalari allasida ko'p uchraydi. Ularning muhim xususiyati-yagona syujet asosida qurilmaganligi. Har

bir parokanda band o'zicha mustaqil tugal mazmunga ega. Lekin bunday mustaqillik faqat tashqi belgi, chunki mazmun mantiqi, baribir bolaga qartilganligi bandlarni yagona bir ipga tizadi, buni vazn, qofiya, radif va hatto naqarot kabi badiiy-tasviriy komponentlar kuchaytiradi:

Saharlar o'yg'onarman,
Turib sanga suyararman.
Suyanganim san o'zing...
Rahm qil manga, qo'zim,
Alla-yo alla.

Bola uchun allaning so'zi emas, kuyi yoqimli. Chunki u hali so'z anglamaydi. Alladagi so'zlar esa ona uchun muhim, ular ona qalbining nidolari. Alla qo'shiqlarining bir ko'rinishi heyalar bo'lib, uni asosan erkaklar kuylashadi. Shu sababli heyalar erkaklar allasi deyishadi. Heyalar chorvachilik bilan bilan shug'ullanuvchi o'zbeklar orasida keng tarqalgan. Zotan ayollar uy-ro'zg'or yumushlari bilan band bo'lganda bolani ovutish, uxlatish erkaklar zimmasiga tushgan. Shunday kezlarda otalar yoki bobolar bolani tizzalariga olib, tebratish muvozanatiga mos ohangda heya aytib uxlatganlar, ovutganlar:

Heya, bolam, heyang qani?
Buvang bergan tuyang qani?
Buvang bergan tuyang bo'lsa,
Boqib yurganlaring qani?
yoki: Bolam, senam botirim,
Chopib kelayotirim,
Cho'pon bo'lsang qo'ylarga,
Boqarsan o'tloq-soylarga,
Heya, bolam, heya.

O'zbek allalari xalq etnografiyasi va etnopedagogikasini o'rganishda qimmatli manba hisoblanadi. Ularda bolalik bilan bog'liq qator rasm-rusmlar ifoda etilgan.

OG'ZAKI DRAMA VA MASXARABOZLAR TEATRI¹

Masxaraboz, qiziqchi va qo'g'irchoqbozlar tomonidan yaratilgan ular ijrosida an'anaviy xalq teatri spektakllari sifatida avloddan-avlodga og'zaki ravishda o'tib kelgan dramatik asarlar og'zaki badiiy ijodning maxsus turini tashkil etadi. G'oyaviy mavzu jihatdan satirik

¹ H. Razzoqov va boshq. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. «O'qituvchi» -T.: 1980.

va yumoristik yoʻnalishda boʻlishi, tuzilishi jihatdan diolog va monologlarga boʻlinishi, sahnada oʻynash uchun moʻljallanganligi ogʻzaki dramaning asosiy xususiyatlaridir. Ogʻzaki dramalar anʻanaviy xalq teatrining asosiy repertuari hisoblanadi, qiziqchi va masxarabozlar esa bu teatrning ijrochi va ijodkor aktyorlaridir.

QIZIQCHI VA MASXARABOZLAR TEATRI

Ogʻzaki dramalar qiziqchi va masxarabozlar tomonidan anʻanaviy xalq teatrida ijro etiladi. Xalq teatri sinkretik xarakterga ega boʻlib, badiiy soʻz, qiyofa hamda harakat yordamida sahnaviy karakterlar va shu karakterlar toʻqnashuvida spektakl yaratishi bilan ajralib turadi. Xalq teatrining aktyorlari-qiziqchi va masxarabozlarning aksariyati turmush sharoiti taqozosi bilan sanʼatning bir necha turidan yaxshigina xabardor boʻlganlar. Chunonchi, nay-rangbozning dor ustida oʻynashi, dorbozning karnay-surnay chalishi, surnaychining qoʻgʻirchoq oʻynashi, qoʻgʻirchoqbozning yogʻochyoqda yurishi kabilar tabiiy hol boʻlgan. Shuningdek, yaxshii masxaraboz va qiziqchi hajviy sahnalarni ijro etish bilan bir qatorda soz chalar, oʻynar, hofizlik qilar, hikoya aytar, askiyaga qoʻshilar, koʻz bogʻlovchi boʻlar, umbaloq oshar, qoʻgʻirchoq oʻynatar edi. Ammo bunga qaramasdan har bir sanʼatkorning oʻzi tanlagan, sevgan va ixtisoslashgani natijada, uni xalqqa manzur qilgan sanʼati boʻlgan. Har bir sanʼatkor oʻzi tanlagan sohaga yaqin sanʼatlarnigina yaxshi bilgan. Masalan: darbozning maqomchi hofiz, maqomchi mashshoqning masxaraboz boʻlishi qiyin edi. Mashhur Yusufjon aka Shakarjonov (1869–1959) doira chalib, qoʻshiq aytishi, askiya payrovlariga ishtirok etishiga qaramay, qiziqchilik, masharabozlik, latifagoʻylikda shuhrat qozongan va «qiziqchi» kasbi laqabiga aylanib qolgan.

Xalq teatrida bosh ijodkor masxaraboz, qiziqchi va qoʻgʻirchoqbozdir. Ular ham yaratuvchilik, ham ijrochilik, ham tashkilotchilik vazifalarini bajaradi. «Qiziqchi», «Masxaraboz» terminlari har joyda har xil maʼnoda qoʻllanadi. Bu ikki termin orasida oʻzaro yaqinlik boʻlsa-da, ularning oʻziga xos maʼnolari bor. Nutqi, hajviy xatti-harakatlari bilan odamlarni kuldirib yuruvchi, oddiy, shoʻx va hazilkash kishilar koʻpincha qiziqchi deb yuritilgan. Odamlarni kuldirishni oʻziga hunar qilib olgan va maxsus kiyinib, yuzlarini boʻyab, sayl, toʻy-bazm, bayramlarda tomosha koʻrsatib yuruvchi kishilar, asosan, masxaraboz deb atalgan. Baʼzi joylarda har ikkalasi bir mazmunda ishlatilgan.

Masxarabozlik, qiziqchilik tushunchalari xalq teatridan tashqari san'atning raqs, pantomima, sirk, latifago'ylik kabi turlariga taalluqli bo'lgan hamda hajviy, taqlidiy shaklda ijro qilinadigan asarlar ham kiradi.

Masxaraboz va qiziqchilar orasida o'z san'atini puxta egallagan va uni xalqqa manzur qilgan mashhur ustalar bilan bir qatorda ushbu ishga onda-sonda aralashadigan havaskorlar ham bo'lgan. Shunisi xarakterliki, ularning har ikkisi ham, asosan dehqon, cho'pon va boshqa kasb-hunar egalari orasidan yetishib chiqqan kishilardir. Qo'qon qiziqchilaridan Zokir eshon— zargar, Mo'min qishloqi— dehqon, Abdulhasan— tikuvchi, Usmon qiziqchi— etikdo'z, Qashqadaryo vohasining mashhur masxarabozlaridan Mizrob va uning shogirdlari—cho'pon, Halim tayyor—attorlik qilgan. Buxorolik To'la masxara va uning o'g'li Gadoy masxara dehqonchilik bilan shug'ullangan.

Qishloqda yashovchi qiziqchi va masxarabozlar esa mashshoq, o'yinchi, hofizlari bilan birga «dasta», «to'da», «to'p» deyilardi. Ularning tashkilotchilari «korfarmon» deb atalgan. Korfarmon xalq teatrida rejissyorlik vazifasini bajargan.

O'zbek xalqi orasida an'anaviy xotin-qizlar teatri va uning o'ziga xos dramaturgiyasi ham bo'lgan. Samarqandda «Jodu olish», «Ona va qizning to'yga borishi», «Zambur», Toshkentda «Bug'doy sotuvchi savdogarlar», «Ota o'limi», «Cholning uylanishi», Farg'ona vodiysida «Qaynona va kelin», «Kundoshlar» kabi komediyalar mahorat bilan ijro etilgan. Xotin-qizlar teatrida ijrochilar ham, ijodkorlar ham xotin-qizlardir. Xotin-qizlar teatrida erkaklar rovida xotin-qizlarning chiqishi, erlar teatrida xotin-qizlar rovida erkaklarning chiqishi odat bo'lib qolgan edi. Chunki erkaklar bilan xotin-qizlarni birgalikda tomosha ko'rsatishi, ko'ngil ochishlari u yoqda tursin, hatto, bir uyda yuzma-yuz o'tirishi ham taqiqlanar edi. Xotin-qizlar tomoshalarni ko'pincha uy ichida, erkaklar ko'zidan panada, bog', sayilgoh va boshqa joylarda ko'rsatganlar. Har bir tomosha oldidan sarkarda rahbarligida biror xonada yoki pana joyda qisqa mashq o'tkazilgan. O'yinga mos kiyim-kechak tayyorlangan, grim qilingan.

Og'zaki dramalarda ijtimoiy va axloqiy masalalar aks ettirilgan. Zolim va o'zboshimcha amaldorlar, ko'zbo'yamachi va munofiq kishilar fosh qilingan. Sof muhabbat, beg'araz do'stlik, yorug' dunyo, erkinlik ulug'langan.

OG'ZAKI DRAMATURGIYA

Xalq teatri og'zaki dramaturgiyasida dramatik harakat, sahnaviy o'yin matn bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularni birini ikkinchisiz tasavvur qilish qiyin.

Xalq teatrida qishloq ko'chasi, shahar bozori, hovli yuzasi, gulxan atrofi, uy ichi «sahna» bo'lsa, tabiat manzarasi; dala, daraxtzor, sahro, oy, yulduzlar bu «sahna»ning bezaklari vazifasini bajargan. Xalq dramasi mana shu «sahna»da, to'rt tomondan joy olgan tomoshabin davrasida o'ynalishi ijrochilardan ma'lum uslub va tasviriy vositalar, badiiy mahorat talab qilgan. Bunda hamma narsa-dialog, ishora, harakat, kostyum, grim, dekoratsiya aniq va yorqin bo'lmog'i kerak.

O'zbek xalq og'zaki dramasi hayotiy voqealarning ayrim tomonlarini satirik yumoristik shaklda aks ettiradi. Undagi asarlar hajmi turlicha bo'lgan komediyalardir. Ular asosan nasr shakliga ega. Ba'zan she'riy shaklda ham uchraydigan. 1922-yilda G'ulom Zafariy tomonidan yozib olingan og'zaki komediyalar bunga misol bo'la oladi.

QO'G'IRCHOQ TEATRI

Qo'g'irchoqbozlik eng qadimgi davrdan boshlab xalq orasida keng tarqalgan dramatik shakl bo'lib, unda turli timsollardagi yog'och o'yinchoqlar, uni o'ynatuvchi va o'rgatuvchi, o'yin boshlovchi korfarmonlar ishtirok etadi. Qo'g'irchoq o'yin garchi malakali qo'g'irchoqbozlar tomonidan ijro etilsada, u asosan bolalar, o'smir yoshlar orasida namoyish etiladi.

Hozirgi kungacha yetib kelgan «Kachal polvon», «Sarkardalar», «Tegirmonchining uylanishi» kabi qo'g'irchoq o'yinlardir. Keksa qo'g'irchoqbozlarning aytishicha, qo'g'irchoq o'yinini tashkil etish ancha qiyin va murakkab bo'lib, ko'p mehnat talab qiladi. Har bir tomoshaning qiziqarli chiqishi qo'g'irchoqbozlarning mahoratiga bog'liq bo'ladi.

Keksa qo'g'irchoqbozlarning aytishicha, qo'g'irchoq o'yinini tashkil etish juda og'ir va chidamli mehnat talab qiladi. Bunda ular tayyor matnlardan foydalanmay, tomoshabinlarning didi va zavqiga qarab belgilaganlar. Tomoshaning muvaffaqiyatli chiqishi asosan korfarmon va qo'g'irchoq o'ynatuvchi kishilarning mahoratiga bog'liq bo'lgan.

Xullas, qo'g'irchoqbozlarning o'yinlarida hayot hodisalari, ki-

shilarning o'zaro munosabatlari yog'och qo'g'irchoqlar timsoli orqali korfarmon tashabbusi aks bilan etadi.

Shunday qilib, o'zbek xalq og'zaki dramasi g'oyaviy, mavzu jihatdan xilma-xil, badiiy jihatdan pishiq asarlardir.

AFSONA VA RIVOYATLAR¹

Kichik hajmli, mazmunan sodda bayon va hikoyalar shaklida tashkil topgan afsonalar o'zbek xalq og'zaki ijodining eng qadimgi namunalaridan hisoblanadi. Afsonalar ijtimoiy hayot bilan bog'liq bo'lgan voqea va hodisalarni xayoliy shaklda hikoya qiladi. Ular insoniyatning tabiat va jamiyat haqida bilish va tushunishga bo'lgan intilishi jarayonida vujudga kelgan, shuning uchun ham afsonalar ijtimoiy hayot va madaniyat, dunyoqarash va ruhiy kechinmalar, urf-odat va tarixiy hodisalardan darak beradi.

Afsona forscha so'z bo'lib, fantastika, sehr-jodu hamda hayotiy uydurmalar asos bo'lgan nasriy hikoyalar demakdir. Aristotel ta'biri bilan aytganda, afsonalar haqiqatdan darak beruvchi yolg'on hikoyalardir. Afsonalar ko'proq diniy hodisa yoki voqealarni to'qiydigan afsonalarga bo'linadi. Bu xildagi afsonalar Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida sash so'zi orqali ifodalangan bo'lib, juda keng ma'noni bildiradi. Bu so'z devonda hikoya hamda qissa deb izohlangan. Mahmud Koshg'ariy hikoya bilan qissani «o'tmish voqealardan xabar beruvchi», deb ta'riflaydi va o'z fikrlarini rivojlantirib: «hikoyalarda faqat o'tganlar haqida aytilish shartmas», deb uqtiradi. Haqiqatdan ham o'tgan voqealar haqida hikoya qiluvchi og'zaki qissalar xayoliy uydirmadan tashkil topgan voqealarni ham chetlab o'tmasligi shubhasizdir. Hikoyaning bu xil formasining bu xil formasida sehr-jodu, fantastik element hamda hayotiy uydirmalarning bo'lishi o'z-o'zidan ma'lum. Demak, sash faktik voqea ham, xayolan to'qilgan hodisalarni hikoya qiladi. Shunday ekan, bu so'z shakl va mazmun e'tibori bilan turlicha bo'lgan ikki xil hikoyani ifodalaydi. Birinchi-uzoq o'tmish voqealarini faqat hayotiy uydirmalar asosida talqin etuvchi hikoyalar, ikkinchi — muayyan tarixiy voqealar yoki xayolan to'qilgan hodisalarni sehr-jodu, fantastik uydirmalar qobig'ida talqin etuvchi hikoyalar.

Shuni aytish kerakki, birinchi tur hikoyalar o'zining shakl va mazmuniga ko'ra rivoyatlarni, ikkinchisi esa ko'proq afsonalarni eslatadi.

¹ N.Razzoqov. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. «O'qituvchi» —T.: 1980.

Afsonalarni tematik jihatdan uch xil turga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq. Birinchi — xayoliy voqea va xayoliy qahramonlar haqida hikoya qiluvchi afsonalar ikkinchisi - tarixiy voqea va tarixiy shaxslar haqida hikoya qiluvchi afsonalar, uchinchi jangnoma tipidagi afsonalar yoki qahramonlik afsonalari.

Xayoliy voqea va xayoliy qahramonlar haqida hikoya qiluvchi afsonalar ibtidoiy dunyoqarash, u yoki bu kuchni muqaddas bilib, unga sig'inish, e'tiqod qo'yish hamda sevgi-sadoqat kabi kechinmalar ta'sirida paydo bo'lgan «Devqal'a», «Shirin qiz», «Kalta minor», «Ilon buzgan» singari to'qima afsonalar mazkur turkumga o'zidir. Bu afsonalar O'rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan. Ular insonlarning beqiyos kuchi va go'zalligini madh etadi. Bu afsonalar fantastik uydirmalar zaminida naql etilgan bo'lib, syujeti ko'proq xayoliy epizodlardan tashkil topadi va ma'lum bir tarixiy joylar, tepaliklar, qal'alar bilan bog'liq ravishda hikoya qilinadi. Qoraqum sahrosida «Yorbaqir», «Shirvon», «Shmaxa», «Halaf» nomi bilan mashhur bo'lgan qal'alarning xarobalari mavjud bo'lib, ular «Shohsanam va G'arib» afsonasi, «Devqal'a» esa Sharqda mashhur bo'lgan «Farhod va Shirin» afsonasi bilan bog'lanadi.

«Devqal'a» afsonasida mifologik tasavvurlarning izlari saqlanganligi uning juda qadim zamonlarda yaratilganligini ko'rsatadi. Biroq u bizgacha muayyan o'zgarishlar bilan yetib kelgan. Shuning uchun ham Devqal'aning qurilish sababi sof sevgi-muhabbat, yaxshilik va yomonlik haqidagi tushunchalar bilan bog'liq holda vafodorlikning ramziy ifodasi sifatida hikoya qilingan.

Ko'ramizki, afsonani tashkil etgan voqea va hodisalar tizmasi haqiqatdan darak berishga qaratilgan. Har bir hodisa hamda bosh qahramon talqinida epik ruh hukmron. Bunda fantastik uydirma syujet asosini tashkil etib, voqealar tizmasini o'zaro bog'lash, harakatlantirish, ayni chog'da badiiy bezak vazifasini bajaradi, asar yechimida esa hal qiluvchi rol o'ynab, ta'sirchanlikni oshiradi. Xalq Farhod siymosida yaxshilik, mislsiz kuch-quvvat va ijodiy mehnatning umumlashma obrazini yaratgan. Jodugar esa ibtidoiy yalmog'izning hayotiy varianti, ayni paytda yovuz kuchning xayoliy obrazidir. Demak, afsona mardlik va qahramonlik, kuch va qudrat, vafodorlikning ajoyib ifodasidir.

«Shirin qiz» afsonasi kosmogonik mif bilan bog'liq bo'lib, xalq orasida keng yoyilgan. Bu afsonada Shirin go'zallik timsoli sifatida talqin etilgan bo'lib, iffatli ayollarga xos axloq namunasi o'z ifodasini topgan. Biroq ana shu ma'naviy go'zallik ibtidoiy dunyoqarash, mif yo'sinida berilgan. U oy haqidagi sodda tushunchani hikoya qiladi.

Ko'ramizki, afsona syujeti hamda qahramonlar talqinida ertaklarga xos xususiyat mavjud bo'lib, fantastik uydirmalar voqealar tizmasini harakatlantiradi, konflikt yechimida hal qiluvchi rol o'ynab, mardlik va go'zallik va nafislik, nazokatni tasdiqlaydi, ta'sirchanlikni oshiradi.

Afsonada chiqarilgan xulosa muayyan fakt misolida tasdiqlanadi. «Nima uchun oyda dog' bor?», «Nima uchun u osmonda?» degan ibtidoiy savollarga javob beriladi.

Islom dini bilan bog'liq bo'lgan afsonalar ham ana shu guruhga mansub. Bu xil afsonalar dinga aloqador g'ayri tabiiy, g'ayri muqarrariy voqea-hodisalar haqida hikoya qiladi. Shuning uchun ham unda diniy tushunchalarni targ'ib qilish xususiyati va pand-nasihat asosiy o'rinni egallaydi. «Hazrat Ali», «G'o'rqt ota», «Yusuf qis-sasi» kabilar shunday afsonalardir.

«Baroqtom», «Shohsanam va G'arib», «Hazorasp», «Iskandar» va «Afrosiyob» kabi afsonalar tarixiy joy va tarixiy shaxslar bilan bog'langan. Ularda voqelik fantastik yo'nalishda hikoya qilinadi. Bu xildagi afsonalar ko'proq muayyan hodisa, qabila va elat, geografik joy-qal'a, maqbara, qo'rg'on, saroy, minora, daryo, dengiz, shaharlar bilan bog'liq bo'lib, ularning yuzaga kelishi va hayron bo'lish sabablari, u yoki bu nomning paydo bo'lishi tarixidan xabar beradi. Shu jihatdan «Hazorasp»ning afsonasi xarakterlidir.

Rivoyatlar hayotiy voqealarni hayotiy uydirmalar vositasida aks ettiruvchi og'zaki ijod janrlaridan biridir. Rivoyatlarda tarixiy voqealar va ayrim shaxslar bilan bog'liq bo'lgan voqealar, kishilar turmushi, geografik joylar, sahro, ko'l, dengiz, shahar qishloq, qal'a, saroy va boshqalarning barpo bo'lishi va vayron bo'lishi hikoya qilinadi. Rivoyatlar u yoki bu voqea haqida xabar berishi va uni tasdiqlash vazifasini o'taydi. Rivoyatlar mavzusiga ko'ra tarixiy va joy nomlari bilan bog'liq rivoyatlarga bo'linadi.

Rivoyatlarda aytishlaricha, bir joyda ming uchar otni tutib olish uchun ularning doim kelib suv ichadigan bulog'iga behush qiladigan dori solib qo'yadilar. Shu hiyla bilan uchib kelgan otlarni tutadilar, qanotlarini qirqadilar va ularni inson mehnatiga majbur etadilar. Shu-shu o'sha joyning nomini Hazorasp (Ming ot) deb yuritganlar.

Bayon shaklida yetib kelgan bu afsona mazkur nomning yuzaga kelish sababidan darak beradi. Har ikki afsonada ham isbotlovchi faktlar ishonchlik manba emas, uydirmadan iborat. Shuning uchun ham toponimik xarakterdagi afsonalarga doimo ishonib bo'lmaydi. Ular faqat masalaning u yoki bu belgisi, detalinigina aniqlashi

mumkin. Shunga qaramasdan, «Baroqtom» va «Hazorasp» afsonalari qabila osoyishtaligi, erkin va ozod hayot haqidagi orzularni ifoda etgan.

Tarixiy janglar haqida yoki uning ta'sirida yaratilgan «To'maris», «Shiroq», «Zariadr va Odatida», «Guldursun» kabi afsonalar qahramonlik yoki jangnoma tipidagi afsonalardir.

Qahramonlik afsonalarini faktlar va tarixiy voqealar asosida yuzaga kelgan deyish mumkin. Lekin ular muayyan tarixiylikni to'g'ri va aniq aks ettira olmaydi. Hatto haqiqatga zid bo'lgan axborotni talqin etgan bo'lishi mumkin. Chunki har bir hikoya qadimiy inson dunyoqarashi, sodda, ibtidoiy tushuncha va bilimining xulosasi sifatida maydonga kelgan. Shunday ekan, ularda real voqealar bilan bog'liq bo'lgan elementlardagina saqlangan.

«To'maris» afsonasida tasvirlangan massagetlar qabilasi va bu qabilaning eron bosqichlariga qarshi olib borgan kurashlari tarixiy fakt. Umuman, har bir afsona o'zi tashkil topgan manbadan qanchalik uzoqlashsa, o'sha voqelikni aks ettirish xususiyati shunchalik xiralashadi, oxir oqibat tarixiylik izi yo'qolib ketadi. Natijada, u faqat estetik funksiyani ado etuvchi badiiy asarga aylanib qoladi.

Uch xil turdagi afsonalarning har biri o'ziga xos ko'rinishga, badiiy tasvir vositalari, timsollar tizimiga ega. Ular turli xil tushuncha, bilim, e'tiqodini tasdiqlash uchun xizmat qiladi. Birinchi va ikkinchi turkum afsonalar hikoya qilish uslubiga ko'ra ko'proq sehrli ertaklarga yaqin turadi. Chunki ularda ko'pincha xayoliy obrazlar ishtirok etadi va ular ertaklarga xos jihatlarni yaratib, umumiylikni ifodalaydi, ayni paytda u yoki bu voqealarning fakt ekanidan darak berishga, uni tasdiqlashga harakat qiladi. Jangnoma tipidagi afsonalar esa qahramonlik dostonlariga yaqin turadi. Biroq ular ertak va doston singari shakli qat'iy emas, unda umumfolklor asarlariga xos badiiy tasvir vositalari aralash holda kela beradi.

RIVOYATLAR

Rivoyatlar hayotiy voqealarni hayotiy uydirmalar vositasida aks ettiruvchi og'zaki ijod janrlaridan biridir. Rivoyatlarda tarixiy voqealar va ayrim shaxslar bilan bog'liq bo'lgan voqealar, kishilar turmushi, geografik joylar: sahro, ko'l, dengiz, shahar, qishloq qal'a. Saroy va boshqalarning barpo bo'lishi va vayron bo'lishi hikoya qilinadi. Rivoyatlar u yoki bu voqea haqida xabar berishi va uni tasdiqlash vazifasini o'taydi. Rivoyatlar mavzusiga ko'ra tarixiy

va joy nomlari bilan bog'liq rivoyatlarga bo'linadi. Rivoyatlarda lutf va nazokat, aql va tadbir, ishq va vafo, yaxshilik va odamiylik kabi ilg'or g'oyalari jamiyatda uchragan zulm va zo'rlik, haqsizlik va adovat singari illatlarga qarshi qo'yiladi.

Rivoyatlarni ikki turkumga bo'lish mumkin. Biri muayyan voqea va tarixiy shaxslar bilan bog'liq bo'lgan rivoyatlar. Tarixiy rivoyatlar biror shaxs faoliyati va xalq qahramonlari bilan bog'liq bo'lgan hodisalarni hikoya qiladi, axloq va odobning ideal normalarini tashviq etib, muayyan faktlar haqida axborot beradi. Alisher Navoiy, Ulug'bek, Ibn Sino, Beruniy, Mashrab kabi olim va shoirlar, Amir Temur, Sulton Mahmud singari tarixiy shaxslar haqida yaratilgan rivoyatlar shular jumlasidandir.

Rivoyatlar ixcham, puxta syujetli, ikki-uch epizoddan tashkil topgan bo'ladi. Ammo o'zgarimas, qat'iy kompozitsiyaga ega emas. Hikoya qilingan voqealar go'yo tugallanmagandek, davomi bordek seziladi. Shuning uchun ham rivoyat katta asardan o'zib olingan bir lavha singari tuyuladi.

Rivoyatlarni u yoki bu tarixiy shaxs yoki tarixiy hodisalar guvohi bo'lganlarning, ko'rgan bilganlarning esdaliklari asosida yuzaga kelgan deyish mumkin. Bunday hodisa rivoyat janrining o'ziga xos xususiyatini belgilaydi. Ba'zi rivoyatlarda faktik voqealardan asar ham qolmay, faqat shaxs nomi yoki uni biror belgisigina saqlanib qolishi ham mumkin.

Navoiy bilan bog'liq bo'lgan bir rivoyatda Husayn Mirzo shipga qarab yotib, vazirlariga «olib keling» debdi. Saroyda Alisher Navoiy shu kuni yo'q ekan. Vazirlar nimani olib kelishni bilmabdilar. Oxiri ular Navoiyni topib, bo'lgan voqeani aytdilar. Navoiy ularga shoh oldiga arra, tasha bilan usta olib kiringlar, deydi. Shunda Husayn ustaga qarab «mana bu toqini tuzat!», —debdi. Ko'ramizki, bu xalq orasida qadimdan mashhur bo'lgan ertak syujetidir. «Erksiz folchi», «Ayozi» nomli ertaklar ham ana shu syujet asosida ko'rilgan. Mazkur syujet vazir Alisher Navoiyning donishmandligini, uning tadbirkorligini hikoya qilish uchun zaruriy vosita bo'lgan. Demak, qahramonlar tarixiy shaxs, ularning munosabati faktik hodisalarga mos, asar voqealari esa to'qimadir. Ma'lum bo'ladiki, ertak yoki latifaga xos bo'lgan an'anaviy syujet yoki motivlar tarixiy faktlarga monelik qilmaydi, aksincha, uni to'ldirib, bo'rttirib, muhim bo'lib belgilarni yorqin chizish, ularga aniqlik kiritish, tashviq qilish uchun xizmat etadi. «Oltin uzuk», «Ibn Sino bilan kasal yigit», «Mir Alisher bilan Sulton Husayn», «Navoiy bilan cho'pon» va boshqa rivoyatlar bunga misol bo'la oladi.

Beruniy Ulug'bek, Jomiy, Navoiy nomlari bilan bog'liq rivoyatlarda mazkur tarixiy shaxslar xalq orzusidagi, idealidagi donishmand kishilar obrazidir. Ularga qarshi qo'yilgan tomonlar esa adolatsiz kishilar, zolimlar sifatida qoralanadi. Demak, hayotda mavjud bo'lgan o'xshash xarakter, belgi, xususiyatlar ana shu obrazlar atrofida jamlanib, umumlashtirilgan.

Toponomik rivoyatlarda joy nomlarining kelib chiqishi bilan bog'liq hikoyalar ifodalanadi. Masalan: Andijon nomini kelib chiqishi haqidagi rivoyat, Toshkent nomi bilan bog'liq rivoyat. Rivoyatlar xalq tarixi. Uning estetik qarashlarini o'rganishda zarur bo'lgan og'zaki ijod janridir.

O'ZBEK XALQ ERTAKLARI¹

Ertaklar xalq og'zaki ijodiyotining eng qadimiy, ommaviy va keng tarqalgan janrlaridan biridir. Ertaklarda xalqning eng yaxshi sifatleri, insonparvarlik, vatanparvarlik, do'stga sadoqat, jasorat ko'rsatish kabi fazilatlar hikoya qilinadi.

Ertaklar kishilarda hayotga muhabbat uyg'otadi. Kelajakka umid ko'zi bilan qarashga eng yaxshi turmush, farovon hayot uchun kurashga chaqiradi. Yer yuzida adolat va insofning tantana qilishiga chaqiradi.

Ertaklar qadimdan bor va uni shakli juda puxta ishlangan. Undan hozirgi vaqtgacha xalq pedagogikasi tomonidan foydalanib kelinmoqda.

«Ertak»- termini Mahmud Koshg'ariyning XI asrda yozilgan «Devonu lug'otit turk» asarida «etuk» shaklida uchraydi va biror voqeani og'zaki tarzda hikoya qilish ma'nosini bildiradi. Hozir folklorshunoslik atamasi sifatida «ertak» so'zi qabul etilgan bo'lsada, Surxondaryo, Samarqand, Farg'ona o'zbeklari orasida matal deb yuritiladi. Buxoro atrofidagi tuman – qishloqlarda, shuningdek, boshqa yerlardagi ikki tilda (o'zbek va tojik tillarida) so'zlashuvchi aholi orasida ushuk deb ataladi. Xorazmda varsaqi, Toshkent shahri va uning atrofida cho'pchak termini ham ishlatiladi. O'zbeklar orasida ertak, matal, cho'pchak terminlaridan boshqa yana hikoya, afsona, o'tirik, tural kabi atamalar uchraydi.

Ertaklar xalq ijodining epik turiga kiradi. Uning o'ziga xos xususiyati – voqeabandligi biror voqealar mukammal hikoya tarzida bayon qilishidir. Ertaklar turmush voqeligini ajoyib va

¹ G' Jalolov. O'zbek xalq ertaklari poetikasi «Fan». –T.: 1976.

g'aroyib, jozibali qilib, kishilarda badiiy zavq uyg'otadigan holda aks ettiradi. Ertak—folklor asari. Shuning uchun ham xalq og'zaki ijodiga xos barcha sifatlari: jamoaning ijodiy mahsuli bo'lib, ko'pchilik tomonidan aytilishi, og'zaki yo'l bilan tarqalishi, an'anaviylik, ijodchisining noma'lumligi-anonimlik, bir syujetning xalq orasida bir qancha variantlarda ijro etilishi — ertaklarga ham xosdir.

Fantastika ertak mezoni, uning joni va qonidir. Ertaklar fantastikaning tutgan o'rni, me'yoriy va funksiyasiga qarab ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga fantastika elementlari ustun bo'lgan ertaklar, ikkinchisiga esa fantastika elementlar kuchsiz, element shaklida keladigan, hayotiy uydirmalar asosida ertaklar kiradi. Hayvonlarga haqidagi ertaklar bilan ertaklar syujeti ko'proq fantastik voqealar asosiga qurilgan. Maishiy va hajviy ertaklar syujeti asosida esa hayotiy voqealar yotadi. Birinchi guruhdagi ertaklar («Yoriltosh», «Cho'ltoq bo'ri», «Oltin sandiq» va boshqalar) tom ma'noda ibtidoiy tushunchalar mazmunini aks ettiradi. Ikkinchi guruhdagi ertaklar («Malikai husnobod», «Uch og'ayni botirlar», «Uch yolg'onda qirq yolg'on») esa, asosan, ijtimoiy mazmuni ifoda etadi.

Ertaklarda voqealar asosan mo'jizali tarzda ifodalanadi. Bino-barin, mo'jiza yoki fantaziya voqea va hodisalarni hayot bilan bog'lab, haqiqat, ozodlik to'g'rilik, odamiylik kabi didaktik g'oyalarni tashviq etadi, syujet rivojiga kuch bag'ishlaydi, tinglovchi e'tiborini o'ziga jalb qilib, ajoyibotlar olamiga olib kiradi, shirin tuyg'ular dunyosiga g'arq etadi.

Har bir ertakning syujet g'oyasi, uning g'oyaviy mazmuni, badiiy vositalarning o'ziga xos tomonlari u yoki bu davrni hamda u yoki bu turga xos xususiyatni ko'rsatib turadi.

Turli xalqlar ijodida o'xshash syujetli ertaklarni ko'p uchratish mumkin. Bunday ertaklarning mavzu va obrazlar sistemasi o'ziga xos aynanlikka ega. Bularni ko'proq «sayyor syujetli ertaklar» deb yuritiladi. Biroq ular qanchalik o'xshash bo'lmasin badiiy shakl, obrazlar talqini til vositalari jihatidan o'zaro farq qiladi. Ularda har bir xalqqa xos an'ana, milliy kolorit, falsafiy estetik qarashlar namoyon bo'ladi. Bu xildagi o'xshash syujetlar u yoki bu xalqning bir xildagi iqtisodiy, ijtimoiy tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tganligidan kelib chiqadi.

Ertaklar o'ziga xos kompozitsiyasi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, kirish qism, boshlama, tugallamalar alohida ko'zga tashlanadi.

Kirish qismi, avvalo, ertakchining mahoratini ko'rsatadi, qola-

versa, tinglovchilar diqqatini jamlab, ertak eshritishga hozirlaydi.

O'zbek xalq ertakchilari repertuaridagi hayvonlar haqidagi ertaklar anchagina o'rinni tashkil etadi. Hayvonlar haqidagi ertaklar qadim zamonlarda vujudga kelgan bo'lib, unda ibtidoiy tuzum davridagi insonning hayoti, mehnati, dunyoqarashi, tabiat haqidagi tushunchalari ifodalangan. Hayvon bilan bog'liq bo'lgan ibtidoiy tushuncha, fikr va mulohazalar, hayotiy detallar hayvonlar haqida yuzaga kelgan ertak syujeti va motivlarning tashkil topishida asos bo'lib xizmat qilgan. Ijtimoiy hayotning ovchilikdan chorvachilikka o'tish jarayoni inson hayotida keskin burilish yasadi. Bu davrdagi insonlar hayvondan farq qila boshlashi mifologik tushunchalarning yemirilishiga sababchi bo'ladi. Inson o'ziga ishonchni va hayvonlardan kuchli ekanligini sezdi. Ana shu jarayon ishonch tushunchasi vujudga keldi. Totem sanalib kelingan hayvonlar sekin-asta salbiy personajga aylana bordi, odam uchun ko'proq foyda keltirgan uy hayvonlari ijobiy, yovvoyi hayvonlar esa salbiy personajga aylandi.

Hayvonlar haqidagi ertaklarda ibtidoiy animistik, totemistik tushunchalar bilan bog'liq ravishda, ot, qo'y, echki, sigir kabi uy hayvonlari, yo'lbars, ayiq, tulki singari yovvoyi hayvonlarning xarakter xususiyati, ularning o'zaro va odamlar bilan bo'lgan munosabati hikoya qilinadi.

Laylak, ayiq, ilon, sigir kulti va bo'ri, otni totem sanash O'rta Osiyo xalqlari jumladan, o'zbeklar orasida keng tarqalgan. Bu totem kultlarning sig'inish «Cho'loq bo'ri», «Mehrigiyo», «Oltin tarvuz», «Nodon bola», «Podachining qizi», «Ko'k qo'chqor», «Ayiq polvon», «Ilon pari», «Ilon og'a», «Bo'ri qiz» kabi bir qancha ertaklarning yuzaga kelishiga sababchi bo'lgan. Hayvonlar haqidagi ertaklarning personajlari -- tulki, bo'ri, sher va boshqalar qadimiy tasavvurning unutila boshlashi bilan jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichlarida majoziy ma'no kasb eta boshladi. Majoziy ertaklar hayvonlar haqidagi ertaklar zaminida vujudga kelib, tanqidiy vazifaga bo'ysundirildi. Bir vaqtlar totem sanalgan hayvonlar ijtimoiy-siyosiy aks ettirgan ko'chma ma'nodagi personajlarga aylanaadi. Bunday ertaklarning g'oyaviy mazmuni va timsollar talqinida majoz asosiy o'rinda turadi. «Bo'ri bilan tulki», «Tulking taqsimoti», «Ikki boyqush», kabilar majoz asosida qurilgan ertaklar hisoblanadi. Ba'zi hayvonlar haqidagi ertaklar masalnamo shaklda keladi. Bunday ertaklar ko'pincha dialog asosida qurilgan bo'lib, mazmuni shartli, timsollari majoziydir. Ertak yakunida qissadan hissa chiqadi.

SEHRLI ERTAKLAR

O'zbek xalq ertaklari o'rtasida sehrlı ertaklar katta o'rin egalaydi. Bu xildagi ertaklar sehrlı, fantastik uydirmalar asosida qurilganligi bilan ajralib turadi. Sehrlı ertaklarning yuzaga kelishi qadimiy tarixga ega bo'lib, ildizi ibtidoiy jamiyatga borib yetadi. Ma'lumki, ibtidoiy odam tabiat hodisalari oldida talvasaga tushib, uning ruhiyatiga ta'sir ko'rsatgan. Ana shular dunyo haqidagi yuzaki mulohaza yuritishga va g'ayri tabiiy bo'lib ko'ringan hodisalarni o'zicha izohlashga majbur qilgan. Ibtidoiy dunyo qarash, dastlabki fikr-mulohazalar, kichik-kichik afsonalar va ertaklar, fantastik uydirmalarning yaratilishiga sabab bo'lgan.

Sehrlı ertaklarda personajlar, voqea hodisalar, odatdan tashqari, g'ayri tabiiy holda tasvirlanadi. Bu kabi ertaklarning har bir epizodi qahramonlarning xatti-harakatlari sehr, jodu, mo'jiza, xayoliy timsollar bog'lanadi. «Semurg'», «Ilon pari», «Kenja botir», kabi ertaklar zaminida ibtidoiy dunyo qarash-tabiat kuchlarini ilohiylashtirish, hayvonlarni muqaddas bilib, ularga topinish asosiy o'rin tutadi. Jumladan, quyosh, oy, tog', tosh, suv kabilar talqinida animistik dunyoqarash yotadi. Bunda jonsiz narsalar jonlantiriladi: yer, suv, tosh, tog'lar tilga kiradi, qahramonlar bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Inson toshga aylanadi, sehr yechilganda esa yana asl holiga qaytadi. Ayiq, bo'ri, burgut, ilon, otda kult, totemistik, ajdar, dev, alvasti, jin kabi personajlar misolida mifologik tushunchalarning belgilari saqlanib qolgan. Shuning uchun ham ertakda hikoya qilingan voqealar hozirgi kun tinglovchisi va o'quvchisi tomonidan «yolg'on» deb qaraladi. Demak, ertaklardagi g'ayri muqarrariy hodisalar ibtidoiy hayot haqiqatidan kelib chiqqan. Bino-barin, ular hayotiy o'zakka ega bo'lgan uydirmalardir. Osmonda uchish orzusi «uchar gilam», «yog'och ot»larni, uzoqni ko'rish istagi esa oynai jahon»ni keltirib chiqardi. Ana shu uydirmalar ibtidoiy tushunchalar majmuigina bo'lib qolmay, balki ijodkor xalqning yaxshi tumush, erkin mehnat, yorqin kelajak haqidagi orzu-istaklarning ramziy ifodasi hamdir.

Sehrlı ertaklar ichida alohida ajralib turadigan turkum ertaklar mavjud. Bular qahramonlikni madh etuvchi, o'gaylik va kamsitilgan kishilar haqidagi ertaklar va «mitti polvon»lar haqidagi ertaklar.

Qahramonlik madh etiluvchi ertaklarda asosan qahramonlik madh etiladi. Qahramonning har bir harakati sinov motivi bilan bog'lanib ketadi. Qahramon ajdar, dev, behisob dushman qo'shini

bilan to'qnashadi. Uning yechimida mardlik va beqiyos kuch aniqlanadi va ulug'lanadi. Qahramonlik ertaklarining asosiy belgisi— pahlavon qudratini sinab ko'rish. Sinash musobaqa shaklida talqin etiladi. U asosan aka-ukalar yoki qahramon bilan dushman, raqiblar o'rtasida bo'lib o'tadi pahlavonning ruhiy kechinmaslari murakkab emas. U faqat kuch ishlatib g'alaba qilishni biladi ustomonlik qilish haqida fikr yuritmaydi.

«Pahlavon Rustam», «Qilich botir», «Olmos botir», «Bektemir botir» kabi ertaklarda ibtidoiy xalq ommasining qudratli kuch haqidagi orzulari o'z ifodasini topgan.

O'gaylik va kamsitilgan kishilar haqidagi ertaklar: «Yoriltosh», «Aqli qiz», «Guliqahqah», «Zumrad va Qimmat» singari ertaklar xalq hurmatiga sazovor bo'lgan ayollar haqidadir.

Sehrli ertaklardagi dev, yalmog'iz, pari, ajdar, semurg' kabi fantastik va mifologik timsollar tizimi mavjud. Bular ko'pincha salbiy xususiyatga ega parilar ertaklarda kaptar, it, ilon, kampir, kiyik kabi turli qiyofalarda ko'rinadilar. Afsonaviy Eram bog'i, Ko'hi qof tog'ida yashaydilar. Ularni dahshatli devlar qo'riqlaydi. U qahramon bilan to'qnashuvda qiyin shart, topshiriqlar qo'yadi.

Ertaklardagi Yalmog'iz timsoli mifologik timsoldir. Uning kelib chiqishi ayollar saltanati bilan bog'liq. U eng avval muqaddas momo kulti ta'sirida tashkil topgan. Ayollar saltanati yemirilib erkaklar hukmronligi o'rnatilgach, u salbiy timsolga aylangan. Shu-shu yalmog'iz ikki xil mazmunda: goh ijobiy, goh salbiy timsol sifatida namoyon bo'ladi. Jodugar, shum kampir, maston kabilar yalmog'izning har xil ko'rinishdagi varianti hisoblanadi va ertaklarda yalmog'iz ijobiy qahramonlarga qarshi qo'yiladi.

Sehrli ertaklardagi salbiy timsollardan yana biri-ajdardir. Ajdar ertaklarda ta'riflanishicha, katta gavdali ilon, og'zidan olov, tutun chiqaradigan maxluq. U suv yoki g'ordan chiqqanda hamma yoqni shamol, bo'ron bosadi. Ajdar insonning yovuz dushmani. U odam yeydi, mamlakatni vayron qiladi.

Sehrli ertaklardagi yana bir timsol afsonaviy qushlardan biri-Semurg'dir. Semurg' o'zbek mifologiyasi va ertaklarida qahramonning mehribon do'sti, himoyachisi, safardagi hamrohi, xaloskor qush timsoli. Semurg' timsoli «Rustam», «Kenja botir», «Qahramon» singari ertaklarda keng tasvirlanadi.

Sehrli ertaklarning qahramonlari ikki xil kuchga— ham afsonaviy, sehrli, yovuz kuchlarga qarshi kurashsa, ikkinchi tomondan nohaqlik, adolatsizlik, zulmga qarshi kurashadi. Bu ertaklar ming yillar mahsuli bo'lib, yillar davomida sayqal berilib kelindi.

HAYOTIY-MAISHIY ERTAKLAR

O'zbek xalq og'zaki ijodida hayotiy-maishiy ertaklar alohida o'rin tutadi. Ular real, hayotiy uydirmalar asosida qurilgan bo'lib, fantastika elementlari yordamchi motivlar shaklida namoyon bo'ladi. Hayotiy-maishiy ertaklar, sehrli ertaklar asosidagi an'analardan kelib chiqqan va ko'p jihatlardan ularga o'xshab ket-sada biroq ularda real hayot voqealari asosida qurilganligi bilan ajralib turadi. Bu tur ertaklarda bosh qahramon- inson, u hayotdagi hamma dushman to'dalarini-podshohlar, boylar, qozilar mulla-eshonlar, jallodlarni o'z kuchi bilan yengib chiqadi. Bu kabi ertak-larda ko'pincha adolatsizlik, tengsizlik, zulm va zo'rlik qoralanib, ezgulik va haqiqatning g'alabasi ulug'lanadi. «Uch og'a-ini botir-lar», «Tohir va Zuhra», «Xurshidoy», «Ayoz», «Zolim podsho» boshqalar shu turkumdagi ertaklarga kiradi.

Hayotiy-maishiy ertaklarni mavzu yo'nalishi va g'oyaviy maz-muniga ko'ra jangovarlik, ishqiy sarguzasht va topishmoqli ertak-larga bo'lish mumkin.

Jangovarlik ertaklarida asosiy mavzu elat va yurt mudofaasi hisoblanadi. Ularda ko'proq jangu jadallar bilan bog'liq bo'lgan vo-qea hodisalar o'rin oladi.

«Tohir va Zuhra», «Yozi bilan Zebo», «Bahrom bilan Guland-om» kabi dostonlarda ishq-muhabbat voqealari lirik yo'nalishda, nihoyat ta'sirchan tasvirlanadi.

Topishmoqli ertaklarda o'tkir zehn va donishmandlikni naql et-ish asosiy o'rin tutadi. Ularda davomli, sarguzasht voqealar hikoya qilinmaydi, syujet qisqa va sodda, topishmoq asosida ko'rilgan. Mazmun lo'nda ifodalanib, aqliy sinov yetakchi rol uynaydi. Epi-zodlar asosan dialoglardan tashkil topadi. «Ayoz», «Davlatli kelin», «Donishmand ayol» kabilar shunday ertaklar bo'lib, ularda hikoya qilingan dono, aqli, idrokli kishilar xalq orzusining timsoli sifatida namoyon bo'ladi.

Xullas, hayotiy-maishiy ertaklar, ilm-hunar, mehnat, do'stlik, qahramonlik, mehr-muhabbat, sadoqat-donishmandlikni targ'ib etadi, do'stni dushmandan ajratishga da'vat etadi.

HAJVIY ERTAKLAR

O'zbek xalq ertakchiligida hajviy ertaklar alohida o'rin tutadi. Ular xuddi hayotiy-maishiy ertaklardek, ijtimoiy hayotda real asoslar bo'lgan hayotiy uydurmalar zaminiga qurilgan bo'lib, o'tkir

satira va yumor asosiy xususiyatini belgilaydi. Ertaklarning syujet tuzilishi ixcham voqea va hodisalar lo'nda foydalanadi.

Hajviy ertaklarda satira ijtimoiy hayotdagi ziddiyatlarni, qarama-qarshiliklarni ochib tashlaydi, fosh etadi. Shuning uchun ham bu xildagi ertaklar ma'lum ma'noda kurashlar ifodasi va ma'naviy quroli hamdir.

Ijtimoiy hayotda hajvning roli katta. U insonni aql va zakovatni charxlab turuvchi kuchli va zabardast omildir. Bu kabi ertaklarda fantastik uydirmalar ham uchraydi. Ular yordamchi detal, ayni paytda badiiy vosita vazifasini bajaradi, satira va yumor, harakat va holat, aql va idrok esa hal qiluvchi shaklni ado etadi.

Satirik ertaklarda yoki hajviy ertaklar o'ziga xos kompozitsion qurilmaga ega. U mazmunan hayotiy qarama-qarshiliklarni o'zida aks etadi, bu kabi ertaklarda asosiy tugun tasodifiy tugiladi.

Mazkur ertakda garanglik — kulgu manbayi. U qahramonlarning o'ziga xos xususiyatlari — qo'rslik va qo'pollik, jaholat va johillik kabi yaramas odatlarning kulgu bo'lishiga sabab bo'ladi. Asarning yuqori cho'qqisi fosh etuvchi yechimi esa kulgili bo'lib, didaktiv mazmunini ifodalaydi.

Yumoristik ertaklarda dangasalik, o'jarlik, yalqovlik kabi axloqlik normaga zid odatlarga kishilardagi boshqa bir, qarama-qarshi bo'lgan sifatlar ishchanlik, oqillik, vafodorlik, odoblilikni qarshi qo'yish orqali kulguli holat paydo qilinadi.

O'zbek xalq ertaklarining har bir real voqealikka nisbatan o'ziga xos munosabatda bo'lishi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun ham fantastik uydirmalar, bo'lishi mumkin bo'lmagan voqea-hodisalar tasviri hayotni aks ettirishning ertakka xos poetik yo'li sifatida namoyon bo'lgan.

O'ZBEK XALQ MAQOLLARI¹

Til, falsafa va badiiy ijodning o'ziga xos hodisasi sifatida yuzaga kelgan xalq maqollari folklorning ixcham shakl, ammo teran mazmunga ega bo'lgan bir janridir. Sodaroq qilib izohlaganda, maqol xalqning ko'p asrlar mobaynida ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotda to'plagan tajribalari, kuzatishlari asosida yuzaga kelgan ixcham, chuqur mazmunga ega bo'lgan og'zaki ijod janrlaridan biridir. Maqol atamasi arabcha — «qavlun» — gapirmoq, aytmoq so'zidan olingan, u aytib yuriladigan ibora, ifodalar, asosan, maqol

¹ O'zbek xalq maqollari. —T.: 2003 y.

janrini hosil qiladi. Maqol har bir xalqning ogʻzaki ijodida uchraydigan janrdir. Maqola mantiqiy fikrlash namunasi boʻlib, unda odob, axloq qoidalarini birlashtirgan fikr mavjud. Maqollar taʼlim-tarbiyaviy jihatdan katta ahamiyatga ega, u kishilarni ogahlantiradi, maslahat beradi, tanqid qiladi, mehnatni ulugʻlaydi, hajv kulgu ostiga olinadi. Maqollar baʼzi jihatlar bilan matallarga oʻxshasada, ularning har birini oʻz oʻrni, xususiyatiga ega. «Sulaymon oʻldi, devlar qutildi», «Tosh qattiqmi bosh», «Koʻrgan bilan eshitgan bir emas» kabilar matallar hisoblanib, ushbu matallar juzʼiy belgini anglatib, nutqni taʼsirchanligini orttirsa, maqollar chuqur va keng maʼnoga, tugal fikrga egadir. Ijtimoiy hayotning hamma sohasi xalq maqollarida aks etgan. Maqol xalq ogʻzaki ijodining boshqa janrlaridan ajralib turadi. Masalan, doston, ertak, afsona va rivoyatlar, latifalar voqelikni hikoya tarzida aks ettirsa, maqollar xalqning ana shu voqelik haqidagi xulosalari, hukmlari orqali ifodalaydi.

Hajman ixcham boʻlgan maqolda bayoni dostonlarga jo boʻlgan voqealar mujassamlangan. Maqolda fikr aniq, tugal xulosa, loʻnda hukm tarzida ifodalanadi. Maqollar oʻz maʼnosida va koʻchma maʼnolarda qoʻllana oladi:

Oʻz maʼnosida qoʻllangan maqollar: «Yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda».

Koʻchma maʼnoda qoʻllangan maqollar: «Quruq qoshiq ogʻiz yirtar».

Faqat koʻchma maʼnoda qoʻllanuvchi maqollar: «Baliq boshidan chirydi».

Olimlarimiz xalq maqollarini quyidagicha tasniflaydilar:

1. Alfavit tartibi. Bunda mavjud maqollar toʻplamda alfavit tartibida jamlanadi.

2. Mavzu boʻyicha tasnif. Tasnifning bu turida esa toʻplangan maqollar muayyan mavzular boʻyicha guruhlariga ajratiladi.

3. Poetik tasnif. Maqollarning koʻpchiligi davlar oʻtishi bilan maʼnosi oʻzgarib boradi, ilgari oʻz maʼnosida qoʻllangan maqollar keyinchalik faqat koʻchma maʼnoda qoʻllanishi mumkin.

4. Tarixiy tasnif. Maqollar juda qadimiy va ayni paytda zamonaviy janr. Maqollar turli davrlarga mansubligi bilan ham bir-biridan farqlanadi. «Qum yigʻilib tosh boʻlmas, qul yigʻilib bosh boʻlmas», «Qul qutursa, quduqqa tuflar» — bu maqollar quldorlik davri maqollari, «Amirning oshidan faqirning mushti yaxshi», «Bekka yetguncha beling sinar» — kabi maqollar hozir koʻchma maʼnoda ishlatiladi.

5. Maqollarni tuzilishiga ko'ra tasnif etish. Bunda maqollar tarkibidagi mantiqiy markazlar miqdoriga qarab bir necha guruhlarga bo'linadi; ikki qismli maqollar— «Aytilmagan yerga yo'nilmagan tayoq», to'rt qismli maqollar:

Arg'umoqda yol yo'q deb,
Yo'lga tashlab ketmanglar.
Er yigitda mol yo'q deb,
Yovga tashlab ketmanglar.

Maqollarda sifatlash, o'xshatish kabi badiiy tasvir vositalari va omonim, antonim so'zlardan ham foydalaniladi.

Maqollarda ko'proq TAZOD (zid qo'yish) san'ati qo'llanadi. Masalan: «Do'st achitib gapirar, dushman kuldirib», «Ko'p o'yla, oz so'zla»

Maqollarda yana bir san'at ISTIORA (metafora) ya'ni o'xshatish qo'llanadi. Masalan: «Et bilan tirmoqni ajratib bo'lmas».

Har biri tilimiz ko'rkini, nutqimiz nafosatini, aql-farosat va tafakkurimiz mantiqini hayratomuz bir qudrat bilan namoyish etgan va eta oladigan bunday badiiyat qatralari xalqimizning ko'p asrlik hayotiy tajribalari va maishiy turmush tarzining bamisoli bir oynasidir. Bu badiiy oynada uning hayotga, tabiatga, inson, oila va jamiyatga munosabati, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-estetik va falsafiy qarashlari, qisqasi, o'zi va o'zligi to'la namoyon bo'lgandir. Shuning uchun ham maqollar g'oyatda keng tarqalgan bo'lib, asrlar davomida jonli so'zlashuv va o'zaro nutqiy munosabatlarda, badiiy, tarixiy va ilmiy asarlarda, siyosiy va publitsistik adabiyotda doimiy ravishda qo'llanilib kelgan va qo'llanmoqda. Yillararo, davrlararo ularning yangilari yaratilib turgan, eskilari-ning— jonli muomilada, tilda mavjudlarining ma'no doirasi kengayib yoki torayib borgan. Hatto ularning muayyan qismi unutilib ketgan. Chunki o'zbek xalqining bunday ulkan folklor merosi folkloristika nuqtayi nazaridan keyingi asrlargacha deyarli to'planmay va o'rganilmay kelgan bundan xalq maqollari o'tmish adiblari, shoirlari tarixchilari e'tiboridan mutlaqo chetda ekan, degan xulosa chiqarmasligimiz kerak. Maqolga adabiy nuqtayi nazardan qiziqish, asar badiiyligini oshirish va badiiy til ravonligini ta'minlash uchun undan foydalanish hamma zamon so'z san'atkorlarini diqqat markazida bo'lgan. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Rabg'uziy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Abdulg'ozir Bahodirxon, Munis, Ogahiy, Nodira, Furqat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Oybek, G'afur G'ulom va boshqa o'nlab ijodkorlarning asarlari sinchiklab o'rganilsa, ularning tarkibida qanchadan-qancha

maqollar ba'zi aynan o'zgargan holda mavjudligiga qanoat hosil qilamiz. Tariximizda hatto maqolga maxsus, agar ta'bir joiz bo'lsa, folkloristik nuqtayi nazardan, garchi epizodik xarakterda bo'lsa-da, munosabatda bo'lgan hollarga ham duch kelamiz. XI asrning ulkan tilshunos olimi, folklorshunos va etnograf Mahmud Koshg'ariyning to'plovchilik faoliyati va uning «Devonu lug'otit turk» asari bunga yorqin misol bo'la oladi. «Devon»da turli munosabatlar bilan turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan 400 ga yaqin maqol va matallar ham keltiriladiki, ularning aksariyati bugun ham ayrim o'zgarishlar bilan tilimizda muvaffaqiyatli ravishda ishlatilmoqda. Bu o'rinda adabiyotimiz tarixida maqollar asosida yaratilgan asarlar ham mavjudligini ta'kidlab o'tish zarur. Masalan, Muhammad Sharif Gulxaniyning «Zarbulmasal» asari tarkibida 300 dan ortiq maqol bor, yoki Sulaymonqul Rojiiy o'zining «Zarbulmasal» asarida 400 dan ortiq maqolni she'riy vaznga solganligi ham e'tiborga loyiq hodisadir. O'zbek xalq maqollariga muayyan bir tartib berilib majmualarga kiritish, ulardan maxsus to'plamlar tuzish ishlari esa XIX asrning ikkinchi yarimidan boshlandi. Masalan, venger olimi X.Vamberining 1967-yilda Leypsigda nashr etilgan «Chig'atoy tili darsligi» xrestomatiya- lug'atiga o'zbek folklori va adabiyotining ayrim namunalari qatori 112 ta maqol kiritilgan bo'lib, ularning nemis tiliga tarjimai ham berilgan. Shundan keyin birin-ketin N.Ostroumov (1895), B.Rahmonov, (1924), O'.Zaripov (1939–1947), T. Mirzayev, B.Sarimsog'ov, A.Musog'ulov (1989) kabi folklorshunoslar, fan va madaniyat xodimlari tomonidan tuzilgan turli xarakterdagi va turli hajmdagi maqollar to'plamlari nashr etildi. M.Abdurahimov, X.Abdurahmonov, M.Sodiqova kabi olimlarning tilshunoslik va tarjimashunoslik yo'nalishidagi to'plamlari yuzaga keldi. Shuningdek, Ye.Chernyavskiy, V.Ro'zimatov (1959), N.Gatsunayev (1983, 1988), A.Naumov (1985) kabi tarjimonlarning mehnati bilan o'zbek xalq maqollari rus tilida ham ayrim-ayrim to'plamlar sifatida bosilib chiqdi.

Maqollar ko'p asrlik hayotiy tajribalar, doimiy kundalik kuzatishlar xulosasini tugal fikr tarzida qat'iy qutbiylikda ifodalar ekan, ularda har bir so'zning ma'no xilma xilligi, iboralarni turg'unligi, shakliy barqarorlik ustunlik qiladi. Ammo qo'llanish o'rniga qarab ularning ma'no doirasi doimiy ravishda kengayib boradi. Shuning uchun maqoldagi har bir so'zga alohida e'tibor berish kerak. Ularda shunday so'zlar borki, bu so'zlar tarixan butunlay boshqa ma'nolarni anglatgan. Masalan, tuz so'zi bugungi kunda mineral moddani bildiradi, tarixan bu so'z to'g'ri, odobli; dala,

tekislik ma'nolarini anglatgan va faqat maqollardagina saqlanib qolgan. «Qiz saqlasang, tuz saqla», «Tuzdagi bilan emas uydagi bilan bo'l», Shuningdek, mehnat so'zining azob-uqubat, baxtsizlik ma'nosini ham faqat maqollarda yoki ayrim shevalardagina uchratishimiz mumkin. «Mehnat ham egiz-egiz, davlat ham egiz-egiz».

So'z san'atining mahsuli sifatida maqollar ham badiiyat hodisalarida ularda bir so'zning yuzlab ma'no qirralari, badiiy tasvir vositalari, poetik ko'chimlarining barcha namunalarini uchratish mumkin.

Maqollar so'z san'ati mahsuli sifatida o'z ma'nosida, ko'chma ma'noda va har ikkala ma'noda qo'llanishi mumkin. Shuning uchun ularda badiiy-tasviriy vositalarining xilma-xil shakllariga duch kelamiz. Ammo maqollarda o'xshatishning kam ishlatilishini uning bu janr uchun xarakterli emasligini ham ko'ramiz. Maqollarni o'zgartirishlar bilan o'zgartirib qo'llasak, odatda, ular o'z maqollik xususiyatlarini yo'qotadi. Masalan: «Bulbul chamanni sevar, odam — Vatanni» maqolini bulbul chamanni sevganday, odam Vatanni sevar yoki «Dehqon bo'lsang shudgor qil, mulla bo'lsang takror qil». Maqolini dehqon shudgor qilganday, mulla bo'lsang takror qil deb ko'raylik-chi, butun ma'nosizlik yuzaga keladi. Masalan, «Ustoz otangdan ulug'» maqoli Ustoz otangday ulug' tarzida buzib qo'llanmoqda. Bunda otani kamsitish holati yo'q, shunday bo'lganda xalq «Ota rozi-xudo rozi» degan maqolni yaratmas edi. Bu yerda ustoz hurmatini bo'rttirish bor, qolaversa, xalqda barcha odamzodning birin-chi yakka yagona ustozlari Oллоhdir degan tushunchalar ham bor. Ikkinchidan ustoz bilan tenglashtirib qo'yilsa, maqol mazmuni butunlay o'zgarib, xalq qarashlariga zid bo'lib koladi. To'g'ri, ko'p variantlilik maqollar uchun xos hodisa. Ammo bu maqollarni istagancha o'zgartirish mumkin degani emas.

Maqollar ketma-ket kelganda, biri ikkinchisini inkor etgandek, bir-biriga ziddek tuyulishi mumkin. Aslida esa qo'llanish vaziyatga qarab turli-tuman ma'no mazmuni ifodalaganligini unutmaslik kerak. Quyidagi maqollarga e'tibor qiling:

Ko'pni yomonlagan ko'muvsiz qolar.

Ko'pni yomonlagan ko'milar.

yoki:

Hisoblashgan do'st emas.

Hisobli do'st ayrilmas.

Ma'lumki, xalqimiz marhumlarga alohida hurmat ko'rsatadi. Tirikligida qanchalik yomon bo'lishmasin, ular haqida yomon so'z

aytishdan, garchi to'g'ri bo'lsa ham tiyladi. Maqolda esa bunday kishilarning azasiga ham kishilar istar-istamas kelishi, tilida ayt-masa ham, dilida ularning aslida kim bo'lganligini unutmashligi o'z ifodasini topgan. Bunday qat'iy hukmda o'ziga xos ogohlantirish tasvirlangan.

Ko'pni yomonlagan ko'milar.

Bu yerda halok bo'lar, el nazaridan qolar degan ma'no ifodalangan.

Hisoblashgan do'st emas.

Ba'zi kishilar arzimas xizmatlarini ham do'stga minnat qilishadi. Bu yerda so'z o'sha haqda ketmoqda.

Hisobli do'st ayrilmas.

Bu maqolda esa do'st kishi do'stning yaxshiliklarini unutmashligi, doimo yodda tutishi kerak degan ma'noni ifodalamoqda.

Maqollarning jonli jarayonda, vaziyatga qarab qo'llanilishidan o'ziga xos yana bir xususiyat kelib chiqadi, ya'ni ba'zi maqollar misralar o'rni almashgan holda mavzularda takrorlangan. Bu to'plam, hajmini sun'iy ravishda ko'paytirish uchun tuzuvchilar o'ylab chiqqan narsa emas. Ko'pgina maqollar xalqdan yozib olingan va ular O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Til va Adabiyot institutining folklor arxivida saqlanadi.

Maqollarga barcha soha kishilari turli munosabat bilan har doim, har kuni murojaat qilishlari mumkin. Shu yillar davomida o'zbek xalq maqollari bir necha marta «Tafakkur gulshani», «Aql aqldan quvvat olar», «Donolar bisotidan», «Dengizdan qatralar» nomli to'plam bo'lib ma'naviy qadriyatimizning sharqona, lo'nda va yorqin ifoda etilgan holda chop etildi.

~ TOPISHMOQLAR ¹

Xalq orasida topishmoq, jumboq, ba'zan matal, topar cho'pchak kabi terminlar bilan yuritilib kelingan topishmoq janri o'zbek folklorida qadim zamonlardan hozirgacha yashab kelmoqda va rivojlanmoqda. Uzoq o'tmish davrlarda topishmoq insonni o'rab olgan muhit va tabiatning turli tuman hodisalar haqidagi tushunchalarining badiiy ifodasi sifatida maydonga kelgan. Tog' va o'rmonlar, daryo va ko'llar, cho'lu biyobon, yer va osmon, quyosh va oy, yulduz va fasllar zulmat va yorug'lik, toshqinlar, chaqmoq

¹ H.Razzoqov va boshq. O'zbek xalq og'zaki poetik ijod. «O'qituvchi». —T.: 1980.

va momaqaldir oq, hayvonot olami, oila-ro'zg'or jihozlari, dov-daraxt, mehnat qurollari va boshqalar haqida kollektiv ijodning mahsuli bo'lib to'qilgan topishmoqlar avlod-dan-avlodga o'tib, katta va kichikka hayot, tabiat sirlari haqida o'ylashni, bilishni o'rgatib kelganligi bilan g'oyat ahamiyatlidir.

«Topishmoq» so'zi «top» buyruq fe'liga «ishmoq» yasovchilari qo'shilishi bilan chigal, murakkab, belgi xususiyati yashirin berilgan biror noma'lum narsani topish mazmunini ifodalaydigan yasama otga aylangan. Tabiat va jamiyat hodisalari kishilar oldiga ko'p murakkab jumboqlar, muammolar qo'ygan. Insonning o'sha masalalarni topishi, sirli bo'lib ko'ringan narsalarning tub, haqiqiy mohiyatini ochishi uchun aql idrok va o'tkir did talab qilingan.

Tabiatning sirli hodisalari inson taqdirini asossiz, taxminiy farzlar, turli e'tiqod vositasida passiv anglash, folbinlik, astrologiya kabi og'zaki ijodning g'ayri ilmiy shakllarini ham maydonga keltirgan. Topishmoqlar bo'lsa, xalq og'zaki ijodida eshituvchilardan ongli ravishda yashirilgan, berkitilgan narsa, hodisalarning asosiy mazmunini topish, yechishning o'ziga xos poetik formasidir. Shuning uchun topishmoqni eshituvchilar uni tabiat yoki turmush siri deb emas, yashirilgan muayyan, aniq bir narsa deb biladilar, shunday tushunadilar.

Topishmoqlar og'zaki ijodning ommaviy va maxsus janrlaridan biri. Ularning uslubiy metafora (istiiora), ko'chim, kinoya, qochiriq yo'li bilan so'zlarni ko'chma ma'noda ishlatib, yashirilgan narsa, hodisalarning belgilariga ikkinchi bir narsa, hodisalarning belgilarini qiyoslash, imo-ishora qilishdan iboratdir. Topishmoqlarning shu xususiyati haqida qadimgi yunon filosofi Aristotelning: «Juda yaxshi metafora tuzish yo'li», deyishi bejiz emas.

Topishmoq aytish qadimgi zamonlardan boshlab turli xalqlarning hayoti, ijtimoiy shart-sharoitlari, dunyoqarashlari, urf-odatlarini, mifologik tasavvurlari bilan bog'liq bo'lgan. Rus xalqi orasida dekabr, yanvar oylarida, udmurtlarda yig'im-terim tugallangach, bahor boshlanguncha, turkmanlarda navro'z bayrami oqshomlarida topishmoq aytish rasm bo'lgan. O'zbek xalqi ham boshqa qardosh xalqlar kabi kuz va qish kechalari g'oz'a chuvish, charx yigirish, olacha to'qish kabi qo'l mehnati bilan bajariladigan turli-tuman ishlar davomida topishmoq aytishgan. Topishmoq aytish qaysi bir xalqda bo'lmasin, u aql-ziyraklik musobaqasi, ko'ngil ochish, o'yin-kulgu vositasi hisoblangan. Topishmoq aytish, asosan, yoshlarning so'z boyligini oshirish, hayot va uning hodisalari haqidagi bilim tushunchasi, idrok va mulohazalarini

kengaytirish uchun zarur tarbiya vositalaridan biri bo'lgani tufayli ular soddadan, murakkabga, osondan qiyinga borish usulida yaratilgan. Topishmoqlar orasida maktab yoshgacha bo'lgan bolalar osonlik bilan topa oladiganlari bo'lgani kabi katta yoshdagi bolalar, hatto turmush tajribasi ko'p kishilarning ham boshini qotirib, o'ylashga majbur qiladiganlari ham bor. Masalan, «Otdan baland, itdan past», «Qoziq ustida qor turmas» kabi egar, tuxum haqidagi to-pishmoqlar xalq orasida keng tarqalganligidan topishmoq aytilib bo'linmay, eshatuvchilar uning javobini topa oladilar. Ammo «Uzundan uzoq, havoga tuzoq» (tutun) kabi topishmoqlar ancha o'ylantirib qo'yadi. Topishmoqni hamma -- kattadan kichik aytadi, uni topishga ham ko'pchilik ishtirok etadi. Xalq orasida nisbatan ko'p topishmoq biladigan kishilar topishmoqchi, jumboqchi ham deb yuritiladi.

Topishmoq aytishning muayyan tartib qoidalari mavjud. Topishmoqning javobi topilishi bilan ketma-ket aytila beriladi. Agar topishmoqning javobini topa olmasa, o'tmishda «shahar» talab qilinardi. Topishmoq aytuvchi topishmoq javobini topa olmagan, «shahar bergan» kishini ma'lum vazifasini bajarishga majbur qilardi. So'ng «Sen topmasang, men topay, uning o'zi ...» deb javobini aytardi. Bunda topishmoq aytuvchi bilan topuvchi o'rtasidagi «sotdim-oldim» tipidagi savol-javob xarakterlidir. Topishmoq javobini topa olmagan shaxsni izza qilishdan iborat «sotdim-oldim» dialogida, xuddi topishmoqdagidek, predmetlarning bir-biriga ma'lum tomonlari o'xshatiladi. «Sotdim-oldim» da kishilarning obrazli fikrlashi topishmoqning uzviy bir qismi bo'lib davom ettiriladi.

– Sotdim.

– Oldim.

– Nimani?

– Qo'lingni.

– Nima qilasan?

– Panshaxa qilib xirmon sovuraman.

Topishmoq aytish orqali davrada ajoyib xushchaqchaqlik, ruhiy ko'tarinkilik paydo bo'ladi. Topishmoqlarning yaxshi biladigan keksalarning guvohlik berishicha, topishmoq aytish kechalari juda maroqli o'tgan, ayniqsa, yoshlarga tarbiyaviy-ta'limiy jihatdan katta foyda yetkazgan.

Topishmoqlar tuzilishi jihatdan ba'zan nasriy, ko'pchilik hollarda sha'riy shaklda bo'lib, ularda noma'lum bir musiqiylik, zarb, turoq, vazn, qofiya kabi she'riyatning shakl talablariga amal qilingan.

Qofiya, vazn topishmoqning silliq, ixcham, ohangdor, esda qoladigan boʻlib tuzilishini taʼminlashga xizmat etadi. Masalan:

Toʻrt oyoqli,
Temir tuyoqli. (Ot).

Topishmoqlarning bir nechasi nazm ipiga tizilgandek boʻladi va ularning javoblari ham shu tarzda boʻlishi talab etiladi:

Qamish uchi qaltiroq, uni toping, dilbarim,
Igna uchi yaltiroq, uni toping, dilbarim.
Sassiq koʻlda it hurar, uni toping, dilbarim,
Taqir-tuqur taqravon, uni toping, dilbarim,
Ichidagi mehribon, uni toping dilbarim.

Bu topishmoqning javobi, sheʼriy shaklda quyidagicha boʻlishi kerak:

Qamish uchi qaltiroq — shamol degan emasmi,
Igna uchi yaltiroq — oʻt degani emasmi,
Sassiq koʻlda it hurar — suv baqasi emasmi,
Taqir-tuqur taqravon — beshik degan emasmi,
Ichidagi mehribon — bola degan emasmi...

Koʻpchilik topishmoqlarda yashirilgan predmetga oʻxshatilgan, imo-ishoralar qilingan narsa yoki predmet belgilarining tavsifi sodda, samimiy, begʻaraz kulgi, hazil-mutoyiba, masxara, mazax vositasi boʻlib xizmat qiladi:

Toʻrti — lop-lop, egri sop-sop,
Ikki — dingilding, bir — shipilding.
Boradi luk-luk, keladi loʻk-loʻk,
Hamisha luk-luk, tomosha loʻk-loʻk.

Tuya haqidagi bu ikki topishmoqda tuyaning yurishi, besoʻnaqay, qoʻpol gavda tuzilishi, dumi, yurishining taʼrifi berilib, asosiy predmet — tuya yashirilgan. Bunday tavsif hazil — mutoyiba, kulgiga sabab boʻladi.

Ayrim doston va ertak qahramonlari orasidagi dialoglarda topishmoq janri qoʻilanadi. Jumboqli savolga asarning qahramonining javobi tarzida beriladi. Savol-javobli topishmoqlar dostonlarda qahramonlarning aql-farosatini sinash, baʼzi bir shartlarni bajarishda qobiliyatini sinashda ishlatiladi:

U nimadir, havodagi doʻlangan?
U nimadir, yer yuzini suv olgan?
U nimadir orqasida ogʻzi bor?
U nimadir oʻrtasida magʻzi bor?
U nimadir suv ichida joni bor?
— Bulut boʻlar havodagi doʻlangan.

- Yomg‘ir bo‘lar yer yuzini suv olgan,
- Tegirmondor orqasida og‘zi bor.
- Bug‘doy bo‘lar o‘rtasida mag‘zi bor,
- Baliq bo‘lar suv ichida joni bor.

Bu turdagi savol javobli topishmoqlar «Oshiq Oydin», «Oshiq Alvand», «Xirmon dalli», «Yozi bilan Zebo» dostonlarida, Mah-tumquli va Durdi Qilich aytishuvlarida tez-tez uchrab turadi. «Al-pomish» dostonining Po‘lkan shoir aytgan variantida Barchinning jumbog‘iga Alpomishning bergan chiroyli javobi mavjud.

XX asrda fan va texnikaning rivojlanishi ulkan yutuqlar, kashfiyotlar va boshqa o‘zgarishlar topishmoq janrida ham o‘z ak-sini topdi.

Kechasi oftobdek, kunduzi koptokdek (lampochka).

Gapirsa Moskvadan, eshitasiz Quvadan (radio).

Tovuq desam pati yo‘q,
Oyoq-qo‘li, qanoti yo‘q,
Ming-minglab ochar jo‘ja,
Buni toping, Xolxo‘ja (inkubator).

Topishmoqlarning mohiyati, ma‘rifiy-tarbiyaviy ahamiyati olam sirlaridan kishilarning voqif qilish, bilishga u bilan birga, insoniyat-ning tabiat va hayvonot dunyosi bilan qadimdan uzviy bog‘liqligini ta‘kidlash, ularni sevish, ardoqlash tuyg‘usi ham yashiringanidadir.

Topishmoqlar xalq og‘zaki badiiy ijodining qadimgi turi sifatida yozma adabiyotga barakali ta‘sir ko‘rsatdi. Sharq adabiyoti, jum-ladan, o‘zbek adabiyotida chiston, tarix, muammo, muvashshax kabi lirik janrlarning paydo bo‘lishida lirik topishmoqlar muhim rol o‘ynaydi. O‘z navbatida yozma adabiyot ham juda ko‘p to-pishmoqlarning paydo bo‘lishi va el orasida keng tarqalishiga sabab bo‘ldi.

Topishmoqlar bugungi kunda ham yoshlar zehni-ni o‘tkirlashtirishda, muhokama doirasini oshirishda muhim ma‘rifiy-ta‘limiy, tarbiyaviy ahamiyatga ega.

O‘ZBEK XALQ LATIFALARI VA LOFLARI¹

Latifa – arabcha lutf, latif so‘zlaridan olingan bo‘lib, nozik,

¹ N. Razzoqov. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi «O‘qituvchi» –T.: 1980.

nafis ma'nolarini anglatadi. Latifa aytuvchilarni latifago'y deyiladi. Latifa xalq orasida keng tarqalgan bo'lib, Xalq og'zaki prozasining voqeband, hajman kichik, yumoristik xarakterdagi xalq hajviyoti janridan hisoblanadi. Latifalar juda qadimiy bo'lishiga qaramay, ularning Nasriddin nomi bilan bog'lanishi nisbatan keyingi davrlarga xosdir.

XIX asrning II-yarmida Ozarbayjon yoki turk tilidan qilingan latifa tarjimalarining tarqalishi bilan o'zbek latifalari qahramoni nomini Xo'ja Nasriddin nomi siqib chiqargan va barcha latifalar uning nomi bilan bog'langan. Shundan keyin barcha latifalar «Afandi latifalari», «Nasriddin Afandi» yoki qisqagina qilib «Afandi» deb yuritila boshlagan.

Latifalar kollektiv ijod mahsulidir. Latifalarning hikoya qilish uslubi murakkablikdan holi, ijobiy qahramon tabiatida mehnat kishilarining xulq-atvoriga xos soddalik mavjud. Bu soddalik tagida serfahm, o'tkir zehni, «sodda mo'g'ambir», hamisha aql ko'zi bilan ish tutadigan, so'zamol kishining zolimlarning zulmidan, mehnat ahlining xo'rlikdagi hayotning barcha qabohat va illatlari ustidan zaharxanda kulgusi, g'azab-nafrati, kinoya va pichingi yashiringan ayni chog'da bu xushchaqchaq, ochiq ko'ngil do'stning samimiy, beg'ubor hangomasi, ichakni uzgukdek xandon qahqahasi, hazil-mutoyibasidir. Latifalarda mantiq kuchi zo'r bo'ladi. Latifalar garchi ermak shaklida ko'rinsa ham, xalq ommasining ovozi sifatida uning dunyoqarashini ifodalaydi. Shuning uchun ular og'izdan-og'izga ko'chib yurgan, shakl va mazmunda tobora sayqal topgan, xalqning eng sevimli asarlaridan bo'lib kelgan. O'zbek xalqi orasida yaratilgan va bizgacha yetib kelgan Afandi latifalarining taylay qismini o'zbek folkloristlari tomonidan to'plandi va nashr etildi. Taxminiy ma'lumotlarga qaraganda, xalqimiz orasida ikki yarim mingdan ortiq latifalar mavjud.

O'zbek mumtoz adabiyotida ham latifalardan keng foydalanilgan. Buni Yaqiniyning «O'q va yoy munozarasi», Ahmadiyning «Sozlar munozarasi», Alisher Navoiyning «Hayrat ul-Abror», «Mahbul ul-qulub» va boshqa asarlarida, keyinchalik Gulxaniy, Maxmur, G'oziy, Munis Xorazmiy, Ogahiy hajviyalarida-uchratish mumkin. Zamonaviy latifalarda yengil, yoqimli, hazil mutoyiba yetakchilik qiladi, hayotimizda uchrab turadigan ayrim kamchiliklar tanqid etiladi.

Afandi — mehnatkash xalq qahramoni. U bir tomondan muhtojlikdan bechora hol kishi biroq u shunchalik sabotli, irodaliki, o'zining qashshoqligidan birovga hasrat qilmaydi, sir boy bermaydi.

Nasriddin Afandi timsoli askiya, xalq og‘zaki dramasi­dagi ijobiy qahramonlarga — masxaraboz, qiziqchilarga donoligi, xush­chaqchaq tabiati kishilarni hozirjavoblik bilan kuldirishi jihatidan juda yaqin turadi. Afandi xalq qahramoni sifatida aqlli, ziyrak, har qanday noqulay holatdan osonlik bilan qutula oladigan tadbirkor kishi. U daf‘atan berilgan savolga hamma vaqt hozirjavob. U turli latifalarda turlicha — goh mulozim, goh xizmatkor, goh kosib, goh dehqon bo‘lib ko‘rinmasin, hamisha kamtarin, mehna­ti kishisi sifa­tida talqin etiladi. Afandi latifalarida kulgu asosiy o‘rinni egallaydi. Ijtimoiy hayotda ro‘y bergan turli voqealar misolida bu kulgi yorqin, majoziy tus oladi. Latifalarda Afandi timsolini tipiklashti­rishda uning tili g‘oyat muhim rol o‘ynaydi. Afandi javoblarida xalq tilining kuch-quvvati jozibadorligi, ma‘nodorligi, go‘zalligi ravshan ko‘rinadi. Afandi latifalarida xalq qah-qahasi ming turli rang bilan tovlanadi. U qadrdonlari bilan do‘stona hazil qilganida ham, raqib­larini mot qilganida ham, nozik ta‘b, yuksak axloqli, vijdonli odamshavanda, hamdard, oliyjanob inson bo‘lib gavdalanadi. Latifago‘ylik bo‘lgan davralarda o‘tirishga o‘zgacha bir xurramlik, fayz kiradi. Tinglovchilarda ruhiy ko‘tarinkilik, bardamlik seziladi.

Afandi latifalari hozir ham yaratilmoqda. Ular turmushdagi, ki­shilar axloqidagi ayrim kamchiliklarni, ishyoqmaslik, dangasalik, xushomadgo‘ylik, ikkiyuzlamachilik, maishatparastlik singari eskilik sarqitlarini ayamasdan tanqid qiladi. Latifalar badiiy ta‘sirchanligi bilan kishilarimizda estetik zavq uyg‘otadi, yaxshi kayfiyat bag‘ishlaydi.

LOFLAR

Lof — xalq og‘zaki ijodining hajviy va yumoristik janrlaridan. O‘zbek xalq og‘zaki ijodiyotida lof va lofchilik alohida o‘rin tutadi. Lofchilik lof urush, lof aytish, lofbozlik xarakter e‘tibori bilan xalq san‘atining askiya, qiziqchilik, masxarabozlik turlariga juda yaqin turadi. Loflarda ijtimoiy hayot hodisalari o‘ta oshirma muqoyasa yuli bilan aks ettiriladi. Lof aytishayotgan ikki kishi tarafkashlik qilib, bir-birini hozirjavoblik va chechanlikda sinar ekan, har qan­day qiyin masalani favqulotda osoyishtalik bilan har qanday va­hima, dabdabasiz, oddiy gap tarzida bosiq ohangda aytadi-qo‘yadi. Ikkinchi tomon ham go‘yo hech gap bo‘lmagandek. Shunday boplab javob beradiki, bu tomoshabinda yoqimli, xushchaqchaq, kulgi ko‘tarilishiga sabab bo‘ladi, raqibi esa dog‘da qoladi.

Lof ko‘pincha dostonlarda, og‘zaki dramada, ertaklarda,

uchraydi. «Uch yolgʻondan qirq yolgʻon» ertagida lofning ajoyib namunalardan foydalanilgan. Gʻayri tabiiydek tuyulgan lofdagi fikrlar aslida hayotiy lavhalarni boʻrttirib tasvirlashdan iboratdir. Lof kishilarning oʻzaro suhbatida tez-tez ishlatiladi. Lofda gap tagini gap ochadi deyilganidek, bahslashuvchi tomonlarining oʻta mubolagʻali soʻziga hayratomuz fikr toʻqnash keladi. Musobaqada bir tomon albatta gʻolib keladi. Loflarda dialog juda qisqa boʻlsa, ayrimlari epik mazmunda boʻlib, latifa kabi tortishuvlar davom etadi.

Latifa va lofchilik sanʼati bugungi kunda ham izchil rivojlanmoqda, yangidan yangi loflar yaratilmoqda.

OʻZBEK XALQ DOSTONCHILIGI VA DOSTONCHILIK MAKTABLARI¹

Doston oʻzbek folklorining keng tarqalgan va yirik janrlaridan biridir. Uning yaratilishi xalqimizning maʼnaviy-maishiy qiyofasi, ijtimoiy-siyosiy kurashlari, axloqiy-estetik qarashlari, adolat va haqqoniyat, ozodlik va tenglik, qahramonlik va vatanparvarlik haqidagi gʻoyalari bilan chambarchas bogʻliqdir. Asrlar davomida xalqning turmush tarzi, orzu umidlari dostonlar mavzuyini, syujet va kompozitsiyasi mohiyatini belgilab bordi. Oʻzbek dostonlarining ulugʻvor poetik umumlashmalari, yuksak badiiy timsollari ularni dunyo folklorining tengsiz namunalari— rus bilinalari, ukrain dimalari, qozoq botirlar jiri, qirgʻiz «Manas»i, qoraqalpoq «qirq qizi», hind «Maxobhorat» qissasi, Gʻarb va Sharqning ulkan eposlari qatoriga qoʻydi.

«Doston» soʻzi qissa, hikoya, sarguzasht, shonu shuhrat, taʼrif va maqtov maʼnolarida ishlatiladi. Adabiy termin sifatida bu nom xalq ogʻzaki ijodi va yozma adabiyotidagi yirik hajmli epik asarlarni anglatadi. Biroq ular hayotni tasvirlash vositalari va usullari jihatidan bir-biridan jiddiy farq qiladi.

Dostonlardagi tarixiy voqelik xalq fantaziyasi asosida umumlashgan timsollarda oʻz ifodasini topadi. Unda umumlashtirishning oʻziga xos koʻrinishi — epik umumlashtirish hukmronlik qiladi. Bunday umumlashtirish xalqning ijtimoiy adolat haqidagi ideallari va orzu umidlari bilan yoʻgʻrilgan.

Oʻzbek xalq dostonlari juda uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichini bosib oʻtgan. Uning qadimgi namunalari saqlanmagan. Koʻp asrlar

¹ N. Razzoqov. Oʻzbek xalq ogʻzaki poetik ijodi. «Oʻqituvchi» —T.: 1980.

davomida og'izdan og'izga o'tib xalq baxshilari orqali bizgacha yetib kelgan.

BAXSHILAR

Xalq og'zaki ijodining yuksak san'at turi doston va dostonchilikning paydo bo'lishi taraqqiyoti baxshilar nomi bilan bog'liqdir.

Atoqli olim Hodi Zarifovning yozishicha baxshi mo'g'ilcha va buriyatcha «baxsha» so'zlaridan olingan bo'lib, «ustod, ma'rifatchi» degan ma'nolarini beradi. O'zbeklarda baxshi keng ma'noda xalq dostonchisi dostonlarni kuylovchi, yodda saqlovchi va nasldan-naslga o'tkazuvchi san'atkordir. Xalq orasida baxshi so'zi ikki ma'noda qo'llangan. Ba'zi joylarda doston kuylovchi, ayrim joylarda afsungarlik, folbinlik, shamanlik qiluvchi shaxsga nisbatan ishlatilgan. Uzoq o'tmishda bu ikki vazifani bir shaxs bajaragan. Ko'pchilik yerlarda esa ikkinchi vazifani bajaruvchi shaxs qushnoch, duoxon, kinnachi, kasal boquvchi kabi turli-tuman so'zlar bilan ifodalangan. Masalan, baxshi—turkmanlarda doston kuylovchi shaxs, qo'zoq va qirg'izlarda afsungar, folbinlarga nisbatan baxshi termini ishlatilgan. O'zbekistonda esa baxshi asosan bir ma'noda xalq dostonchisi, professional san'atkorga nisbatan keng qo'llaniladiki, u o'zbek folklorshunosligida asosiy termin sifatida mustahkam o'zlashib ketgan. Mo'g'ullar istilosi davrida budda dinidagi qalandarlarni, mo'g'ullarda jarrohlarni, turli hujjat va xatlarni uyg'ur yozuvda ko'chiruvchi turkiy xalqlardan bo'lgan kotiblarni, Chig'atoy ulusi Oltin O'rda, Qozon, Qrim xonligidagi kotiblarni, Boburiylar davlati harbiy qismlarning hisob-kitob ishlarini olib boruvchi va ularga maosh to'lovchi yirik amaldorlarni, Buxoro xonligida davlat binolarni qurishda mablag' hisobini olib boruvchi kishilarni, turkmanlarda urug' oqsog'ollarni ham baxshi deb atashgan.

O'zbekistonning ayrim yerlarida xalq dostonchisini baxshi so'zidan boshqa yana turlicha nomlarda yuritiladi. Masalan, Surxondaryo, Qashqadaryo yuzboshi, Janubiy Tojikiston o'zbeklar orasida sog'i, Surxondaryo va Janubiy Tojikistonning ayrim joylarida sozanda, Farg'ona vodiysida sannovchi, ayrim tumanlarda jirov, jarchi, oqin, oxun va hokazo nomlar bilan yuritiladi. O'zbeklarda xalq dostonchisini shoir deb atash ham keng tarqalgan. Shoir arabcha so'z bo'lib, poetik asarlar ijodkori bo'lgan yozma va og'zaki adabiyot vakillariga nisbatan qo'llaniladi. O'zlarining yangi

doston variantlarini hatto, yangi dostonlarni ham yarata oladigan baxshilar shoir deb ham ataladi. Masalan, Fozil shoir Po'lgan shoir, Islom shoir va boshqalar.

Baxshilar xalq dostonlarini biror sozda, ko'p yerlarda do'mbira, ayrim joylarda qo'biz yoki dutorda kuylaydilar. Xorazm baxshilari esa dostonlarni asosan dutorda ijro etadilar, ularga g'ijjak va balomonda sozandalar jo'r bo'ladi. XX asrning 30-yillaridan Xorazm baxshilari esa dostonlarni tor va rubobda kuylay boshladilar. Shu munosabat bilan ayrim baxshilar ansamblida skripkadan foydalanishgan, ansamblga doirachi, hatto, o'yinchi olib kirish hollari bo'ldi. Xorazmdagi Bola baxshi ansambli bunga misol bo'la oladi.

Xorazmda epik asarlarni, ulardan olingan parchalar va ayrim termalarni kuylovchi ijodkorlarning yana bir turini xalfalar deb yuritadilar. Xalfachilik asosan ayollar orasida keng tarqalgan. Xalfachilik san'ati asosan ikki xil:

- ansamblli xalfalar;
- yakka xalfalar.

Ansamblli xalfalar uch kishidan iborat— ustoz xalfa (garmon chaladi va qo'shiq aytadi), doirachi (ashulaga jo'r bo'ladi, gohida raqsga tushadi) va o'yinchilar (qayroq bilan raqsga tushadi, yalla va lapar aytadi, ba'zan doira chaladi) Bibi shoira, Ojiza, Onajon Safarova, Nazira Sobirova kabilar shunday xalfalardir.

Yakka xalfalar doston va qo'shiqlarni sozsiz ijro etadilar. Ular dostonlarni yoddan yoki qo'lyozma va kitobdan yoqimli ohangda o'qish, «Yor-yor», «Kelin salom», «Muborak» kabi to'y qo'shiqlarini ijro etish bilan shuhrat qozongan. Xorazm xalfalari ko'proq «Oshiq G'arib va Shohsanam», «Oshiq Oydin», «Qissai Zebo», «Bozirgon» kabi dostonlarni va Mahtumquli she'rlarini, turli marosim qo'shiqlarini va o'zlari yaratgan qo'shiqlarni ijro etadilar. Xalfachilik jozibali va navqiron ayollar san'ati sifatida Xorazm vohasida shu kunlarda keng davom etmoqda.

DOSTON KUYLASH TARTIBI

O'zbek dostonchiligida an'anaviy doston kuylash tartibi bor. Odatda, dostonchilik kech kuzdan erta bahorgacha kechqurunlari uyushtiriladi. Baxshi taklif qilingan mehmonxonaga barcha eshituvchilar shu yerda qo'r tashlab o'tirishgan. Baxshi uyning eng to'rida o'tirgan. Doston kuylash kichik bir ziyofatdan keyin boshlangan. Baxshi avval bir necha terma kuylagan, Xorazm baxshilari esa terma sifatida dostonlardan parchalar yoki Mahtumquli

g'azallaridan, pand-nasihah mazmunidagi qo'shiqlar ijro qilganlar. Xorazmdan boshqa hududlarda «Nima aytay?» termasi bilan eshituvchilarga murojaat qilingan. Dostonlar bir necha kunlab kuylangan.

Baxshi doston kuylash davomida dostonidagi har bir tasvirga mos so'z va kuy topib avjga chiqib borgan, o'zlarining ta'biri bilan aytganda, «qaynaydi». O'rni-o'rni bilan eshituvchilarga murojaat qilib ularni diqqatini o'ziga jalb etgan. Dostonni avj nuqtalariga yetganda baxshining gavda harakatlari, boshini sarak-sarak qilishi, do'mbiraning bir muvozanatda borib kelishi kuy va so'zga qo'shilib yaxlit ritmik holatni yuzaga keltiradi.

Dostonni kuylash juda qiziqarli o'rinda, avj pardalarga yetganda, yarim tunda dam olish uchun tanaffus qilingan. Buni baxshilar «do'mbira to'ntarmoq» deb aytadilar. Bunda baxshi eshituvchilarga yoki do'mbirasiga murojaat tarzida bir necha misralar aytadi va ijroni to'xtatadi:

Seni uydan olib chiqdim bo'ktirib,
Sen yuribsan ulfatingni axtarib,
Men qo'yayin seni endi to'ntarib,
Yarim kecha haddi bo'ldi, jonivor.

Yig'ib opsan ulfatingni jamini,
Egang olsin-da bir oz damini.
Damin olib aytib berar kamini,
Ro'mol yezar vaqti bo'ldi, jonivor.

Shundan keyin baxshi choponini, belbog'ini va do'mbirasini to'ntarilgan holda qoldirib, tashqariga chiqadi. Bu payt davradagilardan biri baxshi belbog'ini o'rtana yoyadi. Har kim o'z imkoniyatiga yarasha pul yoki biror narsa tashlaydi. Baxshi xonaga kirguncha, yig'ilgan pul va narsalarni tugib qo'yadilar. So'ng dostonni qolgan qismini kuylash davom ettiriladi. Xorazm baxshilari esa doston ijrosi tugashi bilan «To'yingda qaytsin» kuyini chalib turadi.

Maxsus dostonchilik kechalaridan tashqari to'y-hashamlarda, oila tantanalarida, bayramlarda baxshilarning ishtirok etishi odatiy hol edi. XX asrning boshlaridan boshlab shaharlarda baxshilar xizmatidan foydalanish yo'qoldi, ularning o'rmini hofizlar va ashulachilar oldi.

Baxshi tayyorlash o'zining qat'iy an'anaviy tartiblariga ega bo'lgan. Baxshilar qishloqma-qishloq dostonchilik qilib yurgan paytlarida xalq orasidagi iste'dodli, qobiliyatli, she'riyatga qiziquvchan yoshlarni tanlaganlar, safar davomida ularni sinab borganlar,

ularni o'z yonlariga tortganlar. Shogird tayyorlashda barcha o'qitish, o'rgatish ishlari do'mbira mashqi ham og'zaki ravishda amalga oshirilgan. O'rgatishning keyingi yillarida ustoz shogirdini o'zi bilan birga yig'inlarga olib borgan. Shogird ko'pchilik oldida termalar, dostonlardan parchalar kuylagan, gohida ustoz eshituvchilarni ruxsati bilan o'zi kuylayotgan dostonning davomini shogirdiga ayttirgan. Shogird doston kuylashning muayyan qismini va baxshichilik yo'llarini to'la o'rganib bo'lgach ustoz uni el oldidan o'tkazish uchun ziyofat tashkil etadi. Ziyofatga xalq ijodining bilimdonlarini, doston shinavandalarini taklif etadi. Shogird ular oldida biror dostonni mustaqil ijro etib beradi. Shogird sinovdan o'tgach, ustoz unga bosh-oyoq sarpo va to'n qilib, yangi dutor yoki do'mbira hadya etadi, ko'pchilik oldida «oq yo'l» tilaydi.

Shu tariqa xalq badiiy ijodida davomiylik yuzaga keladi, qachonlardir ustoz kuylagan dostonni shogird kuylaydi va bu dostonlar avloddan-avlodga o'tib, bizgacha yetib kelgan.

DOSTONCHILIK MAKTABI

O'tmishda har bir hududning o'z baxshilari va ularning o'zlariga xos dostonchilik maktablari bo'lgan. Masalan: Chingizxon huzurida Ulug' jirchi, To'xtamish saroyida Kamolzoda, Jahon Mirza va Xiva xoni Muhammad Rahimxon II huzurida Riza baxshi, Buxoro amiri Nasrulla saroyida Ernazar baxshilar xizmat qilganligi ma'lum. Saroy baxshilari xon va beklarni maqtovchi asarlar yaratganlar. Hozirgi kunda o'zbek folklorshunosligida Bulung'ur, Qo'rg'on, Shahrisabz, Qamay, Sherobod, Janubiy Tojikiston, Xorazm kabi poetik dostonchilik maktablari-baxshichilik san'atining ajoyib markazlari aniqlangan.

Bulung'ur dostonchilik maktabi qahramonlik dostonlarini ijro etish bilan mashhur. Bu maktabning so'nggi iste'dodli vakili Fozil Yo'ldosh o'g'li (1872–1955) hisoblanadi. Uning «Alpomish», «Yodgor», «Yusuf bilan Ahmad», «Zulfizar», «Malikayi ayyor», «Nurali», «Murodxon», «Shirin bilan Shakar» kabi ajoyib dostonlar yozib olingan. Uning Yo'ldosh, Qo'ldosh, Suyar shoir nomi bilan mashhur bo'lgan ukalari ham doston kuylaganlar. Bulung'ur maktabini eng ulug' baxshilaridan biri XVIII asrning II yarmida yashagan Muhammad shoir bo'lib, u Yo'ldosh bulbulga ustozlik qilgan. Bu maktab Chini shoir, Rahim bulbul, Jo'ra, Fozil shoir, Yorlaqab kabi o'nlab dostonchilarni birlashtiradi.

Dostonchilik san'atining yana bir maktabi qo'rg'on doston-

chilik maktabidir. Bu maktabga Mangishtovdan Nurotaga qadar cho'zilgan silsila tog'larning, ayniqsa, Oqto'vning shimoliy va janubiy etaklarida yashagan va shu yerlarda yetishgan xalq shoirlari mansubdir. Ularning eng iste'dodli vakillaridan biri Ergash Jumanbulbul o'g'li (1868–1937) va Po'ltan shoir (1874–1941) hisoblanadi. Ularning «Alpomish», «Yakka Ahmad», «Oysuluv», «Kuntug'mish», «Go'ro'g'lining tug'ilishi», «Yunus pari», «Misqol pari», «Avazxon», «Hasanxon» kabi dostonlari yozib olingan. Bu dostonchilik maktabiga Ergash Jumanbulbul o'g'lining ota-bobolari asos solganligi taxmin qilinadi. Bu maktab Yodgor, Lafas, Mulla Tosh, Sulton kampir, Tilla kampir, Jolmon baxshi kabi o'nlab dostonchilarni birlashtiradi.

XIX asrda mavjud bo'lgan yana bir epik markaz Shahrisabz dostonchilik markazidir. Bu maktabning so'nggi vakili Abdulla Nurali o'g'li (1874–1957)dir. U kuylagan dostonlar sho'x, quvnoq, ko'tarinki ruhda aytilishi, kuylarning yoqimlilik bilan ajralib turadi.

Atoqli xalq shoiri Islom Nazar o'g'li (1874–1953) bir tomondan Shahrisabz, ikkinchi tomondan qo'rg'on dostonchilik maktabi bilan bog'liq bo'lgan. Uning ijro usuli va undan yozib olingan «Orzigul», «Sohibqiron», «Erali va Sherali», «Kuntug'mish» kabi dostonlarga nazar tashlar ekanmiz, ularda har ikki maktabga xos xususiyatlarni ko'ramiz.

O'zbekistonning janubida yashovchi ko'pgina baxshilar Sherobod dostonchilik maktabi bilan bog'liqdir. XIX asrning II yarmi va XX asr boshlarida yashagan bu maktabning mashhur vakili Shernazar Beknazar o'g'li va uning shogirdlari-Mardonqo'l Avliyoqul o'g'li, Normurod baxshi, Nurali Boymat o'g'li, Bo'riboy Ahmad o'g'li kabi baxshi shoirlar shu maktab vakillaridir. Surxondaryo, Qashqadaryo va Janubiy Tojikiston baxshilari o'zaro doimo aloqada bo'lganligiga uchun ularning ko'pgina dostonlari Sherobod dostonchilik maktabi bilan bog'langan. Ularning repertuarida «Oltin qovoq», «Ollonazar Olchinbek» va boshqa dostonlar uchraydi. Janubiy Tojikistonda yashovchi o'zbek-laqay baxshilarining dostonlari badiiy tasvir vositalari jihatidan o'ziga xos xususiyatga ega. Ularning repertuarlarining bir qismini «Go'ro'g'li» dostoni tashkil etadi.

Xorazm dostonchilik maktabi san'ati boshqa dostonchilik maktablaridan uslubi jihatidan farq qiladi. Xorazm dostonlari yozma manbaga ega bo'lib, ba'zan aytuvchi qo'lida qo'lyozma matni ham bo'ladi, musiqa yetakchi rol o'ynaydi. Xorazm baxshilarining kuylari xilma-xildir. Dostonning har bir qo'shig'i muay-

yan kuyda ijro etiladi. Dostonchilar bularni baxshi yo'llari yoki baxshi na'malari deb yuritadilar. Xorazm dostonchiligini o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, bu yerda qahramonlik dostoni «Alpomish» uchramaydi, aksincha, Xorazm baxshilari repertuarlaridagi ishqiy-romanik dostonlarning aksariyati respublikamizning boshqa yerlarida mavjud emas.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan baxshilik maktablari qanchalik o'ziga xoslik kasb etmasin, ularda umumdostonchilik an'analari yetakchilik qiladi. Barcha o'ziga xosliklar individual uslub belgilari, lokal xususiyatlar umumdostonchilik an'analari doirasida hayotiydir.

DOSTONLAR TASNIFI

O'zbek xalq dostonlari nihoyatda ko'p turlarga bo'linib, uzoq asrlar kuylanib kelingan. Dostonlar, dastlab V.M. Jirmunskiy va X.T.Zarifov, keyinchalik M. Saidov tomonidan tasnif qilindi. O'zbek xalq dostonlari qahramonlik, jangnoma, tarixiy, romanik va kitobiy dostonlarga bo'linadi.

Qahramonlik dostonlari. O'zbek xalq dostonchilik taraqqiyotida qahramonlik va romanik dostonlar alohida ajralib turadi. Bu dostonlar yaratilish tarixi va muhiti bilan ham boshqa dostonlardan ajralib turadi.

Qahramonlik dostonlari ko'chmanchilik va yarim ko'chmanchilik hayoti bilan mahkam bog'liqdir. Bir qator urug' va qabilalarning muayyan xalq sifatida tashkil topa borishi, ilk davlatchilik kurtaklarini paydo bo'lishi va shu munosabat bilan xalqlar va elatlarning o'z mustaqilliklari uchun chet el bosqinchilariga qarshi mardonavor kurashlari qahramonlik dostonlari uchun boy material bo'ladi. Qahramonlik dostonlari bizgacha sof holda «Alpomish» timsolida yetib kelgan.

Jangnoma dostonlar. Tarixiy va afsonaviy urushlarda shaxslarning jasorati, qahramonligini tasvirlovchi dostonlar jangnoma-dostonlar deb yuritiladi.

Islom dini O'rta Osiyo xalqlari o'rtasida yoyilayotgan davrda «Jangnomai Abo Muslim», «Jangnomayi Amir Hamza» kabi jangnoma dostonlar vujudga keldi. O'rta Osiyoda keng tarqalgan jangnomalarning qadimgi namunalari Firdavsiyning «Shohnoma»sini va «Jangnomayi Jamshid», «Xushang», «To'maris» kabilarni ko'rsatish mumkin.

Tarixiy dostonlar. Tarixda bo'lib o'tgan voqea va hodisalar, ay-

rim tarixiy shaxslar faoliyati asosida yaratilgan tarixiy dostonlar baxshilar repertuarlaridan boshqa dostonlarga nisbatan kam o'rin egallaydi. Ularda tarixiy haqiqat bilan afsona, fakt bilan badiiy to'qima chatishib ketgan. Shu bilan birga, ularning mavzusi, timsollari, g'oyalari aniq tarixiy sharoitdagi kurashlar bilan bog'liqdir. Tarixiy dostonlar xususiyatlariga ko'ra:

- a) tarixiy-qahramonli;
- b) tarixiy-fantastik;
- d) tarixiy-anii yoki yangi dostonlar;
- e) avtobiografik dostonlar kabi turlarga bo'linadi.

Tarixiy-qahramonlik dostonlarga «Oysuluv» dostoni,

Tarixiy-fantastik dostonlarga, «Shayboniyxon» dostoni qahramonlari yarim tarixiy, yarim afsonaviy xarakterga ega bo'lsa, «Tulumbiy»da ayrim tarixiy shaxslar nomidan bo'lak hech narsa qolmagan.

Tarixiy – anii yoki yangi dostonlarga XIX asrning II yarmi va XX asr boshlarida yaratilgan asarlar kiradi. Bu doston qahramonlarining hayotda prototiplari mavjud. «Namoz», «Jizzax qo'zg'oloni», «Mardikor» kabi dostonlarni ko'rsatish mumkin.

Romanik dostonlar. O'zbek xalq dostonlarining eng katta turi romanik dostonlardir. Bu turga kiruvchi dostonlar syujetlari nihoyatda bir-biriga o'xshash bo'lib, odatda, qahramon go'zal qizga oshiq bo'lib safarga otlanadi, ajoyib-g'aroyib hodisalarni boshidan kechiradi, qiynchiliklarni yengib, o'z maqsadiga erishadi. Doston voqealari hashamatli saroylarda, sehrlil bog'larda, bozorlarda, tilsimli qo'rg'onlarda, yer va suv osti yo'llarida kechadi. Bu turdagi dostonlarning mavzusi, timsollari, mazmuni o'ziga xos xususiyatlarga ega va mustaqildir.

Romanik dostonlarda bir necha mavzu baravar ishlangan bo'lib quyidagi turlarga bo'linadi:

- a) qahramonlik-romantik;
- b) ishqiy-romantik;
- d) maishiy-romantik.

Qahramonlik-romanik dostonlarga «Rustamxon», «Yakka Ahmad», «Go'ro'g'li» turkumiga kiruvchi dostonlar kiradi.

Ishqiy – romanik dostonlarga «Kuntug'mish», kabi sevgi mojarolari, sarguzashtli voqealar tasviri berilgan dostonlar kiradi.

Maishiy-romanik dostonlarga «Sohibqiron», «Orzigul», «Erali bilan Sherali» dostonlari kiradi va bu dostonlarda insonning maishiy turmushi bilan bog'liq turli-tuman tafsilotlarni batafsil tasvirlashga harakat qilinadi.

Kitobiy dostonlar. O‘zbek baxshilari repertuaridan mustahkam o‘rin olgan epik asarlarni maxsus bir turini- mumtoz poeziya namunalari baxshilar tomonidan folklorga xos ravishda qayta ishlanishi natijasida yuzaga kelgan yoki yaratilishi jihatdan yozma adabiy manbaga ega bo‘lgan, shuningdek, bevosita yozma adabiyot ta‘sirida yaratilgan asarlar—kitobiy dostonlar deyiladi. Masalan, «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Bahrom va Gulandom» Alisher Navoiy dostonlari, «Yusuf va Zulayxo» syujetidagi turkiy va forsiy asarlar, «Rustam Doston», «Vomiq bilan Uzro» dostonlari forschadan ozarbayjonchaga qilingan tarjimalar asosida yaratilgan. Xorazm dostonchiligida, shuningdek, «Malikayi Dilorom», «Tohir va Zuhra» kabi bir qancha dostonlarda xos og‘zaki ham yozma adabiyotning shakllarini uchratishimiz mumkin.

Xalq dostonlari uning janr xususiyatlari va turlari haqidagi bu fikrlar o‘zbek eposi juda boy rang-barang ekanligidan dalolat berib turibdi.

Ana shunday dostonlardan biri— «Alpomish» dostonidir. Doston bir qancha turkiy va ular bilan yaqin hududlarda istiqomat qilgan turkiy bo‘lmagan xalqlar orasida keng tarqalgan. Uning o‘zbek, qoraqalpoq, qirg‘iz, versiyalari doston shaklida, oltoy, tatar, tojik va O‘rta Osiyo arablari versiyalari ertak va rivoyat tarzida uchraydi. «Alpomish» dostoni ko‘chmanchi-chorvador qo‘ng‘iroq qabilasi orasida patriarxal-urug‘chilik munosabatlari yemirila boshlagan davrda, mo‘g‘illar istilosidan avval, Sirdaryoning quyi oqimida va Orol dengizi atroflarida yuzaga kelgan degan xulosani folklorshunos olim H.Zaqifov tahlilida ko‘ramiz. Dostonni X–XI asrlarda yaratilgan deyishimiz mumkin. «Alpomish» dostoni o‘zbek xalqi orasida ikki versiya va ko‘plab variantlarda juda keng tarqalgan. Uning variantlari 28 xalq baxshisidan 33 marta yozib olingan. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Pulkan shoir, Berdi baxshi, Berdi Sodiq o‘g‘li, Abdulla Nurali o‘g‘li kabi yetakchi baxshilardan yozib olingan.

«Go‘ro‘g‘li» turkum dostonlari xalq dostonchiligida har biri mustaqil yashagan va ayrim-ayrim nomga ega bo‘lgan asarlar silsilasi bir-biriga birlashgan kattakon turkum bo‘lib, Yaqin va O‘rta Sharqda juda keng tarqalgan. Bu turkum o‘zbek, tojik, qozoq, qoraqalpoq va tatarlarda «Go‘ro‘g‘li», turkmanlarda Go‘ro‘g‘li, Ko‘ro‘g‘li, Karo‘g‘li; ozarbayjon, gruzin, turk va boshqalarda Ko‘ro‘g‘li nomi bilan mashhur. Xorazmda va o‘zbeklar orasida tarqalgan bu dostonning qirqdan ortiq variantlari mavjud. Ozarbayjon variantini 1842-yil to‘plab, nashr ettirgan diplomat Xodko: «Osiyoda biror burchak yo‘qki, u yerda Go‘ro‘g‘lining nomi aytil-

masin. Hatto Bessarabiya va Moldaviyada uning otini eshitasiz. Agar adiblarning shuhrati va mashhurligi ularning o'quvchilarining soni bilan hisoblansa, unda Firdavsiy Ko'ro'g'lidan bir oz ortiq bo'ladi» deb yozgan edi.

«Go'ro'g'li» turkumidagi dostonlar katta ikki tarmoqqa bo'linadi:

1. Zakavkazye va Yaqin Sharq versiyalari (ozarbayjon, arman, gruzin, turk va boshq.).

2. O'rta Osiyo versiyalari (o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, tojik va boshq.). Bu ikki tarmoq bir umumiylikka ega bo'lsa ham dostondagi voqelik, kuylanish va tarqalish xususiyatlari farq qiladi.

Uning ayrim tugallanmagan variantlarini Surxondaryo va Janubiy Tojikistonda yashovchi o'zbeklardan 1945-yilda folklorshunos olim M. Afzalov yozib olgan.

O'zbek xalqi Go'ro'g'li va uning yigitlari haqida «Kunlarim», «Go'ro'g'li», «Armoning qolmasin», «Bormi jahonda», «Armonim qolmadi» kabi termalar bilan bir qatorda bir yarim-ikki ming misradan o'n ikki ming misragacha bo'lgan dostonlarni yaratganlar. Bu versiyalardan biri Xorazm «Go'ru g'li» dostonlari bo'lib, bu doston turkman versiyasiga o'xshash. Shu nom bilan ataluvchi dostonlar soni 13–14 ta bo'lib, ular kuylanish, ijodiy uslubi, syujeti jihatdan bir-biridan farqlanadi. Xorazm va respublikaning boshqa hududlarida tarqalgan «Go'ro'g'li» dostoni qirqdan ortiqdir. Bu dostonlar variantlari bilan ham yozib olingan. Turkumga quyidagi dostonlar kiradi: «Go'ro'g'lining tug'ilishi va bolaligi», «Yunus pari», «Misqol pari», «Gulnor pari», «Rayhon arab», «Bektosh arab», «Xoldorxon», «Zamonbek», «Hasanxon», «Chambil qamali», «Dalli», «Avazxon», «Intizor», «Bo'tako'z», «Qunduz bilan Yulduz», «Malikayi ayyor», «Oltin qovoq», «Avazning arazi», «Nurali», «Malla savdogar», «Ravshan» «Ero'g'li» va boshqalar. Dostonlardagi ma'lumotlarga qaraganda Go'ro'g'liga uzoq umr 120 yosh berilgan. U o'lmaydi, afsonaviy Suldo'zi tog'iga g'oyib bo'ladi. Rivoyatlarga qaraganda uning sevimli yoflari Misqol pari, Yunus parilar Go'ro'g'liga sening nomingni o'chirmaymiz, dostoningni aytiramiz, deb va'da bergan ekanlar. Parilar esa o'lmaydilar ular baxshilarga qo'nib Go'ro'g'li so'zlarini ularning ichiga joylarmish, shuning uchun baxshilar ham Go'ro'g'lining o'g'illari emish. Shunday qilib, xalq dostonlari milliy iftixor va o'z-o'zini anglash, millatlararo do'stlik, vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalashda muhim vazifani o'taydi.

XALQ TERMALARI VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

O'zbek xalq og'zaki ijodining mustaqil janrlaridan biri— termadir. Terma atamasi o'zbek folkloridagi bir janrni anglatadi. Termalarning yartilishida baxshilarning xizmati katta. Terma atamasining lug'aviy ma'nosi tanlangan, saylangan, terib tanlab tizish demakdir.

Pand-nasihat, o'dob-axloq, soz va so'z haqida yaratilgan, ijtimoiy hayotdagi turli hodisalar, inson va jonivorlarning ta'rifi yoki tanqidiga bag'ishlangan, baxshilar tomonidan kuylanib, 12 satrdan 200 satrgacha bo'lgan lirik, liro-epik she'rlarga terma deyiladi.

Dostonchi baxshilar o'rtasida «Nima aytay?» termasi keng tarqalgan bu termalarning hajmi aytuvchining dostonchilik repertuari bilan bog'liq. Baxshilar doston boshlamasdan oldin davradagilarning diqqatini o'ziga jalb uchun terma boshlaydi. Bu termalarda baxshi o'zining dostonlari ro'yxatini bayon qiladi. Shu tariqa doston kuylash jarayoni boshlanadi.

O'n beshida oyday to'lgan,
Olmosini belga solgan,
Go'ro'g'liga xizmat qilgan,
Qirq yigitni girdga olgan,
So'rab o'tdi Avaz polvon,
Avazxondan aytayinmi?

Termalarning kattagina qismini tarjimai holni kuylovchi asarlar tashkil etadi. Bunday termalarda baxshilar do'mbirasi, dutori ba'zan qo'biziga murojaat etib, ularni suhbatdoshday jonlantirib, hayotining ayrim daqiqalarini, o'z dostonlarining ayrim xususiyatlarini bayon etib boradi, Masalan, Po'lkani shoir shunday kuylaydi;

Yangi tor tortay toringni uzib,
Undan so'ng so'yalarsan suyaging qizib...
Odamlar ketmasin majlisni buzib,
Moskov, Nijniy, Qozon, No'g'oyin kezib,
Shaharni qidirib yurgan do'mbiram.

Shoirning nazdida uning sozi tovushiga quvvat, majlisga kosa-gul, ulfatlarni ko'nglini oluvchi yordamchidir.

Uch-to'rt og'iz maqtab qo'yay man sani,
Qovurg'angdan qirib solgan randani,
Xonish qilsam yolg'iz qo'yaysan mani,
Xonishimga yordam bergan dutorim.

Termalarda xalqimizdagi mardlik g'ururi, sadoqatlik iftixori, halol mehnat bilan faxrlanish his-tuyg'usi alanganib turadi. Shunday asarlardan biri Go'ro'g'li tilidan aytiladigan «Kunlarim» termasidir. Termada «Go'ro'g'li» turkumiga kiruvchi har bir doston voqealariga chiroyli bir ishora bo'lib, bunda xalqparvar Go'ro'g'li va uning bosib o'tgan yo'li tinglovchi ko'z o'ngida yaqqol namoyon bo'ladi:

Bu gaplarni aytdi Chambilning shoyi,
Bepilik yonarmi chiroqning moyi,
Qariganda bo'lib farzand gadoyi,
Bebahra bo'lib parilar hamroyi,
Quloch urib, qurug' qolgan kunlarim.

Baxshilar kuylab kelgan «Bormi jahonda», «Armoning qolmasin», «Go'ro'g'li», «Go'ro'g'libek-zo'r botir» kabi termalar shu mavzulardagi termalardir.

Termalarning anchagina qismi didaktik xarakterga ega bo'lib, yaxshilik, adolat, mardlik, chin so'zlik ulug'langan, nomardlik, qo'rqqoqlik, fisqu-fasod qoralangan:

Har narsadan suhan qimmat, yoronlar,
Yaxshi so'zni qiling hurmat, yoronlar,
Vaqtigizni qadrin bilib o'tkazing,
Baridan shu dam g'animat, yoronlar.

Atoqli turkman shoiri Mahtumquli asarlarining ta'siridan bir necha o'zbek baxshilari, masalan, Islom shoir, Umir Safar o'g'li, Xorazm baxshilaridan ayrimlari va boshqalar tarbiya mavzusida termalar yaratdilar.

O'ZBEK BOLALAR FOLKLORI¹

Ijodkor xalq badiiy so'zning yosh avlod tarbiyasidagi kuchi va jozibasiga qadim zamonlardanoq ishongan. U o'zining eng noyob asarlarini so'z mo'jizasi bilan bunyoda keltirgan.

Bolalar folklori kichkintoylar olami bilan kattalar dunyosini uyg'unlashuvi oqibatida yuzaga kelgan o'yinlar, qo'shiqlarning butun bir tizimi tarzida tarkib topgan. Bolalar folklori bolalarda eng yaxshi fazilatlarini— vatanparvarlik, mehnatga muhabbat, kishilarga ishonch, do'stlarga sadoqat tuyg'ularini kattalar bilan birga tabiat ofatlariga qarshi kurashish va ularni yengish malakasini tarbiyalaydi. Bolalar folklorini yaratishda kattalar ham bolalar ham

¹Jahongirov. O'zbek bolalar folklori. «O'qituvchi». —T.: 1975-y.

baravar hissa qo'shishgan. Kattalar bolalarni erkalash she'rlarini yaratishganki, alla, aytim, olqish, ovutmachiq, qiziqmashiq, singari erkalash xususiyatlariga ega bo'lgan bu janrlar onalik folklori tarzida ifodalangan.

Onalik folklori keng ma'nodagi tushuncha bo'lib, poetik namunalarda erkalash xususiyati yetakchidir. Shu mantiqqa asoslanib, onalik folklorida poetik asarlar silsilasini nasriy asarlar guruhidan ravshanroq ajratish niyatida onalarni erkalovchi she'rlari deb ham atash mumkin. O'z navbatida erkalash she'riyatiga mansub namunalarning ijro maqsadi, o'rni va bola yoshi, saviyasiga ko'ra guruhlarga bo'linadi. Birinchi guruhga mansub qo'shiqlar bolaning beshikdagi davri bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun ularni beshik qo'shiqlari deyishadi. Allalar, aytimlar, olqishlar, ana shunday xususiyatlarga ega. Beshik qo'shiqlari bola uch yoshga to'lgunga qadar aytiladi. Allalar ijtimoiy estetik qiymatiga ko'ra, birinchidan—bolalarni uxlatishdan iborat, ikkinchidan — tarbiyaviy estetik mohiyat kasb etishdan iborat. Beshik qo'shiqlarida eng ko'zga ko'rinadigan mavzu— bola ta'rifi. Ona o'z bolasini o'zi bilgan yaxshi so'zlar bilan ta'riflaydi.

Ko'zi boqqan qo'y etsin,
Topganimga to'y yetsin .
To'y-to'ylarga ulansin,
Davlat boshingga o'rnashsin.
Alla-yo, alla.

Ikkinchi guruhga oid qo'shiqlar bola tug'ilganidan to 10–11 yoshga to'lguncha ijro etiladigan aslida beshik bilan bog'lanmagan onalik mehri tarovatidan yuzaga kelgan badihalardir. Bular suyish qo'shiqlari bo'lib, erkalatmalar, ovutmashoqlar, qiziqmashoqlardan tarkib topgan.

Aytim -olqishlar erkalovchi ruhdagi rasm-rusm bo'lib, aksariyati, asosan, bolalarning beshik davriga oid turli-tuman marosimlarda ijro etiladi. Chaqoloq beshikka solinganda, cho'miltirilganda, birinchi qadamini bosganda, sochi birinchi olinganda, bola sha'niga isiriq tutilganda, xullas shunday rasm-rusmlarning mazmuniga yarasha aytim olqishlari mavjud. Bolaga yangi kiyim kiydirish qutloviga aylangan quyidagi aytim-olqishga e'tibor berish lozim:

San bir yillik,
Man ming yillik,
Kiya-kiya to'zdiraylik,
Dugonalaringdan o'zdiraylik.

ERKALAMALAR

Erkalamalar kichkintoylar g'ashlanganda, baqirib-chinqirib yig'laganda, betoqatligi oshganda aytilib, kayfiyatning ko'tarinkiligini eshirish uchun ijro etiladi:

O, shugina, shiringina,
Munchagina, tunchagina.
Kunchagina, shunchagina,
Yashnab turgan kunchagina.

«Yasha», «Balli», «Ofarin», «Rahmat», kabi erkalovchi, olqishlovchi so'zlar ham bolaga quvonch bag'ishlaydi.

Ovutmachhoqlar. Onaning bola bilan bo'lgan munosabatlarida juda qadim zamonlardagi odatlarning izlarini ko'rishimiz mumkin. Bular kishilarning tirikchilik shakllari, turli xil an'analari bilan birga, ularning o'z davrida animistik, totemistik tushunchalarda bo'lganligini tasdiqlaydi. Biz bu tushunchalarni ba'zi keksalar-ning harakatlari vaqtida kuzatamiz. Masalan: ona bolani beshikka belayotganida o'ng qo'li bilan qovo'zni tekislab, keyin bolani yotqizayotib, shunday so'zlarni aytadi:

Egalari kirsin, bobovlari chiqsin.

Bolani beshikdan yechib olayotganda esa: uyqusi beshikda qolsin, - deydi. Diqqatimizni ikki narsa o'ziga jalb qiladi; bir-beshikning egasi bola. Bolani beshikka belaguncha bu joyda, vaqtincha, boshqa bir narsa egallab turibdi. Egasi kelganda u joyni bo'shatishi kerak. Ikkinchi: uyqu boladan ajrab, beshikda qolishi kerak ekan.

Mahmud Koshg'ariyning nazari ham bu faktni ham chetlab o'tmadi: — Isiriq, isiriq deyilganda «ey jin, es-hushingni yo'qot», «deyilgani bo'ladi» deb izoh beradi olim.

Ovutmachhoqlarning ma'lum bir turkumi onalarning qilgan harakatlarida o'Ichovlik vazifalarini ham o'taydi. Masalan, ona beshikdagi bolani yechib olar ekan, o'ng bilagidan g'oz ko'tarib, «os, os,» - deydi, yana chap bilagidan ko'tarib, «os,...os,» - deydi.

Ovutmachhoqlar yana bolalarning tinchlantirish ehtiyojini qondiruvchi maqtovlardir:

Vuy-vuy, shuginani kim urdi,
Vuy-vuy, shuginaga kim lab burdi.
Yig'lama oppoqqinam,
Boshimdagi qalpoqqinam.

Tez aytishlar va topishmoqlar. Tez aytishlar yoki so'z o'yinlari o'zbek xalq og'zaki ijodi turlaridan biri bo'lib, ayrim nutq tovush-

larining ko'p qaytarilishi yoki tovushlarning so'z va iboralar tarkibida murakkab joylashtirishiga asoslanadi. Tez aytishlar vositasida bolalar ona tilidagi tovush va so'zlarni ravon, burro, aniq talaffuz etishni, tovushlar ohangdorligini, so'zlarning nozik ma'nolarini his va idrok qilish, aniqlash va ilg'ab olishni mashq qiladilar:

Qishda kishmish pishmasmish,

Pishsa kishmish qishmasmish.

O'zbek xalq og'zaki ijodida tez aytishlar, so'z o'yinlari qadim zamonlardan beri bor. Lutfiy, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning asarlarida ham so'z o'yinlarini uchratishimiz mumkin. A.Navoiy tuyuqlari haqida so'z yuritar ekan, uning ildizlari xalq poeziyasi janrlaridan kelib chiqishiga ishora qilib, tuyuqlarni «yor-yor», «qo'shiq»lar bilan bir o'ringa qo'yadi. Tajnis va iyhom- ikki va undan ko'p ma'noli so'z san'ati deb ta'riflaydi. Aksariyat tez aytishlar talaffuzi bir-biridan katta farq qildigan fonemalar asosida, jumladan, «Sh», «L», «R» undoshlari asosida tuzaladilar. Masalan: «Lola arralaydi, Sora allalaydi».

Bu birinchi turkumga qirgan tez aytishlar yordami bilan uchto'rt yoshga kirgan bolalarning «R», «Sh» tovushlarini to'g'ri talaffuz qilishi yoki «L»va «S»ga almashtirib yuborishi ma'lum bo'ladi.

Ikkinchi bir turkum tez aytishlar borki, unda bolani ayrim tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish bilan birga, bolaning xayolini bir joyga yig'ishga, jumlaning mantiqiy urg'usini aniqlab olishga jalb qilinaadi.

Masalan: Bir tup tut, bir tup tutning tagida bir bir tup turp. Bir tup tut bir tup turpning tomirini turtib turibdi, bir tup turp bir tup tutning tomirini turtib turibdi.

Ko'rinib turibdiki, misoldagi «tut», «turp» so'zlarini to'g'ri talaffuz qilishdan tashqari, jumladan, to'g'ri takrorlash, tutning va turpning turgan o'imi va holatlarini yodda saqlab qolish kerak.

Tez aytishlar kichik va maktab yoshidagi bolalar nutqida ayrim nutq tovushlarni buzib talaffuz etish holilarini tuzatishga, to'g'ri so'zlaydigan bolalarda esa adabiy talaffuz normalarini mustahkamlashga yordam beradi.

Bolaga tish chiqishi bilan bog'liq irimlarda esa «yordamchi» so'zlar bo'lmay, bunda xalq og'zidagi afsonalar aytiladi, ba'zi odatiy ishlar qilinadi. Onalar qozonda bug'doy qovurib, chaqaloqning ustidan sohadilar, «chaqaloqning tishlari xuddi bug'doydek chiroyli chiqsin deyishadi. To'piangan bolalarni bug'doy qovurmochi bilan mehmon qilinadi. Ba'zan bu odatni-bug'doy sochilishi-«nasibalik bo'lsin» deb tushuntiradilar. Chorva-

dor joylarda chaqaloqning tishi chiqish vaqtida otga mindirib olishadi. «Ot tishi chiqadi» deyishadi. Agar qo‘yga mindirilsa, «qo‘y tish» chiqar ekan.

SO‘Z O‘YINLARI

O‘zbek xalqining askiya, tuyuqlar, qochirimlar, bahri bayt singari og‘zaki ijodlarida so‘z o‘yinlari asosiy rol o‘ynaydi. Bolalar juda yoshligidan boshlab kattalar og‘zidan eshitgan-ona tili boyligimizni juda ustalik bilan namoyish qilishning guvohi bo‘ladilar. Ayni vaqtda bolalar bir so‘zning bir necha ma‘nosini tushunishga mashq qiladilar. Keyinchalik o‘zlari ham so‘z o‘yiniga singari so‘z jummalari to‘qiydilar Masalan, bolalar kattalardan mana shu so‘z o‘yinlarini eshitadi:

Qizarib pishgan olmadi,
Olmadan nega olmadi,
Olmagani xo‘b bo‘bdi,
Endi kelsa olma, di.

Bu xalq og‘zida aytilib yurgan to‘rtlik tajnis asosida qurilgan, mumtoz adabiyotda tuyuqning o‘zi. Bola buning aynan o‘ziga o‘xshash boshqa bar variantini «to‘qib» bera olmadi, balki o‘z kuchiga qarab, to‘rtlik emas, ikki yo‘ldan iborat so‘z o‘yinni ijod qildi:

Olmaxon olmani ol, ma!
Olmani olmaxondan olma.

Bu yerda olma so‘zi avval buyruq, keyin inkor ma‘nosida qo‘llangan. Misralarda so‘z o‘yini ham shu ikki xil ma‘no berish asosida qurilgan bo‘lib, unda bolaning shu so‘z ma‘nolarini farqlay olishi talab etiladi.

BOLALAR QO‘SHIQLARI

Kishilar o‘z mehnatlarini, turmushdagi barcha voqealarni qo‘shiq bilan bezaganlar. O‘zbek xalq og‘zaki ijodiyoti boyliklari ichida kattalardan bolalarga meros qoladigan qo‘shiqlarning salmoqli turi mehnat qo‘shiqlaridir.

Oq sigir, ko‘k sigir,
Qani tezroq bo‘l sigir,
Doni menga,
Somonni senga,
Xo‘p, xo‘p.

Kattalarning bolalarga aytib beradigan, keyinchalik bolalarga meros bo'lib qoladigan yana bir qo'shiqlar turkumi Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk»dan to bizning davrimizgacha aytilib kelingan jonli va jonsiz personajlar bahsidir:

Oq sholi, ko'k sholi,
Oq sholini oqlaylik,
Ko'k sholini ko'klaylik,
Niyozbekka saqlaylik.

Xalq o'rtasida suv haqida juda ko'plab afsonalar, qo'shiqlar, ertaklar yaratilgan. O'zbek xalqining eng yaxshi orzulari suv bilan bog'langan. Bu umumxalq ruhidan bolalar ham chetda qolmaganlar. Ularning o'yin va ashularida ham suv, tabiat hodisalari mavzuyi bor, ulardan biri yomg'ir haqidadir:

Yomg'ir yog'aloq,
Echki sog'aloq.
Boyning o'g'lini,
Qorni dumaloq.

Qo'shiqning bir necha variantlari mavjud:

Yomg'ir yog'aloq,
Yam-yashil o'tloq.
Endi ekinlar,
Chiqarar quloq.

Buxoro viloyatining o'zbek va tojik tillari asosida shirin-shakar qilib; «Yomg'ir-yomg'ir bore-bore yoqqaningni ko'ray»—deyishadi. Farg'onada yosh qizlar «Yomg'ir yog', Sochim o's!» deb qichqirishadi. Surxondaryoda esa yomg'ir yoqqanda aytiladigan shunday qo'shiq bor:

Yomg'ir yog'sin,
O'ralar to'lsin,
Sur xotin,
Sur xotinga suv kerak,
Qozon to'la un kerak.

Bunda yomg'irning «qozon-qozon un» keltirishi ochiqdan-ochiq aytib qo'yiladi. Don-un, un-non, bolaga esa non kerak. Qor haqida ham qo'shiqlar bor. Qadim zamonda qor kambag'allik, ochlik, yupinlik ramzi edi. Qorni yog'ishi inson irodasidan tashqari hodisa, odamning unga itoat qilishdan boshqa chorasi yo'q deb tushunilardi. Shuning uchun qor xatlar: «qor yog'dirgan xudoyimning o'zi» so'zlari bilan boshlanar edi. Qorda qolgan odam nochor odam sifatida tasvirlanadi. Ko'pincha, chol va kampirlar tilga olinardi. «Qolgan ishga qor yog'ar» maqollari esa omadsizlik-

dan. Ishni yurishmasligidan darak beradigan qo'shiqlardan bir misol:

Qor yog'adi guppillab,
Ammam kelar cho'kalab.
Ko'rpacha soling yonimga,
Ammam kelsa uyimga.

Bahor fasli kelishi bilan bolalar o'yinlarini boshlab yuboradilar. O'g'il bolalar osmonga varrak uchiradilar. Qiz bolalar sochlariga bargak taqadilar. Bolalar tol chiviqlarini qo'l bilan uqalab, asta po'stini shilib, o'zlariga sivizg'alar yasaydilar. Kichkintoylar xivichlarni «toy» qilib minishadilar. Boychechak bolalarning birinchi qo'shig'iga sazovor bo'ladi. Ular bu qo'shiqni baland ovoz bilan bab-baravar aytadilar.

Boychechagim boylandi,
Qozon to'la ayroni,
Ayroningdan bermasang,
Qozonlaring vayroni.

Qattiq yerdan qazlab chiqqan boychechak,
Yumshoq yerdan yugurib chiqqan boychechak.

Boychechakni tutdilar,
Tut yog'ochga osdilar.
Qilich minan chopdilar,
Baxmal minan yopdilar.

O'zbek va tojik etnografiyasining, folklorining tadqiqotchisi professor Y.E.M. Peshchereva suhbat vaqtida nega «boychechakni tutdilar, tut yog'ochga osdilar» deyilishiga diqqatimizni tortdi. Haqiqatan ham, qadim Sharqda tut daraxti muqaddas daraxtlardan biri deb hisoblangan. O'zbeklarda mazkur e'tiqodga ko'ra daraxtning «egasi bor» deb hisoblanadi, ehtiyot qilinadi, uning tanasidan xotinlar sochini tarash uchun taroq, bola belaydigan beshik qilinadi. Boychechak xalq orasida ramziy timsol bo'lsa kerak. Negaki, u xudoi odam singari tasvirlanadi. Uni «tutadilar», «tut yog'ochga osadilar», «qilich bilan chopadilar», «baxmal bilan yopadilar». Bunday ishlar bundan 2–3 ming yil ilgari qadim Misr, Yunonda ham bo'lganini etnograf tarixchilar biladilar.

Boychechak bolalar tushunchasida ijodiy timsol u, yoshlik, jo'shqinlik ramzi. U o'zbek bolalari og'zidan yozib olingan bir variantda boychechakni qilich bilan chopish «kamlik qiladi», uni «balqon» bilan uradilar va keyin qilich bilan chopadilar. Demak, u yana «isyonkor» ham ekan. O'zbek xalqida biror kishi o'z kuchi bilan qiynalib o'sgan bo'lsa, «axir, u qattiq yerdan qatalab chiqqan

boychechakning o'zi-da!» deyishadi. Buning hammasi boychechak mehnatkash kishi timsoli ekanidan dalolat beradi. Toshkent viloyatida:

Boychechagim, boychechak,
Etagim to'la boychechak.
yoki Boychechagim bolasi,
Qulog'ida donasi,
Donasini olay desam,
Yugurib chiqdi onasi.

Bahor faslida «Chitti gul» qo'shiqlari ham aytilib, kelingan. Bu qo'shiq bilan bolalar qo'shiqqa mos harakatlar bilan o'ynaydilar. Qo'shiq ohangi o'yinga o'lchov mezon bo'lib uni yetaklaydi. O'yin esa qo'shiqning mazmunini to'ldiradi. Unga harakat bag'ishlaydi. Bola bir vaqtning o'yindan ham ma'naviy, ham jismoniy jihatdan rohatlanadi. Qo'shiq ijrosini ko'z oldimizga keltirib ko'raylik. Qizlar juft-juft bo'lishib, kaftlarini bir vaqtda bir-biriga urib, aylanishib, yana urishtirib, qo'shiq aytadilar. «Chittigulo-chittigul», deyilganda qizlar yuzma-yuz turadilar. Qo'llarni ma'lum tartib bilan bir-birlariga qarsillab tegib, chiroyli ohang kasb etadi. «Hay-yu, chittigul, hay-yu chittigul» de-yilganda qizlar bir xil maqom bilan turgan joylarida gir aylanadilar:

Chitti gul-o, chittigul,
Hay-yu chittigul,
Chitti gulga gul bosay,
Bir yonini yonbosay,
Hay-yu, chittigul,
Hay-yu chittigul,
Qo'ling qo'lvog'dan bo'lsin,
Beling belbog'dan bo'lsin
Hay-yu, chittigul,
Hay-yu, Chittigul.

Yoz faslida «Laylak keldi, yoz bo'ldi» qo'shig'i ko'proq aytiladi. Bu qo'shiq kunlarning isishidan, ekinlarning unishidan, qushlarning kelishidan, ariqlardan suvlarning to'lib oqishidan, bola ko'nglida quvonch uyg'otadi.

Bolalar ota-onalaridan laylak haqidan ko'p ertaklar, afsonalar eshitganlar. Ular laylakni yoz faslini elchisi sifatida tasavvur etadilar:

Laylak keldi, yoz bo'ldi,
Qanoti qog'oz bo'ldi,
Laylak boradi toqqa,

Quloqlarida halqa.
Halqasi tushib qoldi.
O'tirdi yig'lamoqqa.
Laylak keldi, ilon qoch,
Bola chaqang olib qoch,
Yangi to'ning kiyib qoch.
Eski to'ning tashlab qoch.

Qo'shiqning bolalar qo'shig'iga xos yana bir tomoni bor: qo'shiq oxiri kutilmaganda «ilon qoch», to'rtligi bilan tugallanadi. Avvalo, ilonni bola yomon ko'radi, ilon bor joyda cho'mila olmaydi.

Ikkinchidan, laylak ilon yeydi, shuning uchun qochish kerak. Uchinchidan, yoz bo'lib, laylak kelishi vaqtidan ilon tullab, po'st tashlaydi. Bu qo'shiq fasl izining ko'rinishidir. Qo'shiqning variantlari ko'p. Ba'zi qo'shiqlarda laylakni «opa» deb ataladi va unga hazil mutoyiba bilan murojaat qilinadi:

Laylak opa,
Boshingga kapa,
Takiyam suvga tushib ketdi.
Olib bering, jon opa!

«Oftob chiqdi olamga» qo'shiqlari bir turkum she'rlarini tashkil qiladi. Aslida qo'shiq oftobning chiqishi bilan bolalar, kattalar quvonchiga bag'ishlangan bo'lsa-da, bora-bora u maishiy tus olib ketadi. Bolalarning pishiqchilik—arpa, bug'doy pishishi, yantoq, quvray, ajriq qurib— o'tin bo'lishi, qozon-tandirlarda non yopilishi, bolalarning to'yib non yeyishi imkoni haqida qo'shiq aytilishi kutiladi:

Oftob chiqdi olamga,
Yugurib bordim xolamga,
Xola, xola, kulcha ber!
Xolam dedi: — O'tin ter!
O'tin terdim bir quchoq,
Kulcha yopdi bir o'choq.
O'g'liga berdi yog'liq kulcha,
Menga berdi kuyuk kulcha.

She'r voqeasi qisqa: bola xolasidan kulcha so'raydi, xolasi o'tin terib kel, dedi. Bola o'tin terib keldi, kulcha yopildi. Afsuski, pishgan kulchadan o'tin termagan xolasining o'g'li yog'liq, butun kulcha oladi, u esa «shuncha ishlab», atigi kuyuk non olib qoldi. Bu o'rinda bola «qornidan ham qadriga» xafa. Qo'shiqning aytilishi boisi shu. U deyarli hamma viloyat, tumanlarda aytiladi. Uning elementlari ham

mahalliy til, sharoit, odatlarga qarab o'zgaraveradi. Masalan: Termizda bolaga-ko'moch tegadi, Farg'onada nonning kuyganini, boshqa joylarda-- «menga berdi zig'ichcha» va hokazo. Bola adolat-sizlikdan xafa bo'ladi va xolasi qilgan ishni «birini o'n qilib», bolaga xos mubolag'a bilan tasvirlaydi.

Bola termalari. Bola hayotida qo'shiq, o'yin, mashg'ulotlardan tanaffus bo'lmaydi. Yuqorida keltirib o'tilgan qo'shiqlardan ham mukammalroq, voqealari murakkabroq qo'shiqlar bor. Biz ularni xususiyatlaridan kelib chiqib, afsonaviy qo'shiqlar, voqeaband balo termalari deb atasak ham bo'ladi. Negaki, bolalarning jo'shqinligi va izlanuvchanligi, sabrsizligi va harakatchanligi to'lib toshgan ularning sermahsul fantaziyasi bilan ham yo'g'rilgan. O'zbek bolalari aytadigan «Osmondagi oy», «Asakaning yo'lida» singari qo'shiqlar dialog shaklidagi qo'shiqlar sarasiga kiradi:

- Osmondagi oy,
Saydazim boy,
Nima yeyapsan?
- Olma yeyapman.
- Olmangdan tashla
- Acham urushadi.
- Achang o'lsin.
- Xudo saqlasin.
- Hovlingni supur,
Lo'li o'ynasin,
Qozoningni yuv,
Go'ja qaynasin.

O'zi kichig-u, ichida qancha xalq hikmati borligiga diqqat qiling: olma yeyayotgan kishining davlati Toshkentdagi mashhur savdogar Saydazimboynikidan kam emas, qizg'anchiq «acha»ning boridan yo'g'i yaxshi; hovli supurilsa to'y bo'ladi, to'yda lo'lilar o'yin ko'rsatishadi; qozon yuvilishining ham xosiyati bor — ichi to'lib, ovqat qaynaydi. Ovqatning ham go'jasi qaynasin (palov, shovla, halim pishsin deyayotgani yo'q!) Negaki, faqat go'ja qaynasagina bolalar to'yib-to'yib icha oladilar.

«Tepdim sandiq ochildi» qo'shiqlari voqeaband qissa tariqasida aytiladigan qo'shiqlardan biridir. Bu qo'shiqning bir necha variantlari to'planib, shoir Elbek tomonidan nashr ettirilgan:

- Tilla sandiq ochildi,
Tagiga bodom sochildi.
- U bodomni terolmay,
Qanotlari qayrildi.

Qanot bering uchaylik,
Oq saroyga tushaylik.

Qo'shiq 24 yo'ldan iborat va o'yinning sharti ham bayon qilingan. Qo'shiqda bola fantaziyasi e'tiborga olingan. Bunday qo'shiqlar bolalar qo'shiqchiligining takomillashmagan yuqori darajadagi shakllar bo'lib, qo'shiqchilikning avvalgi yoki keyinchalik quriladigan mayda termalari bosqichini o'tgandan keyingina yuzaga kelgan deyish to'g'ri bo'ladi.

BOLALAR O'YIN FOLKLORI

Xalq ijodi namunasi hisoblangan bolalar o'yinlari o'z tarkibida muayyan ritmik izchillikka asoslangan xatti-harakat, ramziy ma'no kasb etuvchi etnografik detallar, poetik folklor namunalari, ohang va tomoshaviylik elementlarini yaxlit holda mujassamlashtirgan sinkretik hodisadir. Bolalar o'yinlari ajdodlarimiz tafakkurining eng qadimgi elementlaridan biri bo'lgan ibtidoiy rituallar va marosimlarning tarkibiy qismi sifatida juda qadim zamonlarda yuzaga kelgan. Davrlar o'tishi bilan bunday marosimlar tarkibidagi o'yinlar o'zining rituallik xususiyatini yo'qotib, oddiy tomosha unsuri yoki ko'ngilochar vositasiga aylangan.

Bolalar o'yinlarining muayyan bir qismi bevosita qadimgi odamning o'z turmush tarzini badiiy talqin etish ehtiyoji tufayli bevosita mehnat qilish jarayonida shakllangan. Ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, shuningdek, qadimgi hunarmandchilik, ajdodlarimizning kundalik turmush tarzi bolalar o'yinlarining kelib chiqishiga asos bo'lgan dastlabki va asosiy ijtimoiy manbalar sirasiga kiradi.

Ajdodlarimiz — qadimgi turkiy qavmlarining turmush tarzi ovchilik, chorvachilik bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Ko'chmanchilikka asoslangan turmush tarzi ajdodlarimizdan o'z farzandlarini yaxshi chavondozi, qarag'ay mergan, kuragi yer ko'rmagan pahlavon qilib tarbiyalashni taqozo etadi. Shuning uchun ot o'yinlari, poyga, tirandozlik musobaqalari kurash, tuya, qo'chqor, xo'roz urushtirish qadimdan keng rasm bo'lgan edi. Ana shu an'analar asosida asrlar davomida o'zbek bolalar folklori o'yinining badiiy tizim shakllangan. Bolalar o'yin folkloriga oid manbalar to'plash quyidagi davrlarga bo'linadi:

1. XI asrdan XIX asrning ikkinchi yarmigacha bo'lgan davr.
2. XIX asrning oxiri XX asrning 30-yillarigacha bo'lgan davr.
3. XX asr 30-yillaridan to bugungi kunga qadar.

Bolalar o'yinlari haqidagi ilik ma'lumot XI asrda yashab o'tgan mashhur turkiyshunos olim M.Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida qayd etilgan. Turkiy qavmlar orasida to'p bilan o'ynaladigan qadimiy o'yinlardan biri chavgon keng rasm bo'lgan. Bolalarning o'yin tanlashdagi didi va o'yin turlari yillar o'tib o'zgarib bormoqda. Bugungi kundagi o'yinlarda vatanparvarlik ruhi yaqqol ko'rina boshladi. Bu o'yinlar xalq bilim va tajribasini yillar davomida mukammallashgan ko'rinishidir.

O'yinga chaqirish. Shahar va qishloq bolalari odatda kechqurunlari to'planib, gaplashib o'tiradilar. Ertaklar aytadilar. Turli xil o'yinlar o'ynaydilar. Shunday paytlarda bolalarni to'plash, o'yinlarni uyushtirish, ayrim bolalar tomonidan tashabbuskorlik ko'rsatish talab qilinadi. Shahar joylariga o'yinga quyidagicha chaqiriladi:

Tokchaga bug'doy sepuvdim,
Undimikin-o, undimikin?
Mashrabboy uydan chiqmaydi,
Yotdimikin-o, yotdimikin?

Qishloq joylarda esa keskinroq, murosasizroq ravishda chaqiriladi:

Tomda tovuq qotarmi,
Ayroningdan tortarmi?
O'yin yoqmas bolalar,
Nomozshomdan qotarmi,
Kel-ho!

Agar chaqiriluvchi qiz bola bo'lsa, uni birmuncha muloyim chaqiradi:

Oylar oydin bo'libdi, dugona,
O'ynagingiz kelibdi, dugona,
Yoki onang qo'ymaydimi, dugona,
Mushtdek qorning to'ymaydimi, dugona.

Bolalar folklori navqiron avlodning psixologiyasi xususiyatlarini, badiiy ijodkorligi salohiyati va imkoniyatlarini ifodalagan, unda bolalarning voqelikka munosabatlari, estetik qarashlari va rang-barang tuyg'u-kechinmalari muhurlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. —T.: 1994.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. «Muloqot» jurn. 5-son. 1999-y.
3. Karimov I.A. Milliy teatrimiz—iftixorimiz. —T.: 2001.
4. Karimov I.A. Eng qadimiy, asl milliy, g'oyat ardoqli bayram. —T.: 2002.
5. O'zbek folklori ocherklari. —T.: 1989.
6. Razzoqov H. va bosh. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. —T.: «O'qituvchi» 1998.
7. Imomov K va bosh. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. —T.: «O'qituvchi» 1990.
8. Imomov K. O'zbek xalq prozasi —T.: 1981.
9. O'zbek xalq ertaklari. —T.: 2000.
10. O'zbek xalq topishmoqlari. —T.: «O'qituvchi» 1991.
11. Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. —T.: «O'qituvchi» 1976.
12. Alaviya M. O'zbek xalq marosim qo'shiqlari. —T.: 1974.
13. Safarov O. Alla-yo alla. —T.: «Cho'lpon». 2000.
14. Nasriddinov K. O'zbek dafn-ta'ziya marosimlari. —T.: 1976.
15. Umarov S. Tarix va rivoyat. —T.: 1986.
16. O'zbek xalq maqollari.
17. O'zbek xalq dostonlari. 2 tom. «Fan» 1969.
18. Umarov S. Tarix va doston. —T.: 1985.
19. «Alpomish» dostoni —T.: 1998.
20. «Go'ro'qlining tug'ilish dostoni» —T.: 1985.
21. Jahongirov Q. O'zbek bolalar folklori. —T.: 1975.
22. Qosimov N. O'zbek xalq laparlari (nomz. diss) 1998
23. Qosimov N. Musiqa folklor ijrochiligi. —T.: 2000.
24. Davlatov S. Qashqadaryo vohasi to'y-marosim folklori (nomz. diss.) 1998.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
Xalq og'zaki ijodi va uning o'ziga xos xususiyatlari.....	4
Folklor-jamoaviy jod.....	6
Folklor-og'zaki ijod.....	7
An'anaviylik. Variantlilik.....	8
O'zbek xalq og'zaki ijodining tarixiy taraqqiyot bosqichlari.	9
Qadimgi davr folklori.....	10
Ibtidoiy tasavvurlar—animizm, totemizm va fetishizm.....	11
Qadimgi miflar.....	13
Kayumars va Jamshid haqidagi miflar.....	14
Qadimgi qahramonlik eposi.....	15
O'zbek folklorining tadrijiy taraqqiyoti.....	18
Mahmud Koshg'ariy — folklorshunos va etnograf sifatida.....	20
Mahmud Koshg'ariy lug'atida keltirilgan qadimiy mehnat qo'shiqlari.....	22
Devondagi mavsum qo'shiqlar haqida.....	24
Alisher Navoiy ijodida folklor.....	28
O'zbek xalq qo'shiqlari.....	29
Mehnat qo'shiqlari. Qo'shchi qo'shig'i.....	30
O'rim qo'shig'i.....	31
Xo'p mayda.....	32
Yong'ichoq qo'shiqlari.....	33
Sog'im qo'shiqlari.....	35
Hunarmandchilik qo'shiqlari.....	38
Ramazon.....	39
To'y qo'shiqlari.....	42
Yig'i — yo'qlovlar.....	43
Lirik qo'shiqlar.....	48
Og'zaki drama va masxarabozlar teatri.....	49
Qiziqchi va masxarabozlar teatri.....	51
Og'zaki dramaturgiya. Qo'g'irchoq teatri.....	52
Afsona va rivoyatlar.....	55
Rivoyatlar.....	57
O'zbek xalq ertaklari.....	60
Sehrli ertaklar.....	62
Hayotiy-maishiy ertaklar. Hajviy ertaklar.....	63
O'zbek xalq maqollari.....	68
Topishmoqlar.....	72
O'zbek xalq latifalari va loflari.....	74
Loflar.....	75
O'zbek xalq dostonchiligi va dostonchilik maktablari.....	76
Baxshilar.....	77
Doston kuylash tartibi.....	79
Dostonchilik maktabi.....	81
Dostonlar tasnifi.....	85
Xalq termalari va ularning o'ziga xos xususiyatlari	86
O'zbek bolalar folklori.....	88
Erkalamalar.....	90
So'z o'yinlari. Bolalar qo'shiqlari.....	96
Bolalar o'yin folklori.....	96

MATLUBA MURODOVA

FOLKLOR VA ETNOGRAFIYA

Toshkent — «Aloqachi» — 2008

Muharrir:	J.To‘raxonov
Tex. muharrir:	A.Moydinov
Musahhih:	M.Hayitova
Kompyuterda sahifalovchi:	Sh.Mirqosimova

Bosishga ruhsat etildi 10.03.2007 y. Bichimi 60x84 1/16.
«Timez Uz» garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi. Shartli bosma
tabori 6,5. Nashriyot hisob tabori 6,2. Tiraji 500. Buyurtma №302.

«Aloqachi matbaa Markazi» bosmaxonasida chop etildi.
700000, Toshkent sh., A.Temur ko‘chasi, 108-uy.

ISBN 978-9943-326-35-4



9 789943 326354

